

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Qo`lyozma huquqida

UDK 9 (42)

Elimov Lochin Shavkatovich

**Angliya XX asr oxiri XXI asr boshlarida. Leyboristlar hokimiyat tepasida
(1997-2010)**

Mutaxassislik: 5A120302- Tarix (yo`nalishlar va mamlakatlar bo`yicha)

**Tarix (yo`nalishlar va mamlakatlar bo`yicha) magistr akademik darajasini
olish uchun yozilgan**

D I S S E R T A T S I Y A

Ish ko`rib chiqildi va himoyaga qo`yildi.

**Jahon tarixi kafedrasi mudiri tarix fanlari
nomzodi ,dotsent**

Xoshimova M._____

«____» _____2018 yil

Ilmiy rahbar:

**tarix fanlar nomzodi
Rahmatullayev M.R.**

SAMARQAND-2018

Mundarija:

Kirish.....	3-9
I. Bob. XX asr oxirida Buyuk Britaniyaning ichki siyosati (1997-2000)...	10-39
1.1.T.Bler ma'muriyati va Angliyaning iqtisodiy ahvoli.....	10-19
1.2. Ijtimoiy va konstitutsiyaviy islohotlar.....	19-32
1.3. Mintaqaviy boshqaruv tizimidagi islohotlar.....	33-39
II. Bob. XXI asr boshlarida Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. (2001-2010).....	40-61
2.1. XXI asrning dastlabki o'n yilligida mamlakat xo'jaligi.....	40-53
2.2. Jahon moliyaviy inqirozi va Angliya	54-61
III.Bob. Angliya tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari (1997-2010)....	62-88
3.1. Angliya -AQSH munosabatlari	62-69
3.2. Angliya va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlar	70-77
3.3. Angliya-Rossiya munosabatlari.....	78-88
Xulosa.....	89-92
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	93-97

Kirish

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Mustaqillik tufayli demokratiya yo‘lidan rivojlanayotgan yurtimizda tarixiy manbalarga tayangan holda, tarixiy voqeyelikni bo‘yab ko‘rsatmasdan, o‘z ko‘rinishida yoritish, uni xolis tadqiq etishga sharoit yaratildi. Shu munosabat bilan yurtimizda tarix faniga alohida e‘tibor qaratilib, nafaqat Vatan tarixi, shuningdek Jahon tarixini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, jahon tarixida ro‘y bergan va ro‘y berayotgan siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy o‘zgarishlar, globallashuv sharoitida O‘zbekistonga o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi. Zero, O‘zbekiston tarixi- Jahon tarixining ajralmas qismidir.

XX asr oxiri XXI asr boshlarida insoniyat tarixi misli ko‘rilmagan voqealarga boy bo‘ldi. Uning 90-yillari esa jahon siyosiy xaritasi va jarayonlarida tub o‘zgarishlarni boshlab bergan bir qator voqeliklarni yuzaga keltirdi. Avvalo, Sobiq Ittifoq parchalanishi, xalqaro maydondagi bipolyar tizimni tugatilishi va “sovuq urushi” davrining yakunlanishi bilan davlatlar tashqi aloqalarini o‘rganish, ularning tarixiy jihatlarini aniqlash dolzarb masalalarga aylandi. Jumladan, Yevropada o‘zining o‘rniga ega bo‘lgan Buyuk Britaniya bilan O‘zbekiston o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatildi. Munosabatlar o‘rnatilgan dastlabki kunlardan o‘q, O‘zbekiston va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi yaqinlik yildan-yilga oshib bormoqda. Ko‘plab o‘zbekistonlik yoshlar ham Buyuk Britaniyaning ko‘plab oliygohlarida tahsil olib qaytmoqda. Shuningdek yurtimizda Buyuk Britaniyaning tarixiga bo‘lgan qiziqish yildan yilga oshib bormoqda.

Ta’kidlash joizki, Buyuk Britaniya Yevropa qit’asiga yaqin orolda joylashgan davlatdir. XX asr 90-yillarida Buyuk Britaniyada siyosiy va iqtisodiy hayotda bir qancha o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Buni quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, Buyuk Britaniyada hukumat tepasida turgan konservatorlarning obro‘sining keskin tushub ketishi ;

Ikkinchidan, davlat iqtisodiy ahvoli ancha tang vaziyatga tushishi;

Uchinchidan, Buyuk Britaniyada mintaqaviy muammolar borgan sari kuchaya bordi;

To'rtinchidan, davlatning xalqaro maydondagi obro'si borgan sari pastga qarab ketmoqda edi;

Yuqorida sanab o'tilgan omillar Buyuk Britaniyaning rivojlanishi yo'lidagi to'siq edi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. XX asrning so'ngi va XXI asrning dastlabki o'n yilligi davrida davlatning boshqa davlatlar bilan birinchi navbatda, AQSh, Yevropa Ittifoqi va Rossiya bilan olib borgan aloqalari tarixini ilmiy jihatdan yoritib berish tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada hukumat tepasida turgan leyboristlar partiyasi va uning rahbarlari Toni Bler va Gordon Braun olib borgan siyosat tadqiqot ishining predmeti bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi 1997-2010-yillarda Buyuk Britaniyada hukumatga boshchilik qilgan leyboristlar partiyasi vakillari bo'lgan Toni Bler va Gordon Braunlar davridagi olib borilgan ichki va tashqi siyosatga bog'liq bo'lgan islohotlarning o'ziga xos jihatlarini ilmiy tomondan ochib berish va asosiy tendensiyalarini tadqiq etishdan iborat. Mazkur maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagilar magistrlik dissertatsiyasining vazifalari sifatida belgilab olindi:

- XX asr oxiridagi Buyuk Britaniyadagi siyosiy hayotdagi tanglikning yoritish;
- Leyboristlar partiyasining hukumat tepasiga kelishini tahlil qilish;
- Toni Blerning siyosiy hayotga kirib kelishi va bosh vazirlikka saylanishini yoritish;
- Mintaqaviy boshqaruv tizimida olib borilgan islohotlarni tushuntirib berish ;
- Konstitutsiyaviy islohotning mohiyatini ochib berish;
- Davlatning iqtisodiy ahvolidagi bo'lgan o'zgarishlarni tushuntirish;

- Buyuk Britaniyaning tashqi siyosati va undagi kamchiliklar mohiyatini ochib berish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. XX asr oxiri XXI asr boshlarida Buyuk Britaniyada hukumat tepasida turgan leyboristlar partiyasi rahbari, mamlakat bosh vaziri bo'lgan Toni Bler tomonidan olib borilgan ishlar asosiy tendensiyalarini ochib berish asnosida quyidagilar ilmiy ishning asosiy masalalari va farazlari sifatida belgilanadi:

- Buyuk Britaniyada siyosiy hayotda hukumatni egallash uchun asosiy kurashuvchi ikkita partiyaning mavjudligi;
- Tashqi siyosatda Angliya va AQSh o'rtasidagi asosiy munosabatlar yildan-yilga rivojlanib borishi;
- Jahon iqtisodiy inqirozining Angliyaga ta'sirining o'ziga xosligi va unda davlatning ko'rgan zararlari tahlili;
- mintaqaviy xavfsizlik tashkil qilish maqsadida Yevropa Ittifoqi bilan olib borilgan ishlar va boshqalar.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. Zamonaviy tarixda Buyuk Britaniyaning 1997-2010-yillardagi tarixini g'arblik tarixchilardan Corbett R¹. Grant C². Helmer R³. Mahony H⁴. va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashda MDH va Rossiyalik olim va tadqiqotchilar Остапенко Г.С., Прокопов А.Ю⁵, А.А. Громыко⁶,

¹ Corbett R. Why eurosceptiques should vote for the Constitution. - www.euobserver.com/?aid=18119, 12.01.2005

² Grant C. What if the British vote No? - Foreign Affairs, May / June 2005 - www.foreignaffairs.com
³ Helmer R. Busting the EU myths.- www.brugesgroup.com/mediacentre/comment.live?article=12

⁴ Mahony H. Plans for EU diplomatic service can officially begin. - www.euobserver.com/?aid=18233, 26.01.2005

⁵ Остапенко Г.С., Прокопов А.Ю. Новейшая история Велико британии: XX — начало XXI века: Учеб. пособие. — М.: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2012. — 472 с.

⁶ Великобритания. Эпоха реформ / Под ред. А.А. Громыко. - М., 2007

Капитонова Н.К⁷, Касымов И.В, Минаев М.В⁸, Романова О.В⁹, Терентьев А.А . va boshqalarning mazkur muammoga bevosita yoki bilvosita to'xtilib o'tishgan ilmiy asarlar, kitoblar, o'quv qo'llanmalar, jurnal, gazeta va internet manbalarida chop etilgan maqolalaridan keng foydalanildi.

Shuningdek internetdagi rasmiy web saytlaridan Buyuk Britaniyaga oid ma'lumotlardan ham foydalanildi.

Tadqiqotning davriy va xronologik chegaralari. Tadqiqotning davriy va xronologik chegarasi 1997-yildan 2010-yilgacha Buyuk Britaniyada leyboristlar partiyasining hukumat tepasida davrni aks ettirilgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Mazkur mavzuni o'rganishda avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning milliy davlatchilik tarixi, mamlakat taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari, milliy ma'naviyatni yuksaltirishga qaratilgan tashqi siyosat masalalari keng va har tomonlama yoritib berilgan asarlariga va xalqaro tashkilotlar doirasida O'zbekiston yondoshuvi yuzasidan so'zlagan nutqlariga tayanildi.

Prezidentning tarixni o'rganishda aniq va real voqealarga tayanish kerak, degan fikrlari asosida mavzu ilmiy-metodologik me'yorlar doirasida yoritishga harakat qilindi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlaridagi nazariy yondashuvlar ishning metodologik asosi qilib olindi. Xususan " Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak¹⁰:", " Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.¹¹", " kabi asarlaridan, bundan

⁷ Капитонова Н.К. Великобритания в конце XX – начале XXI века: от консерваторов к лейбористам: Учебное пособие. М.: МГИМО (У) МИД России, 2003. 128 с

⁸ Минаев М. В. Американско-британские отношения при правительстве Блэра//США - Канада: экономика, политика, культура. - 2008. - № 5. - С. 31-43.с

⁹ Романова О.В. Внешнеполитические стратегии Франции, Германии и Великобритании в контексте развития и имплементации ОБПБ ЕС: дис. ... канд. ист. наук: 23.00.04. Одесса, 2008. 185с.

¹⁰ Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". 2017 yil 14 yanvar Sh.M. Mirziyoyev.– Toshkent : O'zbekiston, 2017. – 104 b.

¹¹ Mirziyoev, Shavkat Miromonovich. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz"/Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: : "O'zbekiston", 2017. – 488 b.

tashqari O'zbekistonda mustaqillik yillari chop etilgan ilmiy asarlar hamda davriy matbuot nashrlaridan ham keng foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur dissertatsiya Angliyada leyboristlar hokimiyat tepasida 1997-2010-yillarni o'z ichiga olgan muhim ma'lumotlarni qamrab olgan bo'lib, tarix va siyosatshunoslik yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, ayniqsa Buyuk Britaniya ichki va tashqi siyosati borasida izlanish olib borayotgan talabalar, ilmiy xodimlar, shuningdek, xalqaro munosabatlar yo'nalishida tahsil oladiganlar uchun ilmiy-amaliy qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Magistrlik dissertatsiyasida zamonaviy davrdagi Buyuk Britaniya tarixini yoritishga xizmat qiladi. Bu kungacha yurtimizda Angliyaning 1997-2010-yillardagi tarixini yoritish bo'yicha birorta magistrlilik dissertatsiyasi himoya qilinmagan. Shundan kelib chiqqan holda tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- Buyuk Britaniyaning 1997-2010-yillardagi harbiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarini tarixiy va zamonaviy tendensiyalarini zamonaviy tarix nuqtai-nazaridan ilmiy tahlil etilishi;
- Toni Bler tomonidan ishlab chiqilgan islohotlarning davlat hayotiga bo'lgan ta'sirini obyektiv va subyektiv jihatdan yoritilishi;
- Angliya va AQSH o'rtasidagi maxsus munosabatlarni har tomonlama, obyektiv tadqiq etish;
- Aynan yuqorida sanab o'tilgan sabab va omillardan kelib chiqqan holda Buyuk Britaniya-Rossiya o'rtasidagi harbiy va energetika borasidagi hamkorlik, Buyuk Britaniyaning G'arb davlatlari tomonidan Rossiyaga bo'lgan salbiy munosabatidagi o'rni o'zaro qiyosiy tahlili;
- mavzu yuzasidan ingliz, rus tilidagi adabiyotlar, monografiyalar, ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, har ikki mamalakat olimlari tomonidan

olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining o'zbek tiliga tarjimasi va ularning tahlili yuzasidan xolisona, ilmiy yondoshuv;

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, hamda tadqiqotga doir ilovalardan iborat.

Birinchi bob, Angliyadagi XX asr oxiridagi iqtisodiy hayot, hukumat rahbarlari tomonidan olib borilgan islohotlar va ularning samarasi, Angliya tarixida mashhur shaxslardan biri bo'lgan Toni Blerning siyosiy hayotga kirib kelishi va bosh vazir sifatida saylanishi, Leyboristlar hukumati vaqtida Buyuk Britaniyada mintaqaviy boshqaruv va konstitutsion islohotlarning amalga oshirilishi yoritilgan.

Ikkinchi bob, XXI asrda Buyuk Britaniya siyosati, iqtisodiy hayoti, ijtimoiy va madaniy sohalaridagi o'zgarishlarga e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari Angliyada yashayotgan muhojirlarga bo'lgan munosabat ham ishning aynan ikkinchi bobida yoritilgan. Bundan tashqari, 2008-yilda boshlangan butun jahon moliyaviy inqirozi va uning Angliya iqtisodiga bo'lgan ta'siri haqida ma'lumotlarni keltirib o'tishga harakat qildim.

Uchinchi bob, Buyuk Britaniyaning boshqa davlatlar bilan bo'lgan munosabatlarini o'z ichiga oladi. Unda Angliyaning AQSh, Yevropa Ittifoqi va Rossiya bilan bo'lgan munosabatlariga to'xtalдим. Buyuk Britaniya tashqi siyosatida ularning manfaatlari mushtarakligi, tashqi siyosiy faoliyatlarini olib borishda ularning o'zaro qo'llab-quvvatlashi, mintaqaviy xavfsizlik masalalarida, turli xalqaro tashkilotlarda ishtirok etishi va unda manfaatlar to'qnashuvi hamda ularning qiyosiy tahlili ushbu bobda o'z aksini topgan. Shuningdek, bu davlatlar o'rtasidagi madaniy va ilmiy-texnik hamkorlik, uning shakllanish tarixi va kelgusi istiqbollari tahlil etishga harakat qilingan.

Ishning tuzilishi va qisqacha mazmuni:

Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 97-sahifani tashkil etadi.

I.Bob. XX asr oxirida Buyuk Britaniyaning ichki siyosati (1997-2000).

1. 1.T. Bler ma`muriyati va Angliyaning iqtisodiy ahvoli.

XX asrning 90-yillar davomida leyboristik harakatining yangi mafkuraviy va siyosiy qiyofasini izlash faol davom etdi. N.Kinnok, aynan uning o'zi rahbarligida leyborizmni yangilashga qat'iy burilish yasalgan bo'lsa-da, u iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. 1992-yilda uning o'rnini egallagan Jon Smit, iste'dodli tashkilotchi va notiq bo'lib, u islohotlarni davom ettirdi. Jon Smit tred-yunionlarning leyboristik partiyaga ta'sirini ancha susaytirishga erishdi. Bunda 1993-yilda bo'lib o'tgan partiya syezdida "qo'shma ovoz berish" (ya'ni, agar biror kasaba uyushmasi a'zolari partiya a'zolari bo'lishsa, bu kasaba uyushmasi raisi barcha a'zolar nomidan ovoz berishi mumkinligi)ning bekor qilinishi hal qiluvchi rol o'ynadi. Syezd ovoz berishda "bir odam-bir ovoz" qoidasini joriy qildi. O'sha 1993-yilda Leyboristik partiya rahbariyatidan leyboristik "ultrasotsializm" vakillari ham chetlashtirildi. Leyborizm ijtimoiy- liberal mafkuraga aylanib bordi.

1994-yil martida ikkita infarktdan so'ng Smitning o'limi ham partiyaning isloh qilishni to'xtatmadi. Partiya rahbari, o'zida Britaniya siyosatchilarining yangi avlodini mujassam etgan 40 yoshli Entoni Bler bo'ldi¹². Bler o'zidan oldingi rahbarlar faoliyati natijalariga suyanan holda leyboristlar qiyofasini o'zgarishga ularning yangi partiya sifatida shakllantirishga asosiy e'tiborni qaratdi. Bu borada ilk qadam partiya ramzi sifatida qizil bayroqni qizil atirgulga almashtirgan Kinnok davridayoq qo'yilgan edi. Bler eng zamonaviy RR-texnologiyalar (PR-publik relatons-ijtimoiy aloqalar)dan foydalangan holda jamiyat ongida "yangi leyborizm"ning novatorik obrazini mustahkamlash, yangi partiya rahbariyati qiyofasini-XXI asr siyosatchilari avlodi kabi o'zgartirishga harakat qildi. Hal

¹² Остапенко Г.С., Прокопов А.Ю. Новейшая история Велико британии: XX — начало XXI века: Учеб. пособие. — М.: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2012. — ст. 355-356.

qiluvchi hodisa, partiya nizomini o'zgartirishga bag'ishlangan konferensiya 1995-yilda bo'lib o'tdi. Nizomning yangi tahriri leyboristlar partiyasini harakatchanlik va raqobatga asoslangan, imkoniyatlar tengligini va qashshoqlikdan saqlanish kafolatini bera oluvchi "adolatli jamiyatni" yaratishga asoslangan "demokratik va sotsialistik" partiya deb ko'rsatar edi. Nizomda ishlab chiqarish vositalariga jamoat mulki ustunligi to'g'risidagi holat olib tashlandi. "Sotsializm tushunchasining o'zi endilikda jamiyat qurilishining loyihalaridan biri emas, balki individ va jamiyatning o'zaro eng maqbul (optimal) munosabatining idealini aks ettiruvchi axloqiy tusga ega bo'ldi. 1995-yil konferensiyasi qarorlariga norozilik shaklida leyboristlar partiyasi tarkibidan Sotsialistik leyboristlar partiyasini tuzgan Artur Skargillning guruhi ajralib chiqdi. Ammo bu parchalanish leyboristlar obro'siga ham, ularning rahbari mavqeiga ham zarracha ta'sir etmadi.

1997-yildagi saylovoldi manifest "yangi leyborizm" g'oyalari ruhida tuzilgan edi. Umuman olganda iqtisodiy sohada "Status quo"ni saqlashga harakat qilib, leyboristlar partiyasi huquqiy islohotlar o'tkazish va tashqi siyosatni o'zgartirish zarurati haqida bayon qiladi¹³. Jumladan, lordlar palatasini isloh qilish, referendumlar institutini mustahkamlash, proporsional saylov huquqini joriy qilish, Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiyada konstitutsiyaviy islohot o'tkazish taklifi kiritildi. Partiya dasturi "Tetcherdan keyingi" davrga yaqin iqtisodiy g'oyalarni va yetarlicha radikal bo'lgan Yevropeistik g'oyalarni o'z ichiga olardi. Bler YIning sotsial partiyasi va Yevropa valyuta tizimiga qo'shilishga tayyor ekanligini bayon qildi. Saylovoldi kurash davrida "Amerika omili"dan ham foydalanildi-bosh vazirdan farqli o'laroq, Bler B.Klinton bilan do'stona munosabatlar o'rnatildi.

1997-yil may oyidagi saylovlar natijalari oldindan ma'lum edi. Leyboristlar olgan ovozlar ulushi (45%) ularning eng yuqori yutug'i bo'lmasa ham, parlamentda qo'lga kiritilgan o'rinlar soni ancha ko'p (659 dan 419 o'rin) edi.

¹³ Великобритания. Эпоха реформ / Под ред. А.А. Громыко. - М., 2007.ст.233.

Konservatorlar esa 30,2% ovozga bo'lib, bor-yo'g'i 165 ta o'z nomzodlarini parlamentda joylashtira oldilar. Bu oxirgi 90 yil davomida eng past ko'rsatkich edi. Ayniqsa, Shotlandiya va Uelsda konservatorlar tarixda ilk bor birorta ham ovozga ega bo'lmaganligida namoyon bo'ldi. Saylovchilarning atigi 17% ovoziga egalik qilgan liberal demokratlar o'z taktikalari tufayli 34 ta okrugda g'alaba qozonishga muvaffaq bo'lishdi. Milliy partiyalar yutuqlari kutilmagan hodisa bo'ldi. Shotlandiyaning to'liq mustaqilligi uchun kurashayotgan Shotlandiya Milliy partiyasi bu yerda 22% ovozga ega bo'ldi, "Pleyd Kinf" uchun esa Uels saylovchilarning 10 qismi ovoz berdi.

Leyboristlar partiyasida tarixida o'zining o'chmas izini qoldirgan Toni Bler haqida to'xtalib o'tsam. Toni Bler 1953-yilning 6-mayida Shotlandiyaning Edinburg shahrida Leo va Xeyzel Bler oilasida tug'ilgan. U avval ona shahridagi o'rta maktabda ta'lim oladi, keyinchalik Fettis kollejida o'qishni davom ettiradi. Toni bu paytda bo'lajak mashur rejissor Meri Xarron bilan tanishadi. Uning talabalik yillaridagi do'sti ruhoniy Piter Tomson edi. Bler yoshligidanoq din va sotsializmga qiziqish bilan qaragan. Oksford universitetiga qarashli Sent Jon kollejining huquqshunoslik yo'nalishidga o'qishga qabul qilinadi. Toni o'qib yurgan vaqtlarda rokn-rolga juda ham qiziqadi. Hattoki "Ugly Rumas" degan rok guruppaga qatnashib yuradi. Tonining sevimli kitobi Lev Trotskiyning biografiyasi edi. 1975-yilda u universitetni tamomlaydi. Shu yili u bo'lajak turmush o'rtog'i Cheri But bilan tanishadi. 1980-yil 29-martda turmush qurushadi. Ularning oilasida 4 nafar farzand: Yuen, Nike, Ketrin va Leolar dunyoga keladi.

1976-yilda advokatlik kollegiyasida o'z faoliyatini boshlagan Toni Bler shu vaqtdan Leyboristlar partiyasining hududiy bo'limiga a'zo bo'lib kiradi.

1983-yilda bo'lib o'tgan saylovlarda Toni Bler birinchi marta leyboristlar partiyasining Darem grafligining Siedjfeld okrugidan umumpalataga deputat sifatida saylanadi. Bu Toni uchun juda muvaffaqiyatli bo'ldi.

1984-1987-yillarda Bler muxolifat tarkibida hukumatda iqtisodiy va moliya jihatlarini o'rganadigan vakil bo'ldi. Keyingi ikki yil davomida u "Tayms" gazetasida ishlaydi.

1985-yil may oyida Toni Bler o'zining siyosiy fikrlari jam bo'lgan "White Paper" ni Bi Bi Sida e'lon qiladi. Bu, albatta, shu vaqtda davlatni boshqarib turgan konservatorlarning davlat boshqaruvidan noroziligi oqibatida edi. Toni bu hujjatda fuqarolarga ko'proq erkinlik berish kerakligi talabi bilan chiqadi.

1989-yildan leyboristlar partiyasining Milliy ishlarni bajaruvchi komitet a'zosi bo'lib ishlaydi. Shu yili Bler partiyadoshlari ko'magida "Sotsial charter" dasturini e'lon qiladi. Bu dastur leyboristlar partiyasining har tomonlama maqsadi, tuzilishi va boshqa jihatlarini qamrab olgan edi.

1992-yilda leyboristlar partiyasiga yangi rahbar Jon Smit kelgandan so'ng Toni Bler ichki ishlar vazirligi tarkibida ishlagan. Bu davrda ham u o'zining har tomonlama tirishqoqligini namoyish qildi. Jon Smit vafot etgandan so'ng Toni Bler 1994-yilning 21-iyulida partiyaning yangi rahbari sifatida saylanadi¹⁴. Uning partiyaning yetakchisi bo'lishi oson kechmagan, u buning uchun Leyboristlar partiyasida katta obro'ga ega bo'lgan Jon Preskot va Margaret Bikkerlarning qarshiligini yengib o'tdi. G'alaba qozongan bo'lsada, Blerga nisbatan partiya ichida muxolifat shakllandi.

Toni Bler 1995-yilda leyboristlar partiyasining 4 banddan iborat dasturini e'lon qildi. Bu tuzilgan dastur Bler tomonidan olg'a surulgan "yangi leyborizm" g'oyalari bilan sug'orilgan edi¹⁵. Chunki u saylov oldi kampaniyasida ham leyboristlar yo'nalishini yangilash kerakligini ta'kidlaydi. Shu yili u partiya tuzilishini o'zgartirib leyboristlar nomi o'rniga "Yangi leyboristlar" nomini olg'a suradi, va shu nom bilan saylov kampaniyalarida qatnashadi. Uning bu dasturi

¹⁴ Grant C. What if the British vote No? - Foreign Affairs, May / June 2005 - www.foreignaffairs.com

¹⁵ Остапенко Г.С., Прокопов А.Ю. Новейшая история Велико британии: XX — начало XXI века: Учеб. пособие. — М.: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2012. — ст.358.

davlatning har tomonlama rivojlanishiga turtki bo'lishi kerak edi. Leyboristlar ko'proq ijtimoiy sohaga e'tibor qaratish kerakligini takidlaydi¹⁶.

Toni Blerning 1997-yil saylovoldi dasturida iqtisodiy sohada "Status quo"ni saqlashga harakat qiladi. Unga ko'ra, leyboristlar partiyasi mamlakatda huquqiy islohotlar o'tkazish va tashqi siyosatni o'zgartirish zaruriyati haqidagi fikrlarni ilgari surdi. Misol sifatida, Lordlar palatasini isloh qilish, referendum inisitutlarini mustahkamlash, mutanosib saylovlar huquqini joriy qilish, Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiyada konstitutsiyaviy islohotlar o'tkazish taklifini kiritdi. Bundan tashqari, Bler Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlarni ancha yaxshilash tarafdori bo'lgan. Xususan, uning aytishicha, Buyuk Britaniya Yevropaning sotsial xaritasi va Yevropa valyuta tizimiga qo'shilishga tayyor. Saylov oldi kurash davrida "Amerika omili"dan ham foydalandi. Bu davrda Bler bosh vazir (Jon Meyjor)dan farqli o'laroq, AQSh prezidenti Bill Klinton bilan do'stona munosabatlar o'rnatildi.

XX asrning 90-yillarda ham oxirlarida Buyuk Britaniya iqtisodiyoti barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qoldi. Yigirma yillik islohotlardan so'ng raqobatbardoshlikning yuqori darajasini ta'minlovchi zamonaviy sohaviy struktura shakllandi. Unumdorlik va bandlik bo'yicha xizmat ko'rsatish sohasi birinchi o'ringa chiqib oldi (Yalpi Ichki Mahsulotning 66,8% i va bandlarning 71,5%). Uning rivojlanishida moliyaviy soha alohida ahamiyatga ega bo'ldi. U YAIM ning 25%i va mamlakat mehnat resurslarining 12%ini (deyarli 4 million kishi) o'z ichiga olardi. YAMMning 31,4%i va bandlarning 26,4%i sanoat va qurilishga to'g'ri kelardi. Zamonaviy Britaniya sanoatining o'ziga xos xususiyati fanning keng tadbqiq qilinishi bo'ldi. Bu ko'rsatkich Yevropa mamlakatlari ichida eng yuqori edi. Qishloq xo'jaligi atigi YAIMning 1,8%ini va mehnat resurslarining 2,1%ini o'z ichiga olardi. Bu soha ham yetarlicha samarali edi, ammo "sigirlar quturishi" tufayli katta talofatlar ko'rdi.

¹⁶ Голицынский, Ю.Б. Великобритания [Текст] = Great Britain: [пособие по страноведению] / [сост.]: Ю. Б. Голицынский. Санкт-Петербург: КАРО, печ. 2014 – 477 с. 102 с.

1999-yil iyunida Bler hukumati asosiy nufuzli yo‘nalishlar deb “egiluvchan” mehnat bozorining rivojlanishi, motivatsion kompleksning mustahkamlanishi, bandlikni qo‘llab-quvvatlash uchun davlat to‘lovlarini qisqartirishni e‘lon qiluvchi dasturni qabul qildi. Bunda, faqatgina, amalga oshirilishi uchun 5,7 mlrd. dollar ajratilgandi. Bundan yoshlarni kafolatlangan ish joylari bilan ta‘minlash dasturi mustasno bo‘ldi.

Bu davrda Buyuk Britaniyada investitsion faoliyatning favqulodda yuqori darajasi ham saqlandi. Investitsion (“portlash”)ning asosiy manbalari juda kichik foiz stavkalari (5,5%), mamlakat umumiy iqtisodiy ahvolidan yaxshiligi va ichki bozordagi keskin raqobatdan iborat bo‘ldi. Britaniya iqtisodiyoti YIga xorijiy investitsiyalarning 1/3 qismini jalb qilgan holda xorijiy biznes uchun kapital qo‘yishning foydali bozoriga aylandi. Buyuk Britaniyada, yuqori texnologik ishlab chiqarish sohasidagi eng yirik TNKlar bilan birga 13 mingdan ortiq xorijiy kompaniyalar faoliyat ko‘rsatadi¹⁷.

Leyboristlar allaqachon yangi konservatorlar tomonidan tekshiruvdan o‘tkazilgan investitsion bozor harakatchanligini ta‘minlashning samarali usulidan foydalanishdi. Bu usul imtiyozlarni qisqartirish orqali soliq bazasini kengaytirish bilan bir vaqtda to‘g‘ri soliqlar stavkasini kengaytirishdan iborat edi. Bler hukumati daromad solig‘i umumiy stavkasini 20%gacha individual daromad solig‘i minimal darajasini kelajakda 10% gacha kamaytirishga bosqichma-bosqich tayyorlanish to‘g‘risida bayonot berdi. 1997 va 1999-yillarda korporatsiya va kichik kompaniyalarni soliqqa tortish ham kamaytirildi. Leyboristlar aholi jamg‘armalarini soliqlar bilan rag‘batlantirish tizimini individual kapital qo‘yishlar orqali investitsiyalarni moliyalashtirishning muhim manbai sifatida saqlab qolishga harakat qildi. Umuman, Buyuk Britaniyada rivojlangan mamlakatlar ichida to‘g‘ri soliqlarning eng past darajasi shakllandi. Ammo bunday rag‘batlantiruvchi siyosatning bartaraf etib bo‘lmaydigan oqibati “iste‘molchilik savati” ning juda

¹⁷ Перегудов С.П. Тони Блэр – архитектор «нового лейборизма». — М.: РОСФролов В.П. Либеральные демократы Великобритании на парламентских выборах: программные установки, стратегия, избиратели. — Магадан: Изд-во СМУ, 2003.-СПЭН, 1999

yuqori qiymatini saqlab qoluvchi egri soliqlarning to'xtovsiz (bir tekisda) oshishidan iborat bo'ldi.

Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha Britaniya iqtisodiyoti 90-yillar oxirida GFR va Fransiyaning ijtimoiy-bozor iqtisodiyotidan ustunroq edi. Ammo yangi konservatorlik islohotlarning natijasi ijtimoiy infratuzilma rivojlanishining susayishidan iborat bo'ldi. Bu sohada allaqachon Meyjor hukumati tuzatishlar kiritishga urinib ko'rgan edi. Bler ham ijtimoiy siyosat sohasida bir qator muhim choralar ko'rdi. Budjetni barqarorlashtirishni besh yillik dasturini rivojlantirish uchun 1998-yilda Gordon Brauning maxsus dasturini qabul qildi. Bu dasturda uch yil ichida ijtimoiy strukturani moliyalashtirishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan edi. Ustuvor yo'nalishlar sifatida ta'lim sohasidagi xarajatlar, kasbiy ta'lim, yoshlar uchun yalpi ish o'rinlarini yaratish va sog'liqni saqlash tizimi ko'rsatilgan edi. O'sha paytda hukumat telefon aloqasi va transport tizimini yangilash bo'yicha keng ko'lamli loyihani ishlab chiqishga kirishgan edi. 1999-yilda bolalikni himoya qilish, voyaga yetmaganlar ichida onalik muammosini hal etish, o'smirlar ichida giyohvandlikka qarshi kurashish bo'yicha dasturlar qabul qilindi.

Buyuk Britaniyaning bu davrdagi iqtisodiy ahvoli unchalik ham yomon deb bo'lmasdi. Iqtisod 1990-yillardan beri ya'ni konservatorlar davridan buyon asta-sekinlik bilan bo'lsada rivojlanib kelmoqda edi.

Biroq leyboristlar davrida iqtisod kutilmaganda orqaga qarab keta boshladi. Bunga sabab sifatida qishloq xo'jaligida boshlangan inqirozni keltirib o'tishimiz mumkin. Leyboristlar qishloq xo'jaligida bunday inqirozni boshlanganligi sababli bir qator choralarni ko'rishga majbur bo'ldi. Qishloq xo'jaligida anig'rog'i chorvachilikda chorva mollariga tekkan quturish kasalligi iqtisodiyotning bu tarmog'ini orqaga qarab ketishiga sabab bo'ldi. Bu kasallik oqibatida ko'plab chorva mollarini hukumat buyrug'i bilan yo'q qilindi. Bundan tashqari bu vaqtgacha Buyuk Britaniya Yevropa bozorlariga ko'p miqdorda go'sht mahsulotlarini chiqarar edi. Kasallik natijasida Yevropa davlatlari bozorlarida

britan go'shtlarni sotish taqiqlab qo'yildi. Buning oqibatida Angliya iqtisodiga bu holat salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Toni Bler bunday vaziyatdan chiqib ketish maqsadida bir qancha choralar ko'rishga majbur bo'ldi.

2000-yil kuziga kelganda Buyuk Britaniyada yana bir yangi muammo paydo bo'ldi. Shu vaqtgacha o'z narxini aholi uchun qulay sharoitda saqlab kelayotgan yoqilg'ini bahosi keskin ravishda ko'tarilib ketdi. Hukumat tepasida turgan Toni Bler benzin inqirozini oldini olish uchun bir qancha choralar ko'rishga majbur bo'ldi. Natijada neftni qayta ishlovchi zavod va neft saqlovchi bazalar atroflarida ham mashinalar kalonnasi vujudga keldi. Bu holatni ko'rgan muholifatdagi siyosatchilar bu tashkilotlar qamalda qoldi degan fikrlarni bayon qilishdi. Bunday tang ahvolda qolgan leyboristlar yaxshi tushunardiki, agar biror chora qo'llamasalar vaziyat izdan chiqib yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin edi. Yangi umumsaylov arafasida leyboristlar saylov kampaniyasida saylovchilarga bu vaziyatni tartibga solishga va'da berdi.

Umumiqtisodiy ko'rsatkichlarga qarasak konservatorlar davri va leyboristlar boshqaruvining ilk vaqtlarida deyarli unchalik katta farqni hosil qilmagan edi. Leyboristlar hukumatda turganligining ilk yilida ya'ni, 1997-yil oxiriga kelganda fuqarolar daromadlar 10%dan oshdi. Bundan tashqari bu vaqtda Buyuk Britaniya asta-sekinlik bilan sanoatda yangi tehnologiyalarni joriy qilishni ishlab chiqarish hajmini oshirdi.

XX asrning 90-yillari Britaniya iqtisodida rivojlanish davri bo'ldi desak adashmagan bo'lamiz. Chunki, 1991-yildan 2004-yilgacha bo'lgan vaqt orolig'ida iqtisodiy o'sish 32% ni tashkil qildi. Bu ko'rsatkich dunyo davlatlariga solishtiradigan bo'lsak eng yaxshisi edi. Masalan, bu ko'rsatkich Fransiyada 19%ni, Italiyada 17%ni, Germaniyada 15% ni va Yaponiyada 14%ni tashkil qildi. Bu raqamlardan ham ko'rinib turibdiki Buyuk Britaniya iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari bo'yicha dunyoda yuqori o'rinni egallagan edi¹⁸.

¹⁸ Остапенко Г.С., Прокопов А.Ю. Новейшая история Велико британии: XX — начало XXI века: Учеб. пособие. — М.: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2012. — ст. 372.

Leyboristlar hukumati tarkibida Qishloq xo'jaligi vaziri bo'lgan Djek Kannigem mamlakatda qishloq xo'jaligini, baliq sanoati va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish, moderinizatsiya qilish dasturini ishlab chiqdi. Bu dasturga ko'ra iste'molchilar huquqini himoya qilish ham nazarda tutilgandi. 1998-yil iyul oyida Kanegem hukumat tarkibida yangi lavozimga o'tirdi. Toni Bler 1999-yilda va'da berdi, o'rmonlarda ovda ov itlaridan foydalanmaslikka, ovchilik bilan shug'ullanadiganlarni ham qattiq nazorat qilish choralari ko'ra boshladi.

Moliyaviy siyosat. XX asrning so'ngi o'n yilligida Buyuk Britaniyaning moliyaviy ahvoliga qaraydigan bo'lsak, bu davrda hukumat tepasida bo'lgan partiyalar konservatorlar va leyboristlar olib borgan siyosat natijasida bir qadar rivojlandi. Moliya sohasida konservator va leyboristlar ham ancha ko'zga ko'rinarli islohotlarni amalga oshirdi. Natijada davlatda infilyatsiya darajasi sezilarli ravishda pasaydi. 1999-yilga kelganda inflyatsiya darajasi 3,4%ni tashkil qildi. Bu ko'rsatkich davlatning keying davrdagi eng yaxshi ko'rsatkich sifatida qaraldi. Buyuk Britaniya hukumati bunday natijaga neft narxining ko'tarilishi va soliq stavklarining oshirishi sababli erishildi. Davlat iqtisodi ko'p yillardan beri davom etib kelayotgan barqaror rivojlanish darajasini saqlab qola oldi. Leyboristlarning boshqaruvining birinchi davrida davlat daromadlari ancha ko'paydi. Misol sifatida neftdan va soliqlardan kelayotgan daromad miqdori 10% ga oshganligi fikrimizni isbotlaydi. Hukumatning yirik korporatsiyalarga qo'yilgan soliq miqdorining pasaytirilishi o'z navbatida konservativ kayfiyatda bo'lgan siyosatchilar uchun ancha ahamiyatli edi. Agar bu ko'rsatkich 1970-yilda daromadning 52 % ni tashkil qilgan bo'lsa Bler hukumatining ilk boshqaruv davrida bu ko'rsatkich 30 %ni tashkil etdi. Bunday hol nafaqat yirik sanoatda balki shu bilan birgalikda kichik-biznesda ham kuzatildi. Buyuk Britaniyadagi o'rta sanoat kompaniyalari to'laydigan soliq miqdor (300 ming funt-sterling) ni konservatorlar davrida 23%ga kamaytirilgan bo'lsa, leyboristlar davrida esa 19%ga tushurildi.

Yirik kompaniyalar va kichik kompaniyalar davlatga to'laydigan soliq miqdorining kamaytirilishi ham kompaniyalarga ham davlatga foyda bo'ldi. Chunki kompaniyalar soliqdan ortib qolgan mablag'iga o'z ishchilarining malakasini oshirish va yangi ishlab chiqarish sohalarini tashkil qilishlari mumkin edi. Soliq stavkalarining kamaytirilishi oddiy fuqoralarga juda foydali bo'lib, soliqdan ortgan mablag'lar endilikda o'zlari uchun kerakli bo'lgan narsalarga sarflardi.

Davlatda ichiki investitsiyaning ko'payishi iqtisodning rivojlanishini har qachongidan ham kuchaytirib yubordi. Bundan tashqari Angliyada chetdan kiritilayotgan kapitallarga solinadigan soliq miqdori boshqa rivojlangan davlatlardagiga nisbatan ancha past ko'rsatkichda edi. Shuning uchun XX asrning oxiriga kelganda G'arb davlatlarining ko'pchiligi, Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan davlatlarning uchdan bir qismi Angliya iqtisodiga o'z investitsiyalarini kiritishgandi

Davlat kompaniyalarni xususiylashtirish, mahalliy tadbirkorlarga imtiyozli shartlar asosida kreditlar berish, bundan tashqari hukumat bir vaqtning o'zida bir qancha vazifalarni ; bular xususiy mulk egalari to'laydigan soliq miqdorini kamaytirish, harbiy sohaga sarflanadigan mablag'larni belgilangan rejasidan ham ma'lum darajada qisqartirish, budjetni tejash va shu kabilarni keltirib o'tishdi. Yana bir chora sifatida davlat budjetini to'ldirish uchun davlatning oltin zaxiralarining ma'lum qismini sotish ham nazarda tutilgandi. 1999-yilda 275 AQSH dollari hisobida 395 tonna oltinni 3,5 mlrd dollorga sotishga majbur bo'ldi. Bu qaror shoshma-shosharlik bilan qabul qilingan bo'lib, unga norozi bo'lganlar ham talaygina bo'lishdi. Hukumatning qabul qilgan bu qaroriga hukumatning o'zida va unga muholifda turgan partiya vakillari ham norozilik bildirdi. Leyboristlarning bu siyosati natijasida Buyuk Britaniyada yaqin 20 yil davomida pulning eng yuqori darajadagi qadrsizlanishi kuzatildi¹⁹.

¹⁹ Голицынский, Ю.Б. Великобритания [Текст] = Great Britain: [пособие по страноведению] / [сост.]: Ю. Б. Голицынский. Санкт-Петербург: КАРО, печ. 2014 – ст.234.

1.2. Ijtimoiy va konstitutsiyaviy islohotlar

1997-yilda parlament yig'lishida ko'pchilik qarori bilan iqtisodni barqarorlashtirish dasturi qabul qilindi. Toni Bler tomonidan boshqarilayotgan hukumatning iqtisodiy sohadagi dasturiga unga muholifat tarafdagi turgan uncha kuchli bo'lmagan qarshiligiga qaramasdan bu dastur parlamentda ko'pchilik tomonida qo'llab-quvvatlandi. Leyboristlar yetakchisi bo'lgan Toni Bler tomonidan iqtisodni tartibga solish maqsadida bir qator goyalarni olg'a suradi. "yangi leyborizm" g'oyasiga ko'ra kapitalning yangilangan ko'rinishi va demokratik sotsializmni solishtirib ularni jamiyat uchun ta'siri kuchli bo'lgan jihatlarni olishimiz va mamlakatning boyligi bo'lgan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zarurligini bildiradi.

Braun taklif qilgan budjet dasturi Jamoa palatasi yig'ilishida muhokamaga qo'yildi va buni iqtisodga qayyo'sinda foydasi tegishi xususida fikr mulohazalar bildirildi. Budjetni oldindan taqsimlab olish kerak, ya'ni davlatning xarajatlari nisbatini olib, davlat chiqaradigan zayomlarni kamaytirishni zarur deb belgiladi. Ayniqsa, alohida e'tiborni davlat budjetidan katta hajmi sarflanayotgan harbiy xarajatlarni $\frac{3}{4}$ qismga qisqartirishni zarur deb belgiladi. Bundan tashqari mahalliy idoralarga sarflanayotgan harajatlarni ham $\frac{1}{4}$ qismga qisqartirish lozimligi ham aytil²⁰.

Uchunchi yo'nalish konsepsiyasi leyboristlar partiyasining yangi yadrosi bo'lib, bu konsepsiya London iqtisod va siyosat fanlari maktabi direktori E. Guddison tomonidan ishlab chiqilgan edi. Uning "Uchunchi yo'l" nomli kitobi bo'lib unda davlatdagi iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish yo'llari va funksiyalari nazarda tutilgan edi. Bu kitob Bler tomonidan olg'a surilgan konsepsiyaning asosi sifatida qaralar edi. Bu kitobning asoschisi Blerning yaqin maslahatchilaridan bir bo'lib qoldi. "Uchunchi yo'l" kitobida yangi yuz yillikning

²⁰ Великобритания. Эпоха реформ / Под ред. А.А. Громыко. - М., 2007. ст. 235.

yangi siyosati va bu konsepsiyani ommaviy bayon etilgan asar sifatida qaralib, bu kitob 1998-yil sentyabr oyida chop etildi²¹.

Bler fikriga ko'ra" uchunchi yo'l" dasturi mamlakat fuqarolarining ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi bo'layotgan o'zgarishlarga o'zining qonuniy huquqlari orqali ta'sirini o'tkaza olardi. Bundan tashqari leyboristlar tomonidan olg'a surilgan bu dasturda insonning shaxsiy erkinliklari har narsadan ustun turishi, uning huquqlari davlat tomonidan himoya qilinishi bayon qilingan edi. Mamlakatning har bir fuqarosi davlat oldida o'z burchlariga ham sodiq bo'lishi, bundan tashqari o'z davlatining atrof-muhit muhofazasida, yoki xayriya ishlari va jamoat ishlarida faol qatnashishi belgilab qo'yildi.

Toni Bler hukumati ijtimoiy sohaga o'z e'tiborinni qaratar ekan yana shunga ham to'xtalib o'tdi. Unining bu dasturida mamlakatning kambag'al aholisi farzandlarini ta'lim olish sharoitlarini ham yaxshilash ko'zda tutilgan edi. Bu dasturda bilimga chanqoqi baland bo'lgan yoshlarga ta'lim berish sifatini oshirish, maktablarda o'qishga mablag'i yetmaydigan kambag'al oila farzandlarini bepul o'qitish undan tashqari yana bir qator imtiyozlar berildi.

Hukumat yoshlarning o'qishi va ishlashiga ham o'z e'tiborini qaratib o'tib bir qancha qonunlar qabul qilishga harakat qildi. Leyboristlar yoshlarni yo o'qish yoki bo'lmasa ish bilan band qilish fikrida edi. Shuning uchun ishsiz yoshlarni ma'lum bir mutaxassislikka yo'naltiradigan markazlar tashkil qilishga kirishdi. Xususan, hukumat tomonida ishlab chiqilgan "Yoshlar uchun yangi kurs" dasturiga binoan mamlakat bo'ylab ishga tayyorlaydigan markazlar tashkil qilinishi belgilandi.

Hukumat ijtimoiy sohada 95 mlrd funt-sterling miqdordagi mablag'ni ajratishga va'da berdi. Bu ajratilgan mablag'lar hukumatning bir yilga mo'ljallangan budjetining 1/3 qismini tashkil etardi. Leyboristlar hukumati

²¹ Остапенко Г.С., Прокопов А.Ю. Новейшая история Великобритании: XX — начало XXI века: Учеб. пособие. — М.: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2012. — ст. 369.

ijtimoiy sohada belgilangan rejasiga muvofiq dastlab mamlakat aholisi orasida ishsizlikning tugatilishi uchun kurashishga kirishdi. Bunda davlat budejetdan belgilangan mablag`larni ma`lum qismini shu sohaga yo`naltira boshladi. Bundan tashqari sog`liqni saqlash sohasidagi aholiga tibbiy yordam ko`rsatish xizmatlarini ham yanada rivojlantirish ham nazarda tutilgandi.

Leyboristlar tushuntirishicha davlat mulki konservatorlar hukumronligi davridagidek ulgurji va past narxlarda uzoq muddatga sotish va buning natijasida davlat katta daromad egasi bo`lishi mumkinligini ham inobatga olib siyosat yuritdi. Soliq darajasi kompaniyalarning darajasiga qarab bu davrda 23 % bo`lib, u kompaniyalarning xususiylashtirishdan oldingi va undan keying holatiga qarab belgilanishi kerakligi bayon qilindi. Hukumat biznesni rivojlantirish uchun 2 yil davomida soliqlarni pasaytirish, ishbilarmonlar faoliyatiga keng yo`l ochib berish va shu kabi bir qancha imkoniyatlar berishni ham inobatga olib qo`ydi.

Hukumat qurol-aslaha sohasini ham tartibga solishda bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Bundan tashqari soliq siyosati ham tartibga solindi. Leyboristlar saylovoldi dasturlarida mavjud soliqlarni oshirmaslikka vad berishgandi. Uning o`rniga bir qancha soliqlarning miqdorini pasaytirishni ko`zlagandi. Davlatdagi mavjud daromad solig`ini 23 % da 20 % ga tushurish, kompaniyalar to`laydigan bir qator soliqlarni 33 % da 28 % ga pasaytirishni belgilab qo`ydi. Bundan tashqari kichik biznes kompaniyalari solig`i 24 % dan 19 % ga tushurildi. Hukumat kichik biznesni rivojlantirish uchun uzoq muddatga mo`ljallangan kredit berish dasturini ham ishlab chiqqan edi²².

Davlatda ma`lum darajada o`z o`rniga ega bo`lgan kasaba uyushmasining ham imtiyozlarini qaytarish va ularning faoliyatlarini Yevropa Ittifoqining Ijtimoiy Xartiyasi nizomlariga muvofiqlashtirish kerak edi. Yevropa Ittifoqi

²² Валуев, А.В. От "неоконсерватизма" к "новому лейборизму". "Третий путь" в интерпретации Т. Блэра: науч. изд. / Валуев Антон Вадимович; Санкт-Петербургский гос. ун-т, Фак. международных отношений, Каф. европейских исслед. "Третий путь" в интерпретации Т. Блэра. Санкт-Петербург: Фак. Международных Отношений Санкт-Петербургского гос. ун-та: Арден, 2006 – ст.43.

dekretlariga binoan Buyuk Britaniya viloyatlarining ijtimoiy huquq va mehnat aloqalarini kengaytirilishi belgilandi. Leyboristlar hukumati ishchilarga 24 yoshdan kasaba uyushmalariga a`zo bo`lib kirishi huquqi berildi. Bundan tashqari ularga kasaba uyushmalarni nizomlarini hurmat qilish kerakligini ham takidlab o`tdi.

1999-yil 1-apreldan Buyuk Britaniya hududida yangi qonunga binoan mehnatga to`lanadigan ish haqining eng past darajasi belgilab qo`yildi. Bu qonunga ko`ra davlatda eng kam ish haqi ishchilar tarkibiga qarab soati 3 funt-sterling etib belgilandi. Bu yoshiga qarab, 18 yoshdan 21-yoshgacha 3,6 funt-sterling, katta yoshdagi ishchilar uchun va har yili oktyabr oyidagi ko`rsatkichga qarab bu ko`payib borishi mumkinligi belgilandi<sup>23</sup>. Davlat kambag`allarga ham alohida e`tibor qaratib, ularning ham daromad darajasini hisoblab chiqdi. Unga ko`ra har bir kishi boshiga 78,45 funt-sterling, oilalilari uchun 121,95 funt-sterling belgilandi. Bundan tashqari hukumat ishsizlarga yana bir rejani taqdim etdi, unga ko`ra mamakatda ishsiz yurganlarga Yevropa davlatlarida ishlash imkoniyatni yaratish maqsadida bir qator choralarni amalga oshirdi<sup>24</sup>. Xususan, ishsizlarni belgilab qo`yilgan ma`lum mutaxassislik bo`yicha o`qitish uchun “Mehnatga tayyorlash markazlari” tashkil qilindi. Bu Markazda sanoatning eng kerakli sohalariga mutaxasislarni tayyorlashga etibor qaratildi. Markazda 225 mingdan ziyodroq ishsiz ma`lum bir mutaxassislika ega bo`ldi. Yetishib chiqan bu mutaxasislarning katta qismi ish bilan taminlandi.

Buyuk Britaniya uchun leyboristlar tomonida olg`a surulgan “yangi leyborizm” dasturi bir qancha muammolarni olib keldi. Davlat budjetidan juda ko`p miqdorda mablag`larning sarflanilishi, bundan tashqari 18-yoshdan 24-yoshgacha bo`lgan fuqoralardan iborat 15 ta bo`lim tuzilib ularni mehnatga jalb

²³ Капитонова Н.К. Великобритания в конце XX – начале XXI века: от консерваторов к лейбористам: Учебное пособие. М.: МГИМО (У) МИД России, 2003. ст.87.

²⁴ Великобритания. Эпоха реформ / Под ред. А.А. Громыко. - М., 2007. ст. 242.

qilish maqsadida katta miqdorda budjet mablag`lari sarflandi, shunday bo`lsada hukumat bir qancha yutuqlarga ham erishdi.

Buyuk Britaniyada hukumat tepasida leyboristlar partiyasining 4 yillik faoliyati natijasida funt-sterlin qiymati oshib, yalpi ishlab chiqarish darajasi kutulganidan ham yuqori bo`ldi. Bu esa davlatning iqtisodi inqirozga uchramaganligidan dalolat berardi. Infliyatsiya darajasi so`ngi 30 yillikdagi eng past darajani qayd etdi. Buyuk Britaniya bu ko`rsatkich bilan AQSH, Fransiya, Germaniya va hattoki, Italiyadan ham yaxshi natijani ko`rsatdi. Leyboristlar hukumatining boshlig`i Toni Bler kundan-kunga Yevropa Ittifoqida mumilaga kiritilishi yaqinlashayotgan yevroga qarshi pozitsiyada turdi. Uning fikricha har bir davlatning o`z milliy valyutasi bo`lish kerak , chunki u davlatning o`ziga xos belgisi deb takidlardi.

Buyuk Britaniyalik mashxur olim Fonda Jozef Raintrining olib borgan tadqiqoti natijasida davlatda XX asrning 90-yillarida ijtimoiy tengsizlik oshgan va turli xil mojarolarning vujudga kelishiga sabab bo`lgan va bunday keskin vaziyat hozirgi kunda ham saqlanib qolayotganligi to`g`risida o`z maqolasida e`lon qiladi. Hukumat bunday keskin vaziyatni yumshatish maqsadida ijtimoiy sohaga katta e`tibor qarata boshladi. Davlatda lavozimiga qarab ish haqi to`lash o`sib bordi. Leyboristlar hukumati ishchilar hayotini farovon qilish uchun ularga to`laydigan ish haqi miqdorini bosqichma-bosqich ko`tarishini amalga oshirini belgilab oldi.

Saylovoldi dasturiga muvofiq to`g`ri ijtimoiy siyosat yurgizib, ingliz xalqini Yervropadagi eng yaxshi millat darajasiga olib chiqishga va`da bergandi. Leyboristlarning yangi dasturiga muvofiq hukumat vakili bo`lgan Devid Blanlet ijtimoiy sohaga katta e`tibor qaratish zarurligini o`z nutqida bildirib o`tdi.

1997-1998-yillarda davlatning butun xarajati budjetning 13,3 % ni tashkil qildi. Hukumat tomonida 1998-yilning iyul oyida yangi dastur ishlab chiqildi. Bu dasturga muvofiq 19 mlrd funt-sterling miqdorida belgilandi²⁵. Davlatda

²⁵ Corbett R. Why eurosceptiques should vote for the Constitution. - www.euobserver.com/?aid=18119, 12.01.2005

maktablarda bepul o'qitish tizimini kengaytirish maqsadi bir qancha amaliy ishlar olib borildi. Bu islohot asosan davlatga tegishli bo'lgan maktablarda amalga oshirildi. Boshlang'ich sinflarga bolalarni 5 yoshdan 7-yoshgacha qabul qilish va sinf xonalarda oldin mavjud bo'lgan 30 o'quvchilar sonini ikki martaga qisqartirish taklif etildi. Mamlakat hududini 25 ta zonaga taqsimlab, ulardagi bilim berish jarayonlarini tekshirish, maktablarni shu hududlardagi tadbirkorlar va jamiyat tashkilotlari bilan hamkorlikda inavatsion rejani amalga oshirishi belgilab qo'yildi.

Leyboristlar hukumati ta'lim tizimini isloh qilishni yanada yaxshilash maqsadida 1999-yilda ta'lim to'g'risida yangi qonun qabul qilindi. Bu qonunga muvofiq 16 yoshdan keyin ham o'smirlarga ta'lim olishni davom ettirish uchun sharoit yaratildi. 2000-yilda maktab bitiruvchilarining 35 % oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirib o'qishni davom ettirdi. O'qishga kirganlarning $\frac{3}{4}$ qisi yuqori ballar to'plagandi. Hukumat abiturentlar tayyorlash sohasiga ham alohida e'tibor qaratdi. Toni Bler hukumat tepasida turgan vaqtda davlat ishlarida fuqarolarning faoligini oshirish va yoshlarni bilim saviyasini ko'tarishga harakat qildi.

Leyboristlar hukumati milliy sog'liqni saqlash tizimida ham islohotlarni amalga oshirishni boshlab yubordi. Bu sohani isloh qilishga davlat budjetining 19,3 % ni sarflash belgilandi. Hukumat a'zosi bo'lgan Frank Dobson sog'liqni saqlash sohasini qanday rivojlantirish kerak degan savolga o'zining dasturi orqali javob berishga urunib ko'rdi. Uning dasturi "Alohida moliyaviy tashabbus"deb nomlanib, unga ko'ra sog'liqni saqlash sohasini infratuzulmasini yangilashda shaxsiy mablag'larni ham jalb etishdan iborat edi. 1999-yilda hukumat vakili bo'lgan Alan Milbern tibbiyot sohasida yangilik kiritish kerakligini ya'ni, tez yordamni uzoq vaqt kutish aholining naroziligiga sabab bo'layotganligini ham inobatga olish kerakligi aytib o'tildi. Bundan tashqari tibbiyot muassasalarini ham tamirlash, buning uchun mablag'ni shaxsiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirish kerakligi belgilandi. Islohotlar natijasi o'laroq 2001-yilda 68 ta yangi kasalxona qurildi, 2 mingga yaqin bemorlarni qabul qilish imkoniyati vujudga keldi. Tibbiyot xodimlarining malakasini oshirishga ham alohida e'tibor qaratildi. Buning

natijasida 39500 ta hamshira, 5 ta feldesher va 1500 ta vrach qayta malakasini oshirdi. Shoshilinch yordamni tezroq yetib borishi uchun sharoitlar yaratish, kasalxonalardagi bemorlarga yaxshiroq qarash, operatsiyalarning sifatli va tezroq o'tkazish ham yaxshilandi. Davlatda 81 % aholi endi 48 soat ichida vrach huzirida bo'lish va o'ziga kerakli maslaxatlarni olish mumkin edi. Pensionerlarga bepul tibbiy ko'rikdan o'tish imkoniyati berildi. Hukumat kambag'allarni ham tibbiy ko'rikdan bepul o'tkazishni amalga oshirdi. Natijada 3,5 mln kambag'al keksalar bepul tibbiy ko'rikdan o'tdi. Bundan tashqari hukumat aholini sog'liq uchun zararli bo'lgan odatlarga qarshi kurashishga chaqirdi. Masalan, davlatda kashandalikka qarshi keng tashviqot ishlari olib borildi. Buning natijasida 220000 kishi segereta chakishni tashladi. Bu davlatda sog'lom turmush tarzini yaratishda va aholi tomonidan moddiy isrofgarchilikni kamayishiga olib keldi.

1997-yilda Buyuk Britaniyada so'ngi 15-yillikda yosh bolalar kasalikka uchrashi darajasi bo'yicha Yevropa Ittifoqida o'rta o'rinlardan birini egallardi. Bu sohaga alohida e'tibor qaratilib, oila va bolalarni himoyalash dasturi ishlab chiqildi. Hukumat tomonidan ijtimoiy sohaga belgilangan budjetning 10,6 qismi shu sohaga sarflandi. Boshlang'ich ijtimoiy taminot vaziri Xarriet Xerman oldingi hukumat tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni qaytarmaslikka, kam xarajat sarflanadigan dastur tuzish kerakligini aytdi. 1997-yil dekabr oyidagi Jamoa palatasining yig'lishida leyboristlar partiyasining chap qanot vakillaridan 47 nafari Xerman tomonidan olg'a surilgan dasturga qarshi chiqdi. Hukumat buning natijasida bu dasturdan voz kechdi va "Qatiy strard" dasturi ustida ish boshladi. Unda kambag'al oilalardagi boalarni vrach va pedagoglar bilan taminlash, bolalar bog'chasidan joy qilib berish, ota-onalar bilan bolalar tarbiyasi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish belgilab qo'yilgandi. Bunadan tashqari har haftada bunday nochor oilalarga yordam puli berish; birinchi tug'ulgan farzand uchun 15 funt-sterlingdan, boshqa farzandlar uchun esa 10 funt-sterling berilishi belgilandi²⁶.

²⁶ Остапенко Г.С., Прокопов А.Ю. Новейшая история Велико британии: XX — начало XXI века: Учеб. пособие. — М.: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2012. — ст. 371-372.

Hukumat yolg'iz ota-onalarni, asosan ayollarni mehnat ishlariga jalb etishga shu vaqtgacha yetarli darajada e'tibor berilmayotganligini inobatga olgan holda yangi dastur ishlab chiqdi. Unga binoan mehnat jarayonida ishtirok etayotgan ayollarga 6 oylik homiladorlik pulini olish huquqi, erkaklar esa yangi tug'ulgan farzandi uchun ikki hafta davomida ishdan dam olish huquqiga ega bo'ldi. Pensiyonerlar imtiyozli narxlarda qishki isitish vositalarini olish, yoshlariga qarab pensiyalarini uylariga olib borish ham belgilangandi. Pensiyaga chiqish yoshi 60 yosh etib belgilab qo'yildi.

Butun dunyoni hozirgi kunda internetdan bo'layotgan tahdidlardan, terorizmdan, turli xil zararli o'yinlarga qarshi kurashish uchun ichki ishlar vaziri Djek Ctro xushyor bo'lishga chaqirdi. U 2000-yil 9-fevralda Parlamentning Jamoa palatasi umumiy yig'ilishida yangi qonun "Muxtoriyat huquqiga ega bo'lgan viloyatlarni tekshirish"ni muhokamaga qo'ydi. Parlament 26-iyulda bu qonunni tasdiqladi. Bu qonunga ko'ra tekshirishga borgan vakil : internet bazalarini tekshirish, maxfiy axborotlarni saqlanishni o'rganish, davlat amaldorlarini o'z vazifasini bajarish yoki bajarmaslikni tekshirish, to'plangan hujjatlarni sinchiklab o'rganib sudlarga taqdim etish huquqi berildi.

Mamlakatda mehnat jarayonlariga alohida qaray boshladi. Davlatda nafaqat ingilizlar balki, shu bilan birgalikda boshqa davlatdan kelgan imigrantlar ham mehnat qilmoqda edi. Hukumat mehnatga yetarli ish haqi to'lash masalasida ham ancha bosh qotirdi. Buyuk Britaniya Maastrixt shartnomasini imzolagandan so'ng Yevropa Ittifoqi davlatlarida amalda bo'lgan mehnatga to'lanayotgan ish haqi miqdorida o'zida ham shu tartibni joriy qilishga majbur bo'ldi. Natijada hukumat bir qancha qonunlarni ishlab chiqdi. Bu shu vaqtgacha mehnatkashlarga amalda bo'lib kelayotgan uch haftalik ta'til o'zni 1999-yil yanvar oyidan boshlab to'rt haftalik ta'til kuniga o'zgartirildi. Bundan tashqari ayollarning homladorlik ta'tillari muddati 14 haftadan 18 haftagacha uzaytirildi. Korxonalar va tashkilotlardagi tungi navbat vaqt davomiyligi 8 soatdan oshmasligi belgilab qo'yildi. 1999-yilda Britan mehnatkashlar komiteti bilan Britan ishlab chiqarish

konfederatsiyalari kelishgan holda mehnatga to'lanadigan ish haqining miqdorini soatiga 3,6 funt-sterling etin belgiladi. Natijada buning oqibatida faqatgina 2 mln kishining ish haqi ko'paytirildi²⁷.

Toni Bler boshchilik qilayotgan leyboristlar tashabbusi bilan 1997-yilda butun davlat hududida aholining o'q otar qurollarning saqashini taqiqlovchi qonuning qabul qilinishi keng jamoatchik tomonidan ancha iliq kutub olindi.

1997-yil dekabr oyida leyboristlar yangi qonun loyihasini Parlametga taqdim qilidi. Unga ko'ra yolg'iz onalarga berilayotgan nafaqani ikki barobarga kamaytirish lozim edi. Bu vaqtda davlatda 1 mln 200 ming yolg'iz ona bo'lsa ularning bolalari soni esa 2 mln atrofida edi. Bu qonunga leyboristlardan 47 nafari yoqlab ovoz bergan bo'lsa 14 nafari esa qarshi ovoz berdi.

Hukumat katta yer egalarining yerlarining bir qismini ma'lum pul evaziga sotib olish va ularni kam yerlilarga taqsimlab berish, qishloq xo'jaligidan kelayotgan foydani ko'paytirishga e'tibor qaratdi. Buning ta'siri natijasida Shotlandiyada yer islohotini tezda tugatishga urinishlar bo'ldi. Shotlandiyaning katta qismi aholisi qishloq xo'jaligi bilan band edi. U yerda qishloq xo'jaligi yerlarining 80% i 1500 ta katta yer egalariga qarashli bo'lib, ular yerlarini oldindan kelishilgan holda ijara asosida berar va bu ijara orqali katta foyda ko'rar edi. Leyboristlar hukumati Shotlandiyadagi qishloq xo'jaligi sohasida yangilik qilishga harakat qilib, 7 % aholi yer bilan taminlandi, ularga har tomonlama yordam berish ishlari olib borildi²⁸. Nik Braun bayonat berishicha Davlatning Esseks grafligi va Sharqiy Angliya hududlarida cho'chqa xo'jaliklarida tarqalgan kasalik oqibatida 2000 dan ziyod oila bu kasallikka uchradi. Bu kasallik sababli davlat iqtisodiyoti sezilarli darajada zarar ko'rdi. Buyuk Britaniyada bu kasalikning tarqalishi o'z navbatida boshqa sohalarga ham ta'sir ko'rsatdi. Buning

²⁷ Остапенко Г.С., Прокопов А.Ю. Новейшая история Велико британии: XX — начало XXI века: Учеб. пособие. — М.: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2012. — ст.373.

²⁸ Великобритания. Эпоха реформ / Под ред. А.А. Громыко. - М., 2007. ст. 238.

natijasida qishloq xo‘jaligi va turizm 16 mlrd dollar miqdorida zarar ko‘rdi. 10 mln miqdordagi cho‘chqa va mol go‘shti eksporti to‘xtatildi.

Buyuk Britaniya jamiyatida chet el fuqaroligiga bo‘lgan munosabat ikki xilda shakllandi; turistlarga yaxshi munosabatda bo‘lish, bu yerda ishlovchi immigrantlarga qarshi millatchilik kayfiyati o‘sdi. Bunda insonlarning asosan tanasining rangiga qarab ajratish hollari uchray boshladi. 2000-yilda Buyuk Britaniya aholisi 59,5 mln kishiga yetdi. Aholining 5,5 % ni imigrantlar tashkil qiliardi. Buyuk Britaniya fuqarolari ularga qarshi kayfiyatda bo‘lib, hattoki, namoyishlar uyushtirib “Yo‘qolsin oq cho‘chqalar” shiorlarini plakatlariga yozib olib ko‘chga chiqishdi.

Leyboristlar saylovoldi kompaniyalarida butun Buyuk Britaniya hududlarida konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirishga va‘da berdi. Har bir hududning sharoitiga qarab islohotlarni olib borish, unda obyektiv va subyektiv tamonlarni ham inobatga olish kerakligini takidlab o‘tdi. Birinchi e‘tibor Buyuk Britaniya imperiyasining parchalanishini oldini olishga qaratish kerak edi. Bundan tashqari ,Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiya davlatlariga ham ma‘lum darajada erkinliklar yana berildi. Ikkinchidan butun davlat iqtisodiyotini hududlar iqtisodi bilan birlashtirish, va shu bilan birgalikda iqtisodagi buyruqbozliklarni yo‘qotish, hududlarning iqtisodiy ahvolini inobatga olgan holda yangi iqtisodiy reja ishlab chiqilishi lozim deb takidladi. Uchunchidan, konservatorlar hukumati uzoq vaqt davomida parlament saylovlari, saylov oldi kampaniyalarida bu jihatga unchalik e‘tiborini qaratmasdi, leyboristlar partiyasi bu jihatga o‘z e‘tiborini qaratdi va hududlarda konservatorlarga qaraganda o‘z o‘rnini mustahkam egalladi. Bu hududlarni boshqarishda qonunlarga amal qilardi.

Bler hukumati konstitutsion-huquqiy islohotni o‘tkazishni rejalashtirdi. U ushbu uch asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga olgan edi: saylov huquqi tizimida o‘zgarishlar, Lordlar palatasini isloh qilish va devolyutsiya tizimini rivojlantirish. Islohot to‘g‘risidagi keskin bahs-munozaralar 1998-yil kuzida hukumatning “parlamentni bosqichma-bosqich isloh qilish” nomli qonun loyihasini taqdim

etilgandan so'ng boshlandi. Hukumat yuqori palatani 2000-yilgacha yangilash konsepsiyasini ishlab chiqish bo'yicha mustaqil komissiya tuzimini taklif qildi. Bundan tashqari, asta-sekin aralash, majoritar- proporsional saylov tizimiga o'tish taklif qilindi. Bosh vazir fikriga ko'ra, 1999-yil iyunidagi Yevroparlamentga saylovlar davomida yagona nomzodi ega bir mandatli okruglar bo'yicha saylovni partiyaviy ro'yxat asosidagi saylov bilan almashtirish orqali proporsional saylov tizimini sinab ko'rish zarur edi. Ammo hukumat qonun loyihasi lordlar palatasi tomonidan to'rt marta qaytarildi. Natijada saylov tizimini isloh qilish masalasi yechilmay qolaverdi. Hukumat bu masalani umummilliy referendum orqali hal etishni afzal ko'rdi. 1999-2000-yillarda mahalliy maqomda (1999-yildagi Shotlandiya va Uelsdagi mahalliy hukumat organlariga saylovlar) proporsional saylov tizimini joriy qilish, shahar kengashlari rahbarlari (merlar)ni saylash amaliyotini joriy qilish, saylovlar kunini yakshanba kuniga (may oyining birinchi payshanbasidan) ko'chirishga bog'liq bo'lgan qisman o'zgarishlar kiritildi.

Saylov tizimini isloh qilish bo'yicha munozaralar lordlar palatasini o'zgartirishni tezlashtirdi. 1999-yildayoq hukumat uning tarkibi tubdan o'zgartirish bo'yicha loyiha tayyorladi. Merosiy perlik bekor qilindi. Yuqori palatada faoliyat ko'rsatish huquqni beruvchi lord maqomi bir umrlik bo'ldi va ijtimoiy hayotning u yoki bu sohasidagi ulkan xizmatlar uchun beriladigan bo'ldi. Perlik unvoni berish huquqi faqat qirolicha ixtiyorida edi, ammo nomzodlarni tanlash maxsus mustaqil komissiya vazifasiga aylandi. Lordlarning ozgina qismi fuqarolar tomonidan ham saylanishi mumkin edi. 1999-yil oktabr oyida lordlar palatasi ko'pchilik ovoz bilan (221 ovoz 81 taga qarshi) o'z tarkibidan barcha merosiy perlarni chiqarib, hukumat qonun loyihasini ma'qulladi²⁹. 2000-yilda yangi bir umrlik lordlar uchun nomzodlarni aniqlash bo'yicha maxsus komissiya ish boshladi.

²⁹ Алексеев Н.А. Палата лордов Британского Парламента: от Суда Короля Эгберта до революции Премьера Тони Блэра, 825–2003 гг. — М.: Бек, 2003.

Bo'lib o'tgan tortushuvlardan so'ng 1999-yil oktyabr oyida qabul qilingan qonun bilan boshqaruv tizimida tubdan islohotlarni amalga oshirdi. Bu qonunga ko'ra shu vaqtgacha mamlakat siyosiy hayotida salmoqli o'ringa ega bo'lib kelayotgan ayrim tabaqa vakillarga qonunchilik sohasiga aralashishni man etdi. Xususan, bu qonunga ko'ra shu vaqtgacha vorislik huquqi asosida o'tib kelayotgan graflar, gersoglar va baronlarga yuqori palatada qatnashish va ovoz berish huquqidan mahrum qilindi. Bu kabi ishlarga qo'li urushi Leyboristlar hukumatini islohotlarga jiddiy ravishda yondashayotganligini ko'rsatar edi. Faqatgina 92 perlar konservatorlarning leyboristlar bilan olib borgan kelishuviga asosan o'z o'rinlarini vaqtinchalik saqlab qoldi. Ular Lordlar palatasida oliy dindorlar qatori huquqa ega bo'ldi. Bundan tashqari 600 dan ziyodroq aristokratlar sulolasiga mansub bo'lgan perlar o'zlarining o'rta asrlarda o'rnatilgan va shu vaqtlargacha davom etib kelayotgan huquqlaridan mahrum bo'lishdi. Bunday aristokratlar orasida qirollik oilasiga aloqadar bo'lgan ya'ni qirolicha Yelizavetta II ning o'g'illari (taxt vorisi) shahzoda Charlz va York gersogi undan tashqari uning turmush o'rtog'i Edinburg gersogi, shuningdek uning amakivachalari bo'lgan gersoglar Kept va Glosterlar ham bor edi.

Leyboristlar hukumati hokimiyat tepasida turgan vaqtda lordalar palatasida ko'pchilikni konservatorlar tarafdorlari egallab turar edilar. Toni Bler hukumat tepasiga kelgan yilning o'zida qabul qilgan 38 ta qonunini jamoa palatasi tasdig'idan o'tmadi. Toni Bler lordalar palatasining boshlig'ini konservatorlarga yon bosganlikda aybladi, 1998-yil 24-noyabrda parlamentning 2-sesiyasi boshlanish arafasida uni ochib berish maqsadida qirolicha Yelizavett II deputatlar oldida so'zga chiqdi. Lordalar palatasini isloh qilish vaqti hali kelmaganligini o'z nutqida bir necha bor takidlab o'tdi. An'anaga muvofiq qirolicha so'zga chiqqanda hamma jim bo'ldi. Qirolicha bundan tashqari o'z nutqida yana bir qancha narsalarga ham to'xtaldi. Bundan keyin qabul qilinayotgan har qanday qonunga ovoz berish muddati uzog'i bilan 20 minut bo'lishi va qonunlarning hajmi esa 270 moddadan ziyod bo'lmasligi kerak edi. Bler qabul qilinayotgan qonunlarning

sifatli bo‘lishga alohida e’tibor qaratish kerakligini takidladi. Shuningdek u lordlar palatasi peri bilan kelishilgan holda ishlash tarafdori ekanligini bildirdi.

Margaret Bekker 1998-yil iyul oyida Jamoa palatasi lideri sifatida o‘z ishini boshlagan edi. 1999-yil 19-yanvarda Jamoa palatasi deputatlari e’tiboriga “Lordlar palatasi” qonun loyihasi havola etildi. 16- mart kuni bu qonunni ovozga qo‘ydi va 340 deputat bu qonunni yoqlab ovoz began bo‘lsa 132 nafari esa qarshi ovoz berdi. Bu majlisning keyingi kuni lordlar palatasi to‘g‘risida debat bo‘lib o‘tdi. 1999-yil 11-noyabrda tasdiqlangan qonunga ko‘ra lordlar palatasining 759 lordidan 92 nafari o‘zining doimiy palata a‘zosi ekanligi huquqini saqlab qoldi. 1999-yil oktyabr oyidan 2000-yil mart oyigacha bo‘lgan vaqt orolig‘ida palata a‘zolarining soni 1330 tadan 669 tagacha qisqardi³⁰.

Konstitutsiyaviy islohot boshlangandan so‘ng hukumat qabul qilayotgan qonunlar sifati oshdi. Uning faoliyatini tekshirish uchun Qirollik komissiyasi tuzildi. Bu komissiyaga Jon Ueykxem boshliq etib tayinlandi. Bu komissiya 2000-yilda maruza qildi, unga ko‘ra parlamentning lordlar palatasi soni 550 kishigacha kamaytirish, 67, 87 yoki 195 tasi hududiy o‘lkalardan ovoz berish yo‘li bilan saylanishi belgilandi.

2000-yil 7-mart kuni Qirollik komissiyasi lordlar palatasi mavzusida debat shaklidagi uchrashuv o‘tkazdi. Bu uchrashuvda bir qator muhim masalalar o‘rtaga tashlandi. Toni Bler 2000-yil 4-mayda qirollik komissiyasining faxriy a‘zosi etib qabul qilindi. Lekin 2000-yil 19-iyun kuni parlamentning jamoa palatasi yig‘ilishida u Qirollik komissiyasi faoliyatini qattiq tanqid qildi. Shu yig‘ilishning o‘zida uning o‘rniga Birlashgan komitet tuzilganligini aytib o‘tdi. Shu bilan birgalikda bo‘layotgan islohotlarni tezroq tugatish zarurligi ham takidlandi.

³⁰ Остапенко Г.С., Прокопов А.Ю. Новейшая история Велико британии: XX — начало XXI века: Учеб. пособие. — М.: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2012. — ст.367.

1.3.Mintaqaviy boshqaruv tizimidagi islohotlar

Bler hukumati Birlashgan qirollikning subnatsional mintaqalariga nisbatan devolyutsiya tizimini o'zgartirish bo'yicha qat'iy qadam qo'ydi. 1997 yilda Uels va Shotlandiyada mahalliy qonun chiqaruvchi yig'implarni tuzish bo'yicha referendumlar bo'lib o'tdi. Uelsda referendumda mahalliy saylovchilarning atigi 80%igina qatnashdi. Bu holatni hisobga olingan holda konstitutsion islohot bu yerda biroz chegaralangan xarakterga ega bo'ldi. Tuzilishi kutilayotgan mahalliy assambleya mahalliy qonunlarni qabul qilish va soliqlarni belgilash huquqlaridan mahrum edi. Uning vakolati mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi, qishloq xo'jaligi, ta'lim, madaniyat va ekologiya masalalari bilan chegaralangan. Assambleya, ilgari Uels bo'yicha vazirga tegishli bo'lgan markaziy hukumat dotatsiyasi (yiliga 8 mlrd. funt sterling)ga egalik qiladi³¹.

Leyboristlarning dastlabki harakati konstitutsion islohotlarni o'tkazishni oldilariga maqsad qilishgandi. Bu davrga kelganda butun dunyoda bo'layotganidek Buyuk Britaniyada ham qonunchilik sohasida islohotlar o'tkazilishini taqoza qilardi. Islohotni o'tkazish uchun kommissiya tuzish kerak edi. Islohotlarning asosini Birlashgan konstitutsion qo'mita a'zolari ya'ni boshqaruvchi partiya va liberal demokratlar tomonida ishlab chiqarilgan edi. Islohotlarning asosi shundan iborat ediki, devolyutsin prinsiplar ya'ni markaziy hukmat vakolati mahalliy hukumatga o'tkazilishi nazarda tutilgan edi.

Bu davrda Britaniyaning ayrim hududlarida davlat boshqaruv siyosatidan norozi bo'lgan ayrimachi guruhlarining chiqishlari har qachongidan ham avj olib ketgandi. Bler tarafdorlari nuqtayi nazarida Uels va ayniqsa Shotlandiyadagi milliy separatistik g'oya tarafdorlarining chiqishlari o'zining jiddiyligi bilan ajralib turardi. Bu hududlarda yashayotgan fuqarolar o'z yerlarida hukumronlik qilayotgan o'zga boshqaruvchilarga qarshi ovoz berdi. Bler hukumati yaxshi

³¹ Капитонова Н.К. Великобритания в конце XX – начале XXI века: от консерваторов к лейбористам: Учебное пособие. М.: МГИМО (У) МИД России, 2003.ст.88.

bilardiki, islohotlarni ortga surish to'liq mustaqillik uchun harakat qilayotgan Shotlandiya milliy partiyasini qo'llab-quvvatlovchi ommaviy saylovchilarning noroziligini keltirib chiqarishga sabab bo'lardi. Bundan tashqari Bler joylarda fuqarolar uchun mahalliy demokratik institutlar tashkil etishni nazarda tutib, mamlakat fuqarolarining britan boshqaruv tizimiga ishontirishga harakat qildi. Buning uchun mahalliy o'lkalarda yashayotgan aholiga bir qator yon berishlarni nazarda tutib o'tadi. Bler yana bu o'lkalarda yashayotgan aholini hukumatga bo'lgan ishonchini oshirib Buyuk Britaniyaning siyosiy ahvolini yaxshilanilishi bu o'z navbatida davlatning Yevropa davlatlari orasidagi obro'sining oshishiga olib kelishini aytadi.

1997-yil 11-sentyabrda Shotlandiya va 1997-yil 18-sentyabrda Uelsda o'tkazilgan referendum o'z o'zini boshqarish bo'yicha bu o'lkalarning navbatdagi tashlagan qadami bo'ldi. Bu referendum Angliya uchun ancha qimmatga tushishi mumkin edi. Ikkala hudud aholisi ham o'z davlatlarida mustaqil ravishda parlament va boshqa hukumat tashkilotlarini tuzishni yoqlab chiqdi. Shotlandiyada referendum natijasida qatnashchilarning 74% o'z davlatining hukumat organlarini mustaqil tarzida o'z faoliyatlarini olib borish uchun ovoz berdi³². Buning natijasida shotlandiyalik leyboristlarning olib borgan targ'ibotida liberal-demokratlar va milliy partiya a'zolari birlashib harakat qilishga kelishildi, faqatgina konservatorlar devolyutsiyaga yo'q deb o'z etirozlarini bildirishdi.

Shotlandiyada 1997-yildagi referendumdandan keyin milliy siyosatchilarning faol harakatlari sababli hukumat boshqaruvida bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirilgan edi. 1999-yil may oyida Shotlandiyada prinsipial vakolatli parlament saylandi. Bunda partiyalar berilgan nomzodlar ro'yxati bo'yicha emas balki, bir mandatli okruglarga almashtirildi. Ko'pchilik joyini leyboristlar egalladi, ya'ni saylangan parlament deputatlari 128 kishi bo'lsa shundan 56 tasini leyboristlar

³² Остапенко Г.С., Прокопов А.Ю. Новейшая история Велико британии: XX — начало XXI века: Учеб. пособие. — М.: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2012. —ст. 364.

partiyasidan ko'rsatilgan nomzodlar saylandi. Shon Konneri boshchiligidagi Shotland milliy partiyasi parlament 28 mandatli o'rinni egalladi. Bu milliy partiya uchun ancha ijobiy ko'rsatkich sifatida qaraldi. Saylov natijasida shakllagan hukumatga bir qator vakolatlar berildi, bu hukumat britan qonunlariga zid kelmaydiga qonunlarni qabul qilishi va uni o'z hududida joriy etishi va soliqlarni tayinlash mumkin edi. Bundan tashqari hukumatga davlat qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish, ta'lim tizmi va sog'liqni saqlash sohaslariga bo'lgan e'tiborini kuchaytirish, madaniyat, atrof-muhitni muhofaza qilish vakolatlari ham berildi. Bu saylov natijasida Shotlandiya yana bir qancha huquqlarga ham ega bo'ldi.

Shotlandiya bilan deyarli bir vaqtda bo'lgan referendumda Uelsda butun aholining atigi 50% ishtirok etishdi. Buning natijasida Uels o'z boshqaruvining bir qator sohalari bo'yicha ayrim huquqlaridan mahrum bo'ldi. Xususan, hududiy qonun chiqarish va soliq tayinlash huquqlarini Tashkilotchi Asambliyaga berildi. Shunday bo'lsada bu referendum natijasida Uelsda ham o'z milliy mustaqilligi tarafdorlari ham ancha o'sganini ko'rsatdi. Markaziy hukumat tomonida Uelsning bir qator huquqlari cheklangan bo'lsada, shu bilan birgalikda 8 mlrd funt-sterling miqdoridagi dotatsiyaga ega bo'ldi. Bu mablag'ni Uels kerakli sohalarga sarflashi belgilab qo'yildi. Uels boshqaruvida katta vakolatga ega bo'lgan Assambliya hududda iqtisodni, ta'limni va madaniyatni rivojlantirish, atrof-muhitni saqlash kabi bir qator sohalarga ham o'z e'tiborini qaratish lozimligi belgilandi. Bo'lib o'tgan referendum natijasida ya'na bir qancha huquqlarini ham o'z qo'lida saqlab qoldi, unga ko'ra mudofaa, tashqi ishlar, moliyaviy ahvolni nazorat qilish London ixtiyorida qoldi. Shuningdek Uelsning ijtimoiy taminot, yollanma ishchilar kuchi, muhojirlar va jamiyatning boshqa jabhalarini nazorat qilish huquqini ham o'z qo'lida saqlab qoldi. Shotlandiyada konstitutsion islohot ovoz berganlarning 74%i tomonidan ma'qullandi. Tuzilayotgan Shotlandiya parlamenti katta vakolatlarga ega bo'ldi, jumladan, milliy qonunlarga zid kelmaydigan mintaqaviy qonunlarni qabul qilish, soliqlarni belgilash va yig'ib olish huquqiga ega bo'ldi. Bunday tashkilotning tuzilishi Shotlandiyaning Birlashgan qirollik tarkibidan ajralib

chiqish jarayonining boshlanishiga asos bo'lishi mumkin edi. Ammo Shotlandiya parlamentiga birinchi saylovlar davomida bunchalik radikal variantning tarafdorlari mag'lubiyatga uchradi. Mandatning ko'pchilik qismini (112 dan 56) mo'tadil yo'nalish tarafdorlari bo'lgan leyboristlar egallashdi. Jon Kennedi boshchilik qilayotgan Shotlandiya milliy partiyasi 28 ta mandatga ega bo'ldi. Shotlandiya parlamentining rasmiy ochilishi 1999-yil 1-iyulda bo'lib o'tdi.

XX asr 90-yillar o'rtalariga kelib Shimoliy Irlandiyada konstitutsion o'zgarishlar kerakligini vaziyatning o'zi taqoza qila boshladi. Shimoliy Irlandiyaliklar ko'p yillardan beri yig'ilib qolgan ayrim muammolarni hal qilinishini talab qila boshladi. Aholining ko'pchilik qismi o'zlarining siyosiy huquqlarini oshirishni istardi, shu bilan birgalikda Shimoliy Irlandiyani ham Yevropa integratsiyasida o'z o'rniga ega bo'lish talabi bilan chiqa boshladi. Bundan tashqari o'z davlatlarini Buyuk Britaniyadan ajralib chiqish g'oyalari ham keng xalq ommasi tomonidan ilgari surila boshlandi. Shimoliy Irlandiyadagi bu kabi talablarni boshida bevosita Irlandiya Respublikasi bilan birlashish tarafdorlari turardi. Shimoliy Irlandiya taqdiri masalasida uch tomonlama muzokaralar bo'lib o'tdi. Bu muzokaralarda Buyuk Britaniya hukumati, Irlandiya respublikasi va Shimoliy Irlandiya tarafi ishtirok etishdi. Muzokaralar uch yil davomida bo'lib o'tdi. 1995-yil va 1998-yillarda bo'lib o'tgan muzokaralarda hech qaysi tomon o'z niyatlariga yeta olmadi va uchrashuv samarasiz yakunlandi. 1998-yil Buyuk Britaniyaga AQSH prezidenti Bill Klinton tashrif buyuradi va asli kelib chiqishi irland bo'lgan amerikaliklarning bu muzokaralarga qiziqishi ortadi. Natijada 1998-yil 10-aprelda Toni Bler qat'iyyati bilan bu muzokaralarga yakun yasaydigan hujjat "Ehtirosli juma" imzolandi. Bu hujjatga ko'ra Shimoliy Irlandiya avtonom huquqa ega bo'ldi. Bunda qonunchilikda bir qator huquqlar, jumladan Assambiliyaga bo'lib o'tadigan saylovlarda markazning huquqlariga zid bo'lmagan bir qator erkinliklar berildi. Bu kelishuvda Shimoliy Irlandiyani Irlandiya Respublikasiga birlashishi taqiqlab qo'yilgandi. Shu bilan birgalikda ikki tomon ortasida bir qator jihatlarida hamkorlik qilishiga yo'l berildi. Ikki davlat o'rtasida qo'shma boshqaruv

organini tashkilotini tashkil etish va unga transport, xavfsizlik, turizm va artof-muhitni himoya qilish subyektlarini boshqarish huquqlariga ega bo'ldi. Bundan tashqari Shimoliy Irlandiyada diniy nizolar ham ancha ziddiyatli ahvolda edi. Chunki bu hududda katoliklar va protestantlar o'rtasida azaldan bo'lib kelayotgan nizolarni nazorat qilish uchun Milliy Assambiliya "ikkiyoqlama kelishuv" dasturini olg'a surdi. Bu dasturga ko'ra diniy vaziyatni nazorat qilish Milliy Assambiliyaga yuklandi. Shuning uchun son jihatidan nisbatan o'z bo'lgan protestant deputlariga katolik deputatlar bilan kelishib ishlashga rozi bo'ldi. Shimoliy Irlandiyada protestant va katoliklar ortasida qirg'inborot urushlarni oldini olish uchun bu kelishuv ancha ahamiyatli edi. Ikki tomon ekstrimistik guruhlarini kuchsizlantirish uchun 2000-yil 20-mayda o'z qurollarini hukumatga topshirish lozimligi takidlandi. Leyboristlarning Shimoliy Irlandiyadagi bu kabi harakatlari konservatorlarning keskin naroziligiga sabab bo'ldi³³.

1998-yil may oyida Shimoliy Irlandiyada bo'lib o'tgan referendumda butun aholining 72,2% Irlandiya bilan bo'lib o'tgan kelishuvni yolab ovoz berdi. London Shimoliy Irlandiyaning rivojlanishiga qo'shimcha ravishda 350 million funt-sterling miqdorda mablag' ajratdi. Bu ajratilgan mablag' hududning iqtisodiy rivojlantirish va qishloq xo'jaligiga sarflanish nazarda tutilgan edi.

1998-yil may oyida o'tkazilgan maxsus konferensiyada (Irlandiya Respublikasi Armiyasi) I.R.A. siyosiy qanoti vakili Shin Feyn 70 yil davomida ilk bor saylov organlariga qatnashishni bayon etdi. Bo'lib o'tgan saylov natijalari shu yilning iyun oyida keng omma e'tiboriga havola etildi. Unga ko'ra Milliy Assambiliyaga saylangan protestan va katoliklar vakillari birgalikda o'z faoliyatini olib borishga kelishib olishdi, bunda ikki din vakillari o'zaro nizolarga chek qo'yishga va'da berdi. Shu yilning dekabr oyida Britan parlamentining Shimoliy

³³ Перегудов С.П. Тони Блэр – архитектор «нового лейборизма». — М.: РОСФролов В.П. Либеральные демократы Великобритании на парламентских выборах: программные установки, стратегия, избиратели. — Магадан: Изд-во СМУ, 2003.-СПЭН, 1999.

Irlandiyani to'g'ridan to'g'ri boshqaruvini Milliy Assambiliya ixtiyoriga berish masalasi ko'rib chiqildi. Bo'lib o'tgan tortushuvlar natijasida leyboristlarning qat'iy talabi bilan boshqarish huquqi Milliy Assambiliya ixtiyoriga berishga yoqlab ovoz berildi. Natijada 1999-yilda 27-yillik Londonning to'g'ridan to'g'ri boshqaruvini tugatish ko'zda tutilgan edi.

Ikki jamiyat vakillari tamonidan tuzilgan hukumatga Shimoliy Irlandiya Olster yuniongilar partiyasi yetakchisi bo'lgan Devid Trimbl shakllangan hukumatga boshliq etib saylandi. Shimoliy Irlandiya hukumati zimmasiga iqtisodni rivojlantirish, soliqni saqlash, ta'lim tizmi, atrof-muhitni muhofaza qilish va shunga o'xshagan bir qator sohalarni boshqarish kirar edi. Bundan tashqari Umumirland vazrlig kengashi "Shimol-Janub"ni tashkil etib Shimoliy Irlandiya va Irlandiya Respublikalari hamjamiyatini tuzish kerakligini takidlab o'tdi. Biroq I.R.A. ning qurolsizlantirilish yuniokistlar noroziligi va joylarda tartibsizliklarni keltirib chiqardi. Bu kabi noroziliklar Shimoliy Irlandiyadagi siyosiy vaziyatga ham o'z tasirini o'tkazdi. Siyosiy vaziyatning bu kabi jiddiylashib ketishi natijasida oradan ikki oy ham o'tmasdan Milliy Assambiliya o'z faoliyatini yakunlashga majbur bo'ldi. 2000-yil may oyida Buyuk Britaniya, Shimoliy Irlandiya va Irlandiya Respublikasi hukumatlari vakillari tomonidan o'tkazilgan yangi muzokaralar natijasida o'z ishini tugatishga majbur bo'lgan Assambiliya o'z vakolatlarini qayta tiklash huquqiga ega bo'ldi. Ammo vaziyatni tartibga solishga Shimoliy Irlandiyadagi shu vaqtgacha yechilmay kelayotgan muammolar ham halaqit bermoqda edi. Bu kabi yechilmay kelayotgan muammolar safiga Shimoliy Irlandiyada politsiya tizimini tartibga solish va shu bilan birgalikda I.R.A. bilan kelishuvni amalga oshirib uni qurolsizlantirish masalasini ham hal qilish kerak edi. Shu kabi muammolar yechimini topish Bler hukumati oldidagi juda katta bir muammo sifatida ko'ndalang bo'lib turar edi.

Bler Olster muammosini yechishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Hukumat tepasiga kelganida u ingliz-irland muzokoralarida Olsterning Shinn Feyn partiyasi vakillarining qatnashishiga tayyor ekanligini aytgan edi. Muzokoralar

davomida IRA tinchlikni saqlashga rozi bo'ldi. AQSH vositachiligida 1998 yil aprel oyida Shimoliy Irlandiya bo'yicha uch tomonlama tinchlik shartnomasi imzolandi. Bu shartnomada Shimoliy Irlandiyaning siyosiy mustaqilligi tiklangan edi. Shimoliy Irlandiyaning milliy assambleyasi, stirmontdan farqli o'laroq, "o'zaro hamjihatlik" qoidalariga ko'ra ishlashi kerak edi, ya'ni har bir qarorni qabul qilish uchun, ham katolik, ham protestantlar vakillari bo'lgan deputatlarning ma'qullashlari kerak bo'lardi. Tinchlik shartnomasi 1998 yil 22 maydagi referendumda tasdiqlangan edi. Olsterda 71%, Irlandiyada 94% saylovchilar qo'llab-quvvatlashdi. 1999-yil iyunda Milliy assambleya deputatlari saylovlari bo'lib o'tdi Reglament tufayli protestant deputatlarning son jihatdan ko'pchilikni tashkil etishi ustunlikka imkon bera olmasdi³⁴. Assambleya Shimoliy Irlandiya hukumatini tuzishga kirishdi. London uning ixtiyoriga mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi, sog'liqni saqlash, ta'lim, atrof-muhit muhofazasi masalalari hamda "Shimol-Janub" umumirland vazirlar kengashini tuzishni topshirishni taklif qildi. Ammo bu jarayonlar IRA ekstremistlari tomonidan xavf ostida qoldi. 1999-yilda IRA qurolsizlantirish haqidagi va'dani bajarmadi. Terrorchilik harakatlari ham davom ettirildi. Olsterda mintaqaviy hukumat organlari tuzilishining yakunlanishi ham vaziyatni o'zgartirmadi. 2000-yilda Britaniya hukumati Olsterga maxsus harbiy qismlarni kiritishdan voz kechdi, ammo terrorchilikka qarshi qonunchilikni UJESTOCHILO ni qabul qildi.

³⁴ Булмистре, Я.Э. Великобритания: The Land of Hope and Glory [Текст] / [Булмистре Я., Высоцкий В., Смирнов С.]. Санкт-Петербург: ООО "ЦПО", 2012 – ст.67.

II.Bob. XXI asr boshlarida Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. (2001-2010)

2.1.XXI asrning dastlabki o'n yilligida mamlakat xo'jaligi

2001-yilda bo'lib o'tgan parlamentga saylovlar Bler hukumati kutganidan bir yil oldin bo'lib o'tmoqda edi. Bunga Bler tomonida yangi boshqaruv tizimini joriy qilish maqsadida o'tkazilgan edi. Unda leyboristlar va konservatorlar o'rtasidagi farq tahlil qilindi. Bu saylovda kutulganidek leyboristlar g'alaba qozondi. Unga saylovchilarning ko'pchilik qismi ovoz berdi. Saylovda mag'lub bo'lgan bo'lsada, konservatorlar tomonidan olg'a surilgan " yagona millat" g'oyasi Toni Bler tomonidan qo'llab-quvvatlandi, chunki u ham britan millatini qadrlar edi.

Leyboristlarning bu safargi saylov oldi kompaniyasida olg'a surilgan manifesti " Britaniya uchun Ambitsiya" deb nomlandi. Bu manifestda leyboristlar sog'liqni saqlash sohasiga, ta'lim tizimiga va transportga davlat budjetidan mablag' ajratishga va'da berishdi. Bundan tashqari leyboristlar daromad solig'ini oshirmaslikka ham va'da berdi. Shuningdek, saylov kampaniyasi paytida ular, saylovchilarga bundan keyingi saylov tizimini isloh qilish to'g'risida referendum o'tkazilishiga so'z berdi.

Konservatorlarga kelsak ular saylov oldi kompaniyasida asosan yuqori tabaqa ya'ni elita qism ko'magiga tayandi. Ular leyboristlar tomonidan ishlab chiqilgan "yangi leyborizm" g'oyasiga qarshi tura oladigan dastur ishlab chiqa olmadi. Ular 1997-yilgi may oyida bo'lib o'tgan saylovdagi mag'lubiyatdan so'ng Jon Meyjor istefaga chiqqandi, uning o'rniga Uels ishlari vaziri bo'lgan Uliyam Xeyg shu yilning kuzida uning o'rniga konservatorlar partiyasiga yetakchi etib saylandi. U yangi saylovgacha partiyaning olib borayotgan ishlarini tartibga soldi. Bundan tashqari partiya ichidagi muhitni ancha demokratlashtirildi.

2001-yil saylovoldi dasturini leyboristlar "sog'lam fikr vaqti" nomi bilan ataydi. Unga ko'ra sog'liqlarni pasaytirib iqtisodiy o'sishni ko'tarish, shu bilan

birgalikda sog`liqni saqlash sohasiga va ta`lim tizmiga sarflanayotgan xarajatlar miqdorini kamaytirmaslikka va`da berdi. Saylovda ishtirok etayotgan deyarli barcha partiyalar Yevropa integratsiyasi muammosida bir xil fikrda turardi. U. Xeyg boshchilik qilayotgan konservatoralar partiyasi techchirizm g`oyasi va antiyevropachilik qarashlari bilan bu saylov kampaniyasida ishtirok etdi. Konservatorlar o`z dasturlari sayoz bo`lganligi natijasida saylovda past ovoz olib leyboristlardan mag`lub bo`ldi.

2001-yilgi saylovoldi kurashda liberal-demokratlar oldida ikki yo`l turar edi. Ulardan biri yangi leyboristlar partiyasi bilan hamkorlikda ishtirok etish yo bo`lmasa ularga qarshi pozitsiyada turub o`z dasturini olg`a surib “uchunchi kuch” sifatida saylovda ishtirok etishdan iborat edi. Liberal-demokratlar partiyasi ichida hukumat tarkibida bo`lish maqsadida leyboristlar tomonidan saylov oldi targ`ib qilinayotgan islohotlarni maqullagan bir qancha siyosatchilar ham topilardi. Bu vaziyatda Toni Bler bilan hamkorlik qilgan partiya rahbari bo`lgan P.Eshdaun tanqidga uchrab 1999-yilda partiya yetakchiligi lavozimidan iste`fo bergan edi. Uning o`rnini Charlz Kennedi egalladi³⁵.

Liberal-demokratlarning saylovoldi chiqishlari “ Ozodlik, haqiqat va haqqoniylik” manifestida o`z aksini topdi. Unga ko`ra davlatdagi daromad solig`ini ko`paytirib undan tushgan mablag`ni esa ta`lim va boshqa ijtimoiy sohalarga sarflashni nazarda tutgandi

2001-yil 7-sentyabrda bo`lib o`tgan parlamentga saylovlarda kutulmagan holat uchramadi. Saylovchilar ishonchini oqlagan leyboristlar hukumati boshqaruvi saqlab qolindi. Leyboristlarga saylovda ishtirok etgan saaylovchilarning 40,7% ovoz berishdi. Buning natijasida leyboristlar parlamentga saylangan 659 nafar deputatdan 412 ta o`rinini egallashdi. Leyboristlar uchun bu natija 1997-yildagi parlamentda egallagan o`rinlaridan atiga 6 nafar kam edi. Bu saylov natijasida

³⁵ Остапенко Г.С., Прокопов А.Ю. Новейшая история Велико британии: XX — начало XXI века: Учеб. пособие. — М.: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2012. — 472 с.

konservatorlar partiyasi 31,7% ovoz to'pladi va parlamentda 166 ta deputatlik o'rniga ega bo'lishdi. Konservatorlarning bu natijasi avvalgi saylovga qaraganda 1 nafar ko'proq o'rinni egallashdi. Bundan tashqari jamoat tashkilotlari va liberal-demokratlar bu saylovda 18,3 % ovoz to'pladi va 52 nafar deputatlik o'rniga ega bo'lishdi. Liberal-demokratlar 1997-yigi saylov natijasida 46 nafar deputatlik o'rniga ega bo'lishgandi.

Bu saylov natijasida ikkinchi bor mag'lubiyatga uchrayotgan konservatorlar partiyasi boshqaruv tizimida o'zgarish sodir bo'ldi. Partiya rahbari bo'lib kelayotgan U.Xeyg o'rniga M.Techchening qo'llab-quvvatlashi natijasida 48-yoshli Yan Dankan Simit keldi. 2003-yilda uning o'rniga 64-yoshli Maykl Govard rahbar erib saylandi.

2001-yilgi saylovda g'alaba qozongan Toni Bler boshchiligidagi leyboristlar partiyasi endilikda yangi tarkibdagi hukumatni shakllantirishga harakat qildi. Shu vaqtgacha Bler hukumati tarkibida tashqi ishlar vaziri lavozimida ishlab kelayotgan P. Kuk o'rniga J. Sitro egalladi. G. Braun esa oldingi lavozimi moliya vaziri sifatida qoldirildi. J.Preskot esa premer-ministr o'rinbosari lavozimida qoldirildi.

2001-2005-yillar iqtisodi. Leyboristlarning yangi hukumati jamiyatda o'zgarishlar qilish va Buyuk Britaniya iqtisodini Garbiy Yevropaning rivojlangan davlatlari iqtisodiga teng sifatda o'zgartirish haqida faqatgina gapiribgina qolmasdan jadal harakat qilishga kirishishdi. Bu harakat natijasida davlatning 1990-yildagi iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlaridan ancha yuqori darajada rivojlantirishga bel bog'ladilar. Agar solishtiradigan bo'lsak 1990-2003-yillarda Buyuk Britaniya iqtisodiy o'sish darajasi 32,7 % ga, ishlab chiqarish darajasi esa 42,7 % ga o'sdi. Bu davrda iqtisodiy o'sishga katta xissa qo'shgan soha bu xizmat ko'rsatish sohasi bo'ldi. Bu davrda ham London butun dunyoning hisob kitob, moliya, sug'urta sohalarining Xalqaro Markazi sifatida kelmoqda edi.

2003-yilda iqtisodiy ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan sanoat sohasi sifatida birinchilikka mashinasozlik sohasi chiqib oldi. Bu davrda ishlab chiqarilgan tovar

mahsuloti 32 % ga yetdi. Sanoat kompaniyalari mahsulotlar 14 %, transport asbob uskunalarini ishlab chiqarish 11,9 % ga, qog'oz va poligrafiya mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi esa 13,3 %ga o'sdi³⁶. Bundan tashqari Buyuk Britaniyada qog'oz ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash sanoati ham yo'lga qo'yildi. Chiqayotgan chiqindilarning uchdan ikki qismi gazeta qog'ozlari edi. Buning natijasida davlat iqtisodiyotiga anchagina foyda keltirildi.

XX asrning 70-yillarda Shimoliy dengiz hududidan topilgan neft va gaz konlari bu vaqtga kelganda ham davlat iqtisodiyoti uchun ancha foyda keltirmoqda edi. Leyboristlar tashabbusi bilan bu konlardan chiqayotgan yoqilg'i energiyasidan kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu soha bo'yicha Buyuk Britaniya Germaniyadan keyingi ikkinchi o'rinni egalladi. Davlatda 1997-yilda yiliga 40 mln tonna ko'mir qazib olinayotgan bo'lsa bu ko'rsatkich ancha pastga tushub ketdi va 2003-yilga kelganda 25 mln tonnani tashkil qildi.

Buyuk Britaniya sanoatida ishlab chiqarilgan elektrotehnika mahsulotlarining 40 % boshqa davlatlarga eksport qilinardi. Yana bir qancha sohalar bo'yicha Buyuk Britaniya faqatgina Yevropa Ittifoqida Germaniyadan keyigi o'rinda turardi. 2002-yil oxiridagi ma'lumotlarga qaraganda aholining 75 % da mobil telefon abonenti ekanligi keltirib o'tildi. 2003-yilga kelganda davlatdagi barcha maktablar kompyuterlarining 99% internet tarmog'iga ulandi.

Buyuk Britaniya farmasevtika sohasi bo'yicha dunyoda faqatgina AQSH dan so'nggi o'rinda kelmoqda edi. Buyuk Britaniya avtomobilsozlik sanoati ham davlat uchun ancha foydali tarmog' hisoblardi. Bu soha chet el kompaniyalari bilan raqobat qilishga harakat qilar va ichki bozorda o'z mashinalarini xaridorlarga qulay narxlarda yetkazishga urunardi. XX asrning oxirlari va XXI asr boshalarida ingliz avtomobil sanoatining mashxur marklarini chiqarayotgan kompaniyalar aksiyalarini amerika va nemis sarmayodorlari qo'lga kiritishdi. Masalan dunyoda

³⁶ Остапенко Г.С., Прокопов А.Ю. Новейшая история Велико британии: XX — начало XXI века: Учеб. пособие. — М.: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2012. — 472 с.

mashxur bo'lgan 'Rolls- Roys' markasi 2003-yil yanvar oyidan nemislarning "BMV" konserni mulkiga aylandi.

Iqtisodning an'anaviy sohalari : yengil sanoat, kemasozlik, metallurgiya ishlab chiqarish ham bu vaqtga kelganda ancha qisqarib bordi. Bunday ko'rsatkich sababi qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarishning pasayishiga bog'liq edi. Qishloq xo'jaligida daromad 1973-yilda 2,9 %ni tashkil qilgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2003-yilda esa atigi 1 % ni tashkil etdi.

Ijtimoiy-iqtisodiy siyosati. Yangi shakllangan leyboristlar hukumati o'z dasturida mamlakat iqtisodiyotini bir tekisda rivojlantirishga alohida to'xtalgan edi. Buni uchun davlat dastlab, sanoatda qo'llanilayotgan texnologiyalarni yangilash, boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish va ishchilarning mutaxassisliklarini oshirishni maqsad qilib qo'ygan edi.

Leyboristlar konservatorlarga qaraganda yirik kompaniyalarni davlatga to'lab kelayotgan soliq miqdorini nisbatan pasaytirishga harakat qildi. Ular qabul qilinayotgan antimanopolchilik to'g'risidagi qonunlarni cheklashga urundi.

Ijtimoiy siyosatda leyboristlar an'anaviy pozitsiyasini ushlab turdi. Davlatda kambag'allik chegarasida yashayotgan aholigi har tomonlam yordam berish rejasini ishlab chiqdi. Bunga ko'ra kambag'alik chizig'ida turgan oilalarning moddiy ahvoli o'rganilib ulardan haqiqatdan ham yordamga muhtojlariga yordam berishni qo'llab quvvatladi. Bunday aholi 1990-yilda 59,5mln dan 17 %ni tashkil qildi. Hukumat bunday oilalarga yordam berish uchun bir qator choralar ko'rishga urundi. Xususan, 2004-yilda hukumat ijtimoiy ahvolni tartibga solish maqsadida 6 mlrd funt-sterling miqdoridagi mablag'ni ajratdi. Bu mablag'lar belgilangan tartibda eng kam ish haqi olayotgan oilalarga birinchi farzandi uchun 16,50 funt-sterlingdan, qolgan farzandlari uchun esa 11,05 funt-serling miqdorida yordam puli ajratildi.

2005-yil saylov oldi dasturini "sotsial taqiq" deb nomladi. Bu dasturda salovchilarga shu vaqtgacha amalga oshirilib kelinayotagan ijtimoiy siyosatni yanada jadallashtirishga va'da berdi. Bunga ko'ra boshpanasizlarda, o'smir

qizlarga, homilador ayollarga va ishsizlarni ish bilan taminlashga va`da berdi. Ayniqsa o`smirlarga e`tiborni qaratish lozimligi bu dasturda har tomonlama muhumligi aytilgandi. O`smirlarning 10 % hech qayerda o`qimaydi va ishlamasdi. Hukumat bu kabi muomolarni oldini olish uchun o`z farzandlariga befarq bo`lgan ota-onalarga jarima belgilandi. Jarima miqdorini leyboristlar 2 ming funt-sterling etib belgiladi³⁷.

Agar XX asrning 70-yillarda Buyuk Britaniyada ijtimoiy sohaga sarflanayotga xarajatlar (sog`liqni saqlash, ta`lim, ilm-fan va qurulishga) davlatning bir yilda sarflanayotgan xarajatlarning yarmiga teng bo`lsa, 2005-yilga kelib bu ko`rsatkich 75 % ni tashkil qildi. Bu insonga sarflanayotga ijtimoiy sarmoyaning har yili oshib borishini ko`rish mumkin.

Ikkinchi kabinet boshqaruvini Bler boshchiligida leyboristlar o`zining oldingi boshqaruv tizmidagi ko`p jihatlarni saqlab qolishga harakat qildi. Hukumat kasaba uyushmalari bilan o`rtadagi aloqalarni yaxshilashga urnadi. Ularga bir qancha huquq va erkinliklar berdi. Shunday bo`lsa ham kasaba uyushmalari leyboristlarni “huquqni” buzishda aybladi. Leyboristlar va konservatorlar o`rtasida sezilarli ravishda yaqinlashuv kuzatildi.

2005-yil yangi saylovlar oldidan siyosiy hayotda Toni Berning obro`si tushganligi kuzatildi. Bunga sabab sifatida Buyuk Britaniyaning AQSH bilan hamkorlikda Iroqqa botirib kirganligi bo`ldi. Keng xalq ommasi orasida Leyboristlarning obro`si sezilarli darajada tushub ketdi. Shunday vaziyatda ham saylovoldi kampaniyasida ular faol harakatlar boshlab yubordi. Ularning uchunchi bor hokimiyat tepasiga kelisiga Mamlakatdagi iqtisodiy ahvolning barqarorligi sabab bo`ldi. Saylovchilar leyboristlarga shu sohadagi muvafaqiyatlari uchun o`z ovozlari berdi. Shunday bo`lsa ham leyboristlar bu saylovlarda sezilarli yo`qotishlarga uchradi. Saylovda qatnashgan saylovchilarning 35,5 % leyboristlar

³⁷ Капитонова Н.К. Великобритания в конце XX – начале XXI века: от консерваторов к лейбористам: Учебное пособие. М.: МГИМО (У) МИД России, 2003.ст.80.

partiyasiga, 32,6 % konservatorlar partiyasiga, 22,2 % esa liberal-demokratlarga ovoz berishdi. Bu saylov natijasida leyboristlar parlamentda ham o'z o'rinlarini sezilarli darajada yo'qotdi. Parlamentga saylangan 645 deputatdan 356 tasi leyboristlar partiyasi vakillaridan bo'lib, bu ko'rsatkich 2001-yilgi saylov natijasida saylangan deputatlar sonidan 66 mandatga kam edi³⁸.

Asosiy muholifatda turgan partiya sifatida yana konservatorlar sahnaga chiqdi, ular parlamentda 197 ta mandatlik o'rniga ega bo'ldi. Bu esa oldingi saylovlarga nisbatan 32 ta ko'p mandatlik o'rni edi. Bo'lib o'tgan saylovni hududiy jihatdan taqqoslaydigan bo'lsak, konservatorlar Shotlandiyada 59 ta okrugdan faqat bittasida, Uelsda esa 40 tadan uchtaida g'olib kelishdi. Bu saylov natijasida konservatorlar partiyasi boshqaruv tizmida yana o'zgarish yuz berdi. Shu vaqtgacha partiyaga bosh bo'lib kelayotgan Maykl Govard o'rniga 2005-yilda Devid Kameron keldi.

2005-yil saylov natijalariga ko'ra liberal-demokratlar ham sezilarli yutuqqa erishdi. Bu saylov natijasida ular parlamentda oldingi saylov natijasida 52 mandatlik o'rniga ega bo'lgan bo'lsa, bu saylovdan so'ngra bu o'rinlari ko'payib 62 taga yetdi. Ular bunday yutuqqa erishishiga leyboristlar hukumatining Iroqqa qo'shin kiritishganini qoralab chiqqanligi sabab bo'ldi. O'z dasturida bu urushni tugatish zarurligini yoqlab chiqdi.

Shotlandiya va Uelsdagi Milliy partiyalarning saylangan oz miqdordagi deputatlari parlamentdagi o'z mandatlik o'rniga ega bo'lishdi, ularning o'rni deyarli sezilmasdi. Shunday bo'lsa ham Shotlandiya Milliy partiyasi o'zining 4 ta mandatlik o'rnini 6 taga oshirdi. Uels Milliy partiyasida esa bu holat orqaga ketish kuzatilib 4 mandatlik o'rnida 3 taga qisqardi. Bundan tashqari o'ta o'ng Britan milliy partiyasi parlamentda o'rin ola bilmadi, biroq bu partiya mamlakat bo'yicha 200 ming ovozga ega bo'lishdi.

³⁸ Остапенко Г.С., Прокопов А.Ю. Новейшая история Великобритании: XX — начало XXI века: Учеб. пособие. — М.: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2012. — 472 с.

Saylov kampaniyasi davrida bir qancha muammoli savollar ko‘tarildi. Bu kabi muammolarni yechishni Bler hukumati o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Bu muammoli holat davlat ichidagi diniy vaziyatda ham o‘z aksini topdi. 2004-yil mamalakatdagadi Musulmonlar ittifoqi a‘zolari harakati ham jonlanib turli kaolitsiyalar tuza boshladi. Ular va boshqa nisbatan yomon sharoitda yashayotgan aholi qatlami ijtimoiy sohada bir qancha o‘zgarishlarni amalga oshirilishi lozimligini takidlaydi. Bu kaolitsiya ham saylovlarda ishtirok etdi. Bu kaolitsiyaning yetakchishi bo‘lgan Jorj Gallobey Iroqqa qilingan hujumni qoralagani uchun leyboristlar partiyasi safidan o‘chirilgan edi. 2005-yilgi saylovda bu kaolitsiyadan u parlamentga a‘zo sifatida saylandi.

Uchunchi bor saylovda g‘olib bo‘lgan yangi leyboristlar partiyasi o‘z tarixida birinchi marta bu natijaga erishishi edi. Leyboristlarning bunday ijobiy natija ko‘rsatayotganligi keng aholi qatlamlari ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan dasturlarni qo‘llayotganligi sababli edi. Bu safargi saylovoldi kampaniyasida ham leyboristlar o‘z an‘analariga sodiq qolgan holda ijtimoiy sohani yanada rivojlantirishga va‘da berdi. Ishlab chiqilgan yangi dasturga ko‘ra o‘smirlarga bo‘lgan e‘tiborni oshirish, boshpanasizlarni uy bilan taminlash, savodsizlikka qarshi kurashish, to‘lanilayotgan eng kam ish haqi miqdorini oshirish, infliyatsiyani 2 % holati ushlab turish va uni oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, bolalar o‘limi darajasini pasaytirish va kambag‘alikni tugatishga harakat qilishga va‘da berdi. Yana hukumat tepasida Bler boshchiligidagi yangi kabinet keldi. Blerning yangi boshqaruv davrida ijtimoiy sohaga sarflanayotgan sarf harajatlar sezilarli darajada oshdi. 2006-2008-yillar oralig‘ida sog‘liqni sarflash sohasiga sarflangan harajatlar 10,5 mlrd funt-sterlingni, ta‘lim sohasiga yaqin 5 yil uchun 59 mlrd fun-sterling miqdoridagi mablag‘ sarflash dasturga kiritildi³⁹.

³⁹ Капитонова Н.К. Великобритания в конце XX – начале XXI века: от консерваторов к лейбористам: Учебное пособие. М.: МГИМО (У) МИД России, 2003.ст.84.

2006-2007-yillardagi iqtisodiy rivojlanish. Blerning uchunchi hukumati davrida har jabhada o'zgarish qilishga urinishlar kuzatildi. Misol sifatida leyboristlar sayovoldi bergan va'da larini amalga oshirishga kirishishdi. Jamoat xizmatlari sifatini oshirish, bozor mehanizmlarini yanada takomillashtirishda hukumat bir qancha qiyinchilikka duch keldi

Davlatning iqtisodi rivojlanish darajasi bo'yicha barqarorlikni saqlab qoldi. Bu davrda Buyuk Britaniyaning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichi o'rtacha yiliga 2,7 %ni tashkil qildi. Yevropa Ittifoqi davlatlarida yillik iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkich 2,1 % ni tashkil qilardi. Buyuk Britaniyada iqtisodiy o'sishning manbalari sifatida soliqdan tushayotgan mablag` va neft ishlab chiqarish sohalaridan kelayotgan daromad hisobiga erishildi. Bler hukumatida moliya vaziri lavozimida ishlayotgan G. Braun tashabbusi bilan soliq miqdori sezilarli darajada ko'tarildi. 2005-yilda davlatda daromad solig'i stavkasi 40 % tashkil qilgan bo'lsa, 2006-yilga kelib xususan, neft kompaniyalaridan olinadigan daromad solig'i 50 % etib belgilandi.

1993-2006-yillarda 3,5 mln kishi ish bilan taminladi, bu butun Britaniya ishchilarning 15 % qismini tashkil qilardi. Ahamiyatli tomoni shunda ediki, ish bilan taminlanganlarning ko'pchilik qismini ayollar tashkil qilar edi. 1999-yilda 47 % ayollar ish bilan band bo'lsa bu ko'rsatkich 2004-yilga kelganda 70 %ni tashkil qildi. Davlatdagi 46 % yosh bolali onalar ishlar edi, buni yaxshi tushungan Bler hukumati 1 mln kishilik bog`chalar qurish dasturini qabul qildi.

1993-yildagi ishsizlar soni 10,5 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 2006-yilda bu ko'rsatkich 4,7 % ni tashkil qildi. Davlatda ba`zi bir sohalarda ishchi kuchi yetishmasligi sezilib turardi. Hukumat o'z fuqarolarini ish bilan to'raligicha taminlash uchun Yevropa Ittifoqiga yangi a`zo bo'lib kirgan Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlaridan kelayotgan ishchilar oqimini to'xtatib qo'ydi. Bu davlatlar Yevropa Ittifoqiga 2004-yilda a`zo bo'lgan edi. Aksincha, Yevropa Ittifoqiga a`zo bo'lmagan davlatlaridan kelayotgan ishchilarga ancha yengilliklar yaratdi.

Toni Blerning mamlakat ichida obro'sining tushushiga Shotlandiyadagi parlament saylovlari sabab bo'ldi. Shotlandiyada 2007-yil 5-mayda o'tkazilgan parlament saylovlarida Shotlandiya Milliy partiyasi g'alaba erishdi. Bu g'alaba natijasida jamiyat siyosiy hayotiga ta'sir ko'rsatdi. Shotlandiyadagi bu parlament saylovda millatchilar boshchilik qilayotgan Milliy partiya 127 mandatdan 49 tasini egalladi, leyboristlar partiyasi esa ulardan bitta kam mandatga ega bo'ldi.

Bu esa o'z navbatida Buyuk Britaniya iqtisodiga ancha salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Buyuk Britaniya Shimoliy dengizdan qazib olinayotgan neftdan ayrilishiga sabab bo'lardi. Shuning oqibatida primer-ministrning obro'si tushushiga olib keldi. Bundan tashqari Blerning obro'sining tushushiga AQSH prizdenti Jorj Bursh tomonidan olib borilayotgan Iroqqa qilgan hujumida Buyuk Britaniyaning ham ishtirok etayotganligi keng xalq ommasi o'rtasida norozilik keltirib chiqarganligi ham sabab bo'ldi. Leyboristlar partiyasi ichida olib borilgan muhokamalardan so'ng hukumatdan Blerni iste'fo berilishi lozim deb topildi. Uning o'rniga shu hukumat tarkibida moliya vaziri lavozimini boshqarib kelayotgan Gordan Braunga topshirish kerakligiga kelishildi.

2007-yil 7-mayda Toni Bler qirolichaga o'zini iste'foga chiqarish haqida murojatnoma yuborishni bayon qildi. Buning natijasida Toni Bler iste'foga chiqarildi. Shu yilning 24-iyun kuni uning o'rniga leyboristlar partiyasidan Gordon Braun bosh vazir etib saylandi. U 27-iyunda rasman partiya yetakchisi maqomiga erishadi.

Gordan Braun haqida qisqacha ma'lumot berib o'tsam, U 1951-yilda Shotlandiyaning Glazgo shaxrida tug'ulgan. U maktabda o'qib yurgan vaqtlarda regbi o'ynayotgan vaqtida jarahot olib bir ko'zi ko'rmaydigan bo'lib qoladi. Uning bitta ko'zi yaxshi ko'rmasligi, maktab va Edinburg univeristetining bakalavr va magistratura yo'nalishlarini a'lo baholar bilan tugatib, falsafa fanlari doktori darajasini olishga halaqit bermaydi.

Braun bir necha yil davomida oliy dargohlarda siyosatshunoslikdan dars berdi, keyinchalik shotland televideniyasida jurnalist bo'lib va xalqaro aloqalar

boʻlimida redaktur vazifasida faoliyat olib boradi. 1983-yilda leyboristlar partiyasi tomonida saylovlarda ishtirok etib parlamentga saylanadi. U umumpalatada ishlab chiqarish va savdo-sotiq sohasi yetakchisi sifatida “soyaviy” muholifat tarkibida faoliyat koʻrsatadi. 1992-1997-yillarda u moliya sohasida faoliyat olib bordi. Saylovoldi kampaniyasida Braun moliya sohasida ham islohot qilish zarurligini takidlab oʻtdi. Bu kabi olgʻa surilgan gʻoyalar natijasida siyosatda “Temir Braun” nomini olishiga sabab boʻldi⁴⁰.

1994-yilda leyboristlar yetakchisi J. Smitning toʻsatdan vafot etishi natijasida partiya yetakchisi boʻlishga Braun harakat qiladi. Bu oʻrin uchun u Toni Bler uchun raqobat qilishdan xavfsirab oʻz namzodini qaytarib oladi. Bler va Braun oʻzaro hamkorlida ishlashga kelishadi. 1997-yilda leyboristlar saylovda gʻalaba qozongandan soʻng u hukumat tarkibida moliya vaziri lavozimida ish faoliyat yuritadi. Braunning 10 yillik moliya vaziri lavozimida ish faoliyati natijasida leyboristlar hukumati iqtisodiyotda bir qancha yutuqlarga erishdi.

2007-yili parlamentda quyi palata yigʻilishida Braun oʻz dasturi bilan yangi gʻoyalarni olgʻa surdi. Uning nutqida mamlakatda konstitutsion islohotlarning oʻtkazilishi zarurligini takidlab oʻtdi. Gordon Braun premer-ministriga bir qancha vakolatlar berilish zarurligini yoqlab chiqdi. Bunga koʻra Umumpalataga ham bir qancha huquqlar berildi. Unga Buyuk Britaniya nomidan urush eʼlon qilish, parlamentni favqulodda vaziyatlar vaqtida chaqirish, armiyani kerakli vaqtda chet elga chiqarish va boshqalar.

Braun hukumati ishlab chiqarishda ishtirok etayotgan mehnatkashlarning malakasini oshirish va ularni oʻqitish, yangi texnologiyalar bilan tanishtirish kabi masalalarga ham eʼtibor qaratishni lozim deb topdi. Bundan tashqari mamlakatga chetdan kelib ishlayotgan ishchilarni ham moliyaviy ahvolini yaxshilash zarurligini takidlab oʻtdi.

⁴⁰ Капитонова Н.К. Великобритания в конце XX – начале XXI века: от консерваторов к лейбористам: Учебное пособие. М.: МГИМО (У) МИД России, 2003.ст.91.

Sogʻliqni saqlash sohasini ham yaxshilash maqsadida hukumat va ucherizatsiyalashgan tizimni yaratish dasturini taklif qildi. Buning natijasida hukumat tibbiyot sohasini moliyalashtirishdan voz kechdi. Endilikda tibbiyot muasasalari chek tizimi orqali isteʼmolchilar tomonidan moliyaviy taminotga ega boʻlardi. Hukumat dasturida belgilangan 2007-2008-yillar davomida sogʻliqni saqlash sohasiga 90 mlrd funt-sterling miqdoridagi mablagʻni sarflash koʻzda tutilgandi. Agar, taqqoslaydigan boʻlsak davlatning bu vaqtdagi harbiy sohaga sarflanishi kerak boʻlgan mablagʻi 33 mlrd funt-sterling miqdorida edi.

Biroq 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi hukumat tomonidan olgʻa surulgan bir qancha rejalarni amalga oshmay qolishiga sabab boʻldi. Bu inqiroz sababli mamlakat iqtisodiyoti ancha sezilarli darajada zarar koʻrdi.

Buyuk Britaniyada neft mahsulotlari tannarxi oshishiga va ipoteka tizmidagi inqiroz 2009-yil yozida 1997-yili koʻrsatkichiga nisbatan rekord darajaga yaʼni 3,3 % ga koʻtarildi. Mahalliy aholi va chet eldan kelgan muhojirlar orasida ishsizlar soni muntazam ravishda oshib bordi. Hukumat 2009-yil aprel oyida soliq tizmidagi oʻzgarish qilishga majbur boʻldi, bunga koʻra shu vaqtgacha toʻlanib kelinayotgan daromad soligʻini 22 % da 20 % ga tushurdi. Bundan tashqari oylik maoshlar ham sezilarli ravishda tushushi boshlandi. Bunday narx-navoning oshib borishi yoshlar va qariyalarning moddiy ahvolining yomonlashuviga sabab boʻldi.

Bunday qiyin vaziyatda turgan vaqtda hukumatni boshqarayotgan leyboristlar partiyasi rahbariyati oʻrtasida ichki ziddiyat kelib chiqdi. 2008-yil aprel oyida Braun hukumati tarkibiga tashqi ishlar vaziri sifatida kiritilgan D. Milibrand oʻrtasida kelishmovchilik kelib chiqdi. Hattoki, Braun oʻrniga uni hukumat rahbari sifatida oʻtirishini xohlaydiganlar ham anchaginani tashkil qilardi.

Aholi oʻrtasida leyboristlar va ularning yetakchilarining obroʻsi asta-sekin tushub borardi. 2008-yil sentyabrda jamoat fikriga koʻra saylovchilarni 43-44 % hukumatni qoʻllab quvatlashlari maʼlum boʻlsa, 2009-yil oʻrtalarida esa bu koʻrsatkich 22-25 % ga tushub ketganligini koʻrishimiz mumkin. 2008-yilda aholining 65 % Braunga ishonch bildirgan boʻlsa 17% ishonchsizlik bildirgandi,

2009-yilga kelib ishonch bildirganlar 16 % ni ishonch bildirmaganlar esa 78 % ni tashkil qilishardi. 2009-yil dekabrda Britaniya ommaviy axborot vositalari olib borgan soʻravnoma boʻyicha aholining 40-41 % konservatorlarga, 24-31% esa leyboristlarga ishonch bildirayotganligi maʼlum boʻldi.

2009-yil oktyabr oyida saylovoldi kampaniyasida G. Braun mamlakatdagi uch partiya yetakchilari oʻrtasida debat oʻtkazishga ruxsat berdi. Muxolifatda turgan partiyaning obroʻsi oshdi. Leyboristlar partiyasining obroʻsining tushushi oʻz navbatida konservatorlar partiyasining mavqeyini mustahkamlanishga sabab boʻldi. Konservatorlar partiyasining yetakchisi sifatida maydonga Devid Kameron chiqdi⁴¹.

Yangi boʻlib oʻtgan saylovlarda ham hech qaysi bir partiya mutloq katta ustunlik bilan gʻalabaga erisha olmas edi. Buning natijasida partiyalar oʻrtasidagi ziddiyat asta-sekinlik bilan oʻzgara bordi.

Madaniyat. Uchunchi mingyillikning boshlanishi Buyuk Britaniya poytaxtida va boshqa shaharlarida yangi tipdagi koʻplab binolarni qurulishini yanada jadallashtirib yubordi. Koʻplab turar joy binolari va davlat tashkilotlariga tegishli boʻlgan binolar qurildi. Misol sifatida Londonda arxitektor Richard Rojers yirik plastik inshoot boʻlgan “Kupola milletuma”, “Millitum gumbazlari” koʻrgazmaga moʻljallangan qurillish ishlari yakunlandi

Buyuk Britaniya aholisi XXI asr boshlarida 61 mln kishidan ziyodroq edi. Aholining koʻpchilik qismi shahar va shaharchalarda istiqomat qilishardi. Oʻz navbatida mamlakatning qishloqlarida yashovchi aholi shaharliklardan farqli ravishda oʻzlariga mos sharoitda yashashardi. Sotsiologlar olib borgan soʻrovnomalari qaranganda mamlakat qishloqlarida yashayotgan yoshlarining koʻpchilik qismi barcha ishlarni uy sharoitida bajarishni istashlari maʼlum boʻldi.

⁴¹ Булмистре, Я.Э. Великобритания: The Land of Hope and Glory [Текст] / [Булмистре Я., Высоцкий В., Смирнов С.]. Санкт-Петербург: ООО "ЦПО", 2012 – ст.123.

Afro-osiyo muhojirlari muammosi leyboristlar hukumati siyosatida asosiy o‘rin tutadi. XX asr oxiriga kelib Buyuk Britaniyaga kirib kelgan muhojirlarning soni 3 mlndan 4 mlnga oshdi. Bu mamlakatning butun aholisining mos ravishda oldin 6 % ni tashkil qilgan bo‘lsa endilkda 9 % ni tashkil qilmoqda edi. Bu muhojirlarning anchagina qismi shu yerda tug‘ulganligi sababli mamlakat fuqarolari ega bo‘lgan huquqlarga ular ham ega edi.

Leyboristlarning hukumronligi davrida musulmonlarning siyosiy hayotga kirib kelishi boshlandi. 2005-yilgi saylovda 13 ta musulmon jamoa palatasiga, 4 tasi esa lordlar palatasiga, 270 tasi esa joylardagi fuqarolik organlariga saylandi. Natijada mamlakatda islom gazetasining, telekanalining va yangi islom bankining tuzilishiga harakatlar boshlanib ketdi. Musulmonlar mamlakatda alkagol mahsulotlari va pornografiya biznesini taqiq qilishga chaqira boshladi.

2005-yilda Britaniyda ham terrorchilik teraktlari sodir etildi. Shu yilning 7 va 21-iyulida London metrosida va avtobuslarda terorchilik terakti sodir etildi. Sodir etilgan birichi terakt juda qonli bo‘lib Buyuk Britaniya tarixida shu vaqtgacha sodir etilmagandi. Uning oqibatida 56 kishi halok bo‘ldi, 700 dan ziyod kishi turli darajadagi tan jarohatlarini olishdi, terrorchilardan 4 kishi halok bo‘ldi⁴². Sodir bo‘lgan bu terakt javobgarligini o‘z bo‘yniga Yevropada “ Al-Qoida” yashirin tashkiloti deb nomlangan guruh oldi. Terrorchilarning uchtasi etnik jihatdan Britaniyada tug‘ulgan asli kelib chiqishi Pokistondan bo‘lgan shaxslar, bir nafarini esa Yamaykalik musulmon diniga etiqod qiluvchi shaxs bo‘lib chiqdi.

Bundan keyin bu kabi qo‘poruvchilk harakatlarini oldini olish maqsadida 2005-2006-yillarda yangi qonun qabul qilindi va mahsus xizmat xodimlariga keng vakolatlar berdi. Teraktga undash qatiyan taqiqlandi va ba’zi bir masjidlar o‘z faoliyatini to‘xtadi.

⁴² Остапенко Г.С., Прокопов А.Ю. Новейшая история Велико британии: XX — начало XXI века: Учеб. пособие. — М.: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2012. — ст.393.

2.2.Jahon moliyaviy inqirozi va Angliya.

Jahon moliyaviy inqirozi. Buyuk Britaniya iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha XXI asr boshlarida ham dunyoning rivojlangan davlatlari qatorida turardi. Uning iqtisodi ancha baquvvat edi. Ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda AQSh, Yaponiya, GFR va Fransiya dan keying 5-o'rinni egallagandi.

Buyuk Britaniyaga investitsiya kiritish bo'yicha AQSH yetakchi o'rinni egallardi. AQSH, Yaponiya va GFR London shahrini jahon moliya markazi deb hisoblardi. Buyuk Britaniya chet davlatlarda banklari va sug'urta kompaniyalariga ega edi. Ingliz funt-sterlingida jahonda amalga oshirilayotgan savdoning beshdan bir qismi shu pulda amalga oshirilmoqda edi.

2008-yil AQSHda boshlangan hududiy inqiroz dunyoda globallashuv jarayoni jadal suratlar bilan ommalashayotgan bir sharoitda u xalqaro moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Buning natijasida jahon ishlab chiqarish ko'rsatkichlari keskin ravishda tusha boshladi, ishsizlik haddan ziyod darajaga ko'tarilib ketdi, narx navoning ham birdaniga keskin ravishda o'zgarishiga olib keldi.

Buyuk Britaniya xalqaro iqtisodiy inqiroz davrida iqtisodiy sohada bir qancha choralarni qo'llashga harakat qilib ko'radi. Davlat iqtisodiyotini izga tushirish uchun quyidagi muammolarni yechimini topish zarur edi.

1.Buyuk Britaniyaning asosiy iqtisodiyot ko'rsatkich darajalarini tartibga solish lozim.

2.Iqtisodiy inqiroz davrida Buyuk Britaniya iqtisodini analiz qilish.

1. 2008-yil 9-15-noyabr kunlari Jahon iqtisodiyotidagi bo'layotgan ahvolning qisqacha sharhi. Buyuk Britaniya tashqi savdo balansi iqtisodiy inqiroz tufayli sentyabr oyida sezilarli darajada qisqardi. Bu oldindan iqtisodchilar tomonidan kutilgan holat edi. Sentyabr oyidagi ko'rsatkich avgust oyiga qaraganda yomon emasdi. Davlatga asosiy foyda keltirayotgan sohalardan biri bo'lgan neftning narxi jahon bozorida keskin ravishda tushub ketdi. Bu holat sentyabr oyida sodir bo'ldi. Buning ustiga funt-sterling kursining tushub ketishi Buyuk

Britaniyaning eksport sektorining bir joyda qotib qolishiga sabab bo'ldi. Davlatda ishlab chiqarish ko'rsatkichlari oktyabr oyida sentyabrga qaraganda 1 % pastga qarab tushub ketdi.

RICS ning ma'lumotiga qaraganda Buyuk Britaniyada uy-joylar narxi oshdi. Shunday bo'lsa ham oktyabr oyida bu holat juda past ko'rsatkichni qayd qildi, ya'ni 81,8 % ni shundan turar joy sotish hajmi hisob-kitob bo'yicha 30 yillik davr mobaynida rekord darajani ko'rsatdi. 2008-yilning oktyabr-sentyabr oylaridagi ishsizlik darajasi 2002-yil mart oyidan beri aniqlangan eng yuqori darajadan ham ancha yuqoriga ko'tarildi. Shunday qilib bu vaqtda mamlakatdagi ishsizlar soni bo'yicha 16 yil oldingi holatga yetdi. Buyuk Britaniyadagi bu holat yanada achinarli ahvolga kelib qolishi mumkin edi. Oktyabr oyining birgina seshanbasining o'zida 5 ming kishini ishdan bo'shatilganligi rasman e'lon qilingan edi. Qator yirik kompaniyalar, Virgin Media, Taylor Wimpey va Glaxo Smith Kline; hafta oxirida 6 % ishchilarini ishdan bo'shatishini mo'ljallayotganligini e'lon qildi.

2008-yil 24-noyabrda Buyuk Britaniya qo'shilgan qiymat solig'i vaqtinchalik 2,5 % ga , Punkpida 15 % gacha tushadi deb e'lon qildi. Bu talabni olg'a surgan shaxs Buyuk Britaniya moliya vaziri Alister Darling bo'ldi⁴³.

2008-yil 14-noyabrda Buyuk Britaniyaning Royal Bank of Scotland (RBS) dunyo bo'yicha o'z xodimlarining 3 mingga yaqinini ishdan bo'shatishni mo'ljallayotganligini bayon qildi.

2. 2008-yil 30-noyabrdan-6-dekabrgacha jahon iqtisodiy inqirozi sharxi. Buyuk Britaniyada ipoteka bozori tushub ketish jarayoni muttasil davom etmoqda edi. Oktyabr oyida banklardan kredit olishga berilgan arizlar soni bo'yicha 10 yillikdagi eng yomon ko'rsatkichni qayd edi. Bu davrda ham turar-joyning narxlari keskin ravishda pastga qarab tushub ketishi kuzatilmoqda edi. "Hometrack"

⁴³ Остапенко Г.С., Прокопов А.Ю. Новейшая история Велико британии: XX — начало XXI века: Учеб. пособие. — М.: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2012. — ст.386.

xabariga ko'ra noyabr oyida turar-joy narxi 1,1 % ga arzonlashuvi kuzatilishi mumkin edi. Bu vaqtdagi holat bo'yicha uy-joyning narxi 2007-yilning shu davridagiga qaraganda 8,1 % ni tashkil qilardi. Buyuk Britaniyada inqiroz davrida qurilish sohasida ham ahvol ancha og'ir vaziyatda edi. 2008-yilning noyabr oyidagi holat bo'yicha bu sohadagi yaqin davr ichidagi tarixiy minimum natijani ko'rsatdi. Nihoyat KRMGREC tekshiruv mehnatga to'lanadigan haq darajasini pasayishining rekord darajasini ko'rsatdi. Noyabr oyida ish beruvchilar va ishchilar o'rtasidagi tuzilgan shartnomalar rekord darajada bekor qilindi

Banklar kredit berish shartlarini ancha qiyinlashtirib yubordi bu esa hukumatning qattiq noroziligiga sabab bo'ldi. G'aznachilik rahbari Darling kichik-biznes va uy xo'jaligini uchun berilayotgan kreditlarga qo'shimchasiga nohaq shartlarning qo'yilishini to'xtatilmasa ularga berilayotgan huquqlarni bir qancha tomonlardan cheklab qo'yish mumkinligini takidlab o'tdi. Hukumat bunga bankalarni sotib olish yo'li orqali erishishni maqsad qilgandi. Bosh vazir Braun milliyalashtirishdan chetda qolayotgan mustaqil banklarga yaqin ikki yil ichida o'z faoliyatlarini ijobiy tomonga o'zgartirmasa ular ham milliyalashtirilishi mumkinligiga sha'ma qilib o'tdi.

3.2008-yilning 21-27-dekabr kunlari uchun jahon moliyaviy inqirozining sharxi. Buyuk Britaniya iqtisodi bu vaqtda ancha qiyin ahvolga kelib qoldi. Joriy yilning o'tgan choragiga qaraganda iqtisod 0,6 % ga qisqardi. Bunaqasi oxirgi 18 yil mobaynida kuzatilmagan edi. Buyuk Britaniyaning bank asotsatsiyasining baholashicha noyabr oyida ipoteka kreditlari berish keskin darajada tushishi davom etardi. Agar oktyabr oyida bu ko'rsatkich 11,2 % ga tushgan bo'lsa kelasi oyda bu ko'rsatkichlar 19,1 % ga yetdi. RICS tahliliga asosan 2009-yilda turar-joy narxi o'rtacha yana 10 % ga tushub ketishi kuzatilishi mumkin edi. Umumiy arzonlashuvi darajasi esa 25 % ga borishi mumkin edi. Ishsizlik rekord darajaga ko'tarildi. Independentning yozishicha hukumat ekspertlarining fikriga qaraganda yangi yildan so'ng ko'p ish beruvchilar o'zlarining qisqartirishlar ro'yxatini e'lon qilishi kechiktirishi mumkin edi. Hukumat vakillari bir qancha chora tadbirlarni

amalga oshirish yo'llarini ko'ra boshladi. Bir qancha yirik kompaniyalar bankrotlik yoqasiga kelib qoldi. Hattoki mashxur Land Rover kompaniyasi ham iqtisodiy inqirozdan jiddiy zarar ko'rishi natijasida o'z ishchilarining ma'lum qismini bo'shatish mumkinligini e'lon qildi. Ernst&Young kompaniyasi Londonda misli ko'rilmagan darajadagi chegirmalarda o'z mahsulotlarini sota boshladi. U o'z mahsulotlarini 40 % chegirma hisobida sotmoqda edi. Buning natijasida ko'plab aholi bu kompaniya mahsulotlarini harid qila boshladi.

3.1. 2008-yil 27-dekabrida Wolworthsning oz emas ko'p emas naq 200 ta sepermaketlari yopildi. Bunga butun dunyoda bo'layotgan iqtisodiy inqiroz ta'siri edi. Bu supermarketlar shu yilning shanba kuni o'z haridorlariga oxirgi marta o'z eshiklarini ochgandi. Bankrot bo'lgandan keyin uning aksiyalarining katta qismini Deloitte egalladi. Bu unvermarklarda asosan bolalar o'yinchoqlari kitoblar, keng iste'mol mahsulotlari va bayram sovg'alari sotilardi.

3.2. Iqtisodiy inqiroz Buyuk Britaniya iqtisodini ikki baravar orqaga ketishiga sabab bo'ldi. Bu butun dunyoni larzaga solgan moliyaviy inqiroz sababli Buyuk Britaniya ahosiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu inqiroz tufayli Buyuk Britaniyada boy yashovchi aholining soni sezilarli darajada kamayib ketdi. Sunday Times nomli ingliz gazetasi bunday ahvolga tushub qolgan boylarning ro'yxatini tuzish ishlarini boshlab yubordi. Buyuk Britaniyaning butun boy fuqarolari bu inqirozda o'zlarining boyliklarining 50 % qismini yo'qotdi. Bu tahminan 412,8 mlrd funt-sterling miqdoriga to'g'ri kelardi. Bu ahvol 2008-yilning oxiriga kelib 200 mlrd funt-sterlingni tashkil qildi⁴⁴.

Inqiroz sababli ko'plab ishbilarmonlar juda katta moliyaviy zarar ko'rdi. Bunga misol sifatida sport anjomlarini ishlab chiqaradigan kompaniya egasi Tom Xanter inqiroz tufayli o'zining 1,05 mlrd funt-sterling qiymatiga ega bo'lgan

⁴⁴ Булмистре, Я.Э. Великобритания: The Land of Hope and Glory [Текст] / [Булмистре Я., Высоцкий В., Смирнов С.]. Санкт-Петербург: ООО "ЦПО", 2012 – ст.112.

boyli 750 mln funt-sterlingga tushub qoldi. Bundan tashqari Easyvet aviokampaniyasi egasi ser Stelios Ioin bu vaqtga kelganda 300 mln funt-sterling zarar ko'rdi. Bir yil oldini uning moliyaviy ahvoli juda yaxshi bo'lib butun boyli 812 mln funt-sterling qiymatida baholangan edi.

Moliyaviy inqiroz sababli ko'p sohalar kabi ko'chmas mulk oldi-sottisi bilan shug'ullanadigan kompaniyalar ham yetarli darajada zarar ko'rdi. Bu kompaniyalarda qisqartirish qariyb 90 % gacha borib yetdi.

3.3. Buyuk Britaniyaning iqtisodiy ahvoli boshqa rivojlangan davlatlarga qaraganda ancha yomonlashdi. 2009-yilda Buyuk Britaniyada yashash tarzi keskin ravishda tushub ketdi. Oksfordning Economics konsaltining olib borgan tekshiruvlari natijasida yaqin yillardagi Buyuk Britaniyaning aholining turmush tarzining eng past ko'rsatkichi ekanligi to'g'risida xabar tarqatdi. 2007-yilda Buyuk Britaniya iqtisodi o'z cho'qqisining yuqori nuqtasiga chiqqan bo'lib shu davrida davlatda aholi jon boshiga taqsimlasa Viktoriya davridan keyingi eng yaxshi natijani ko'rsatdi. Bu vaqtda aholi jon boshiga taqsimlaganda 35 ming 243 dollarda (23 ming 913 funt-sterling) to'g'ri keldi. Bu ko'rsatkich AQSHda 46 ming 373 dollar, Germaniyada 41,373 dollarni tashkil etardi⁴⁵.

Buyuk Britaniya aholisi mamlakatda yashash tarzining keskin tushub ketganini yaxshi tushunishardi va bunday ahvol uchun noroziliklarini bildirishardi. Oksford economics direktori Edrian Kuper "ular endi boy odamlar qarshisida plyajlarda bo'lishmaydi" deb yozadi. Bunday ahvol ayniqsa oddiy ishchilar qatlamiga juda katta zarba bo'ldi.

Buyuk Britaniyadagi The Observer buyurtmasiga ko'ra Orange kompaniyasining tekshiruvlari natijasida inqiroz tufayli mamlakatdagi kichik firmalarning qariyb yarmi o'z xarajatlarini qisqartirdi va ishchilarning ko'p qismini ishdan bo'shatishini e'lon qilishdi. Bu kabi kichik kompaniyalar moliyaviy inqiroz

⁴⁵ Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. М. 2004.

tufayli o'zlarining oldingi darajasini tiklashlariga ishonmas edi. Bu inqiroz natijasida ko'rilgan zararlarning qoplanishi uchun kamida ikki yil vaqt kerak bo'lardi degan tahmin oldinga surildi.

4.1. 2009-yil 5-yanvar Buyuk Britaniyada bir qancha yirik kompaniyalar inqiroz qurbonlari bo'lishdi. Buyuk Britaniya keng iste'mol molari va oshxona jihozlarini ishlab chiqaruvchi yirik korxonalaridan biri Waterford Wedgwoodda ham inqiroz boshladi va vaqtincha o'z faoliyatini to'xtatishini e'lon qildi. Bu haqda BBC news agentligi xabar beradi. Bu kompaniyaning boshqaruv apparatida ham o'zgarish bo'ldi. Natijada uning mahsulotlari raqobatbardoshligi tushib keta boshladi, unga qarshi Osiyo davlatlarining kompaniyalari maydonga chiqa boshladi. Bu kompaniya o'zining ish faoliyatining susaytirishi sababli ko'plab ishchilarni ishdan bo'shatishga majbur bo'ldi. Bunday yirik kompaniyalar inqiroz sababli o'z ishchilarining deyarli yarmini ishdan bo'shatishga majbur bo'ldi. Ishdan bo'shgan ishchilar ish topish maqsadida ko'chalarda nomoyish harakatlarini boshlab yubordi.

5.22-dekabr 2008-yil-10-yanvar 2009-yil davomida johon moliyaviy inqirozining Britaniyaga ta'siri. Buyuk Britaniyada bu vaqtda ham turor joylarning narxi tushushi davom etardi. Nationwide tekshiruvlariga qaraganda dekabr oyining o'zida 2,5 % pastga qarab tushub ketdi. 2007-yilning shu oyiga nisbatan solishtiradigan bo'lsak bu ko'rsatkich 15,9 % ga past edi. Bu davrda davlatda sanoat ishlab chiqarish darajasi oktyabr oyiga nisbatan noyabr oyida 2,3 %ga tushub ketdi. Qayta ishlash sanoati esa bu davr orolig'ida qaryib 2,9 % ko'rsatkichida ortga qarab pastladi. Buyuk Britaniyada bunday pastlash deyarli 30 yil oldin ya'ni 1978-yilda qayd etilgan bo'lib shundan beri bu darajaga yetmagan edi. To'g'ri dekabr oyiga kelganda ishlab chiqarish sohasi salgina bo'lsada o'zini o'nglab olishga ulgurdi, biroq shunday bo'lsada inqiroz sababli ular juda ko'p moliyaviy zarar ko'rganligi sababli rekord darajada ish o'rinlarini qisqartirishga majbur bo'ldi. Nationwide fikriga qaraganda, 2008-yilning oxirida

iste'molchilarning kayfiyati ham shu darajada yomonlashib qolgan ediki ular faqatgina o'zlariga zarur bo'lgan narsalarni harid qilishga harakat qilardi.

5.1. Inqirozga qaramay milonerlar o'zlarinig yirik miqdordagi haridlarini amalga oshiraverdi. Buyuk Britaniya bosh vaziri Gordan Braun o'zining yangi qarorini chiqardi. Unda moliya tizimini qutqarish uchun banklardan kredit berish ishlarini yaxshilash zarurligi bayon etilgan edi.

Hukumat rahbari bo'lgan Braun banklarga qarata shunday fikr bildirdi "ertaga siz banklarda kreditlash tizimini tiklash, kreditlash tizimini oshirish bu nafaqat kredit olgan mijozlar foydasiga balki, siz banklarga ham juda katta foyda keltirardi. Bunday siyosat yuritish natijasida banklar iqtisodiy inqiroz sharoitida o'z faoliyatini to'xtatib qoymaydi" deydi.

5.3. Inqiroz sabab Buyuk Britaniyada xususiy maktablari milliylashtirildi. Iqtisodiy-inqiroz natijasida jabr ko'rgan xususiy maktablarni Buyuk Britaniya hukumati milliylashtirdi. Bu haqda The Guardian gazetasi xabar berardi.

Milliylashtirilgan maktablar davlat hukumati tomonidan olib borilgan oqilona siyosat natijasida samarali faoliyatini davom ettiraverdi. Davlat bu maktablarni milliylashtirgandan keyin bir qancha tadbirlarni amalga oshirdi. Maktablarning hisobiga yetarlicha mablag'lar o'tkazdi, o'qtuvchilarning malakasini oshirishga ham alohida e'tibor qaratdi.

6. 2009-yil 8-14-fevralda jahon iqtisodiy inqirozining ahvoli. Britan savdo hajmi iqtisodiy inqiroz sababli dekabr oyidayoq importning tushushi sababli anchagina qisqargandi. Shu yilning yanvar oyining o'zida 80 ming kishidan ziyodroq kishi ishdan bo'shatildi. Bu jihat bo'yicha ko'rsatkich 10 yillik ko'rsatkichni qayd etdi. RICS ma'lumotiga ko'ra yanvar oyida turar joylar narxi

rekord darajada ya'ni 10 % pastga tushib kedi. Davlatda chakana savdo hajmi o'sdi, bunga sabab qilib keng iste'mol mollarining qimmatlashuvi bo'ldi⁴⁶.

7.22-28-fevralda Buyuk Britaniya ahvoli. Bu davrda ham davlat iqtisodiyoti og'ir ahvolda edi. Ishlab chiqarish bu vaqtda ham keskin ravishda pastlashni davom ettirayotgandi. Banklardan olinayotgan ipoteka kreditlash tizimi ham juda past edi. Davlat iqtisodi boshi berk ko'chaga kirib qolgan bir sharoitda turar-joy savdosi ham izdan chiqib ketdi. Nationwidening bergan ma'lumotiga ko'ra 12 oy ichida mamlakatda turar-joylarning narxi 17,6 % ga arzonlashgandi. Bu davrga kelib mamlakatda chakana savdo inqiroz sababli pastlay boshladi. Fevral oyida ham banklarning ahvoli xavas qilar darajada emasdi. Shunday bo'lsada bu banklarning kattagina aksiyasi o'z navbatida davlat ixtiyoriga o'ta boshladi.

7.1. Buyuk Britaniya yuristlari moliyaviy inqirzoda boyishdi. Davlatda moliyaviy inqiroz bo'layotgan bir vaqtda yuristlarga bo'lgan talab oldingi davrga qaraganda oshib ketdi. Natijada huquqshunoslar o'zlarining xizmat ko'rsatish narxini qimmatlashtirib soatiga 1000 funt-sterling miqdorida belgiladi. Bu haqida Bloomberg xabar berishicha bu davrda mamlakatda o'rtacha ish haqi 550 dan 800 funt-sterling miqdorida edi.

Jahon moliyaviy inqirozi Buyuk Britaniyada iqtisodini deyarli izdan chiqarib yubordi. 2008-yilda boshlangan iqtisodiy inqiroz deyarli barcha sohalarga o'z salbiy ta'sirini o'tkazdi. Mamlakatning ishlab chiqarishi izdan chiqib ketdi. Ekspertlar olib borgan ishlari natijasida mamlakat ishlab chiqarishini birgina 2008-yilning o'zidayoq 20 % ga tushub ketganligini bayon qildi. Bu esa 1,5 mlrd dollar zarar ko'rganligini bildirardi. Bundan tashqari mamlakatning barcha sohalari rekord darajada zarar ko'rmoqda edi.

⁴⁶ Булмистре, Я.Э. Великобритания: The Land of Hope and Glory [Текст] / [Булмистре Я., Высоцкий В., Смирнов С.]. Санкт-Петербург: ООО "ЦПО", 2012 – ст.116.

III. Bob. Angliya tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari (1997-2010).

3.1. Angliya - AQSH munosabatlari

Buyuk Britaniya tashqi siyosati leyboristlar davrida ham o‘ziga xos bo‘ldi. Bu davrda ham asosiy hamkori sifatida tashqi siyosatda AQSH nazarida tutilardi. 1999-yil 22-aprelda Chikagoda o‘z nutqida: Xalqaro hamjamiyatning yangi doktarinasi” g‘oyasiga sodiq qolgan holda Kosovadagi voqealarga aralashish tarafdori sifatida maydonga chiqdi. Toni Bler “globalizatsiya-bu faqatgina iqtisodiy emas, siyosiy tushuncha hamdir. Agar biz xavfsizlikni yaxshilashni xohlasak, biz boshqa davlatlarda sodir etilayotgan mojoro va inson huquqlarining poymol etilishiga ko‘z yummasligimiz kerak deb takidlab o‘tadi. Buyuk Britaniya yetakchisi BMT nizomiga o‘zgartirishlar kiritishni taklif qiladi. Uning taklifiga ko‘ra qaysi davlatlarda siyosiy inqiroz yoki xalqaro huquq normalariga zid ish olib borilsa o‘sha davlatga qarshi qat’iy choralar qo‘llashni yoqlab chiqadi.

Buyuk Britaniyada aynan Bler davrida tashqi siyosatda ilk bor uzoq yillar davom passivlikdan aktivlikka o‘tishi davri bo‘lib qoldi. Aynan tashqi siyosatni kuchga kiritish bosh vazirga bog‘liq bo‘lib u tashqi ishlar vazirligi ishlariga ham juda ko‘p aralashardi va natijada kelishmovchiliklar kelib chiqardi.

Buyuk Britaniya tashqi siyosatda AQSHning tarafida turub ish olib borish edi. Ikki davlat o‘rtasida o‘zaro manfaatdorlik juda yuqori darajada edi. Davlatlar o‘rtasida “asosiy munosabatlar” o‘rnatilgandi. AQSH uchun asosiy munosabat bu Yevropa davlatlari orasida o‘zining ishonchli sherigi bo‘lishi uchun manfaatli edi. Ayniqsa AQSH prezidenti Klinton davrida ikki davlat o‘rtasidagialoqalar shu darajada yaxshi ediki, ular o‘rtasida okean yo‘q deb hisoblanardi. Klinton va Bler urushdan keying bir avlod vakili-Oksfordda huquqshunoslik ma’lumotiga ega bo‘lgan. Shu sababli ular bir birini juda yaxshi tushunardi. Hattoki, ikki siyosiy rahbar o‘rtasidagi yaqinlik shu darajada bo‘lidiki ikki tomon ham bir biriga saylov

kampaniyasi vaqtida ham o'z yordamini berib kelgan. Klinton davrida ingliz-amerika glaballashuvining qadryatlari vujudga keldi.

Ko'plab siyosatchilar ikki o'rtadagi iliq munosabatlar Klinton davri tugaganidan keyin yomonlashib ketadi degan fikrda edi. Ammo Jorj Bush hokimiyat tepasiga kelgandan keyin ham bu munosabatlar davom etdi. Buga misol sifatida 2001-yilda Buyuk Britaniya bosh vaziri Toni Bler va AQSH prezidenti Jorj Bush o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi. Bu uchrashuvda Jorj Bushdan ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida jurnalistlar shunday savol beradi. Buyuk Britaniya bosh vaziri bilan munosabatingiz qanday deb so'rashganda Jorj Bush "biz bitta tish pastasini ishlatamiz" deya javob bergandi. Bu javobdan ko'rinib turibdiki ikki o'rtadagi chegarasiz munosabatlar davom etiardi. 11-sentyabr voqealaridan keyin Bler vaziyatni o'nglashga to'g'ri keldi. Buyuk Britaniya bosh vaziri AQSH bilan o'rtadagi mustahkam ittifoqchilik statusini saqlab qolishga harakat qildi. Bu vaqtda London Vashingtonga mustahkam siyosiy ko'mak, amaliy harbiy yordam va diplomatik hamdardlik namoyon etdi. AQSHda sodir etilgan teraktdan 10 kun o'tgach kongressda Bush chiqish qilganda Buyuk Britaniyadan sodiq do'st yo'q Amerika uchun deya xitob qildi.

2001-yil 11-sentyabridan boshlab amerika-ingliz aloqalarida asosiy ro'lni ikki davlatning yetakchilarining shaxsiy munosabatlari o'ynardi. Ko'pchilikning ma'lum qilishicha Buyuk Britaniya bosh vazirini so'zlariga Bush quloq solardi. Blerning o'zi esa bunga do'stona munosabat deya baho berardi. Bush juda samimiy inson bo'lib u bilan ish olib borish juda oson edi. Shuning uchun men u bilan olib borayotgan hamkorligim ancha samarali bo'layapti deb takidlaydi⁴⁷.

Bush ma'muriyati Blerning olib borayotgan siyosatini maqullardi. Ikki davlatning Afrika masalasida olib borgan siyosati kutilmaganda bir-biriga qarshi kelib qoldi. Shunday bo'lsada AQSH prezidenti Toni Blerni o'z do'sti deb atashda

⁴⁷ Минаев М. В. Американо-британские отношения при правительстве Блэра//США - Канада: экономика, политика, культура. - 2008. - № 5. -ст.32.

davom etdi. Albatta munosabatlarda yuzaga kelgan kichik ziddiyatlaradan qochib bo'lmaydi. Bunday ziddiyatli vaziyatlar vaqti-vaqti bilan sodir bo'lib turardi. Misol sifatida Toni Blerning 2003-yil rojdestvo arafasida Iroqqa qilgan tashrifi Oq uy ma'muriyatining noroziligini keltirib chiqardi. AQSH prezidenti Bog'dodga kiritilgan qo'shiniga yagona yetakchi bo'lishga harakat qilib, Blerning bu tashrifini jiddiy qoralab chiqdi. Ba'zi ekspertlarning fikriga ko'ra bunday siyosat yuritilishi ikki davlat rahbarlarining shaxsiy sifatlariga ham bo'g'liq deydi. Buyuk Britaniya tarixchisi Nil Fergusson Bler va Bush o'rtasidagi munosabatlarga to'xtalib shunday degan "bu maxsus munosabatlarni oqqush qo'shig'iga qiyoslaydi". Bundan tashqari yana bir qancha siyosatchilar ham o'rtadagi munosabatlarga alohida to'xtalib asosiy e'tiborni siyosiy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga chaqiradi.

AQSHda prezident saylovlari arafasida inglizlarning 47 % Kerri maqul ko'rishgan bo'lsa faqatgina 16 % Bush nomzodini maqul ko'rishgandi. Bundan tashqari inglizlar AQSH bilan bo'layotgan ham iqtisodiy ham siyosiy ittifoqchilik siyosatiga qarshi munosabatda bo'lib, ular Cherchil tomonidan olg'a surilgan ikki tomonlama Atlantik juftlikdan noroziliklarini yashirib o'tirishmadi⁴⁸. Antiamerika kayfiyatidagilar o'z harakatlarini kuchaytirib yubordi. Ko'pchilik fuqarolarning fikriga qaraganda ikki davlat o'rtasidagi maxsus aloqalar shunchaki Blerning suniy yo'l bilan AQSHga bog'lab qo'yish deb baholanmoqda edi. Bunday vaziyatda Buyuk Britaniya tashqi siyosatida o'zining asosiy ittifoqchisi bo'lgan AQSHdan voz kechi masalasi ko'ndalang bo'lib turdi. Lekin Toni Bler va Gordan Braunning qat'iy pozitsiyasi sababli munosabatlar saqlanib qoldi. Toni Blerning atlantizm g'oyasi AQSH prezidentlarining shaxsiy munosabatlari asosida shakllangan bo'lsa, Braunning AQSHga bog'liqligi yanada kuchaydi. Buyuk Britaniya yetakchilari tashqi iqtisodiy siyosatda ham AQSH bilan hamkorligini yanada mustahkamlash tarafdori edilar.

⁴⁸ Минаев М. В. Американо-британские отношения при правительстве Блэра//США - Канада: экономика, политика, культура. - 2008. - № 5. -ст.34.

Buyuk Britaniya Yevropa yagona xavfsizlik siyosati tizimiga doir bitmni imzolaganiga qaramay u AQSH bilan mustahkam bog'langandi. Shunga e'tibor qaratish kerakki, Buyuk Britaniya tashqi siyosatda AQSH va boshqa ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlar bilan uzviy aloqada edi.

AQSH siyosatchilarining maqsadi Buyuk Britaniyaning qanday yo'l bilan bo'lsada o'zining ishonchli hamkoriga aylantirish kerak edi. Buning uchun unga qo'ldan kelgancha yordam qo'lini cho'zishga tayyor edi. Amerika o'z ittifoqdoshlaridan nimadir foyda ko'rishidan hech uyalmasdi. Undan tashqari dunyoda o'zining pozitsiyasini saqlab qolishni maqsad qilardi. Bu davrga kelganda Yevropa Ittifoqi o'zining pozitsiyasini har tomonlama mustahkamlagandan so'ng, Yevropa hududidan AQSHning siqib chiqarish uchun harakatlarini boshlab yuborgandi. Bunday vaziyatda AQSH uchun Buyuk Britaniyadek hamkor suv va havodek zarur edi. Buyuk Britaniyaning AQSH tarafida bo'lishi shubxasiz Yevropa Ittifoqining boshqa davlatlari norozligiga sabab bo'la boshladi.

Bler va uning izdoshlari Vashington siyosati bilan yaqindan hamkorlik qilish umidida 2004-yil dekabr oyida "jiddiy chaqiriqlar yili" deb baholangan katta sakkizlik davlat rahbarlariga o'z murojatini yubordi. Bu murojat The Economist gazetasida chop etdi. Bu chaqiriqdan ko'zlangan maqsad Yevropa va AQSH o'rtasida munosabatlarining yaxshilanishiga harakat qildi. Buning uchun Buyuk Britaniya bosh vaziri Toni Bler AQSH tarafi o'ziga hos bo'lgan tashqi siyosatdan birozgina chetlashgan holda boshqa davlatlar bilan munosabatda bo'lishi kerakligini takidlab o'tadi⁴⁹.

Buyuk Britaniya va AQSH o'rtasidagi aloqalarning yuragi deb harbiy sohadagi hamkorlik nazarda tutiladi. London AQSH bilan juftlikda o'z yadro qurolini saqlab qolish uchun yaxshi sharoit deb hisoblardi. AQSH o'z navbatida bundan Buyuk Britaniyani o'zining ishonchli hamkori sifatida Yevropa

⁴⁹ Романова О.В. Внешнеполитические стратегии Франции, Германии и Великобритании в контексте развития и имплементации ОБПБ ЕС: дис. ... канд. ист. наук: 23.00.04. Одесса, 2008. Ст.78.

davlatlariga soʻzini oʻtkazishda sherik deya bilardi. Bundan tashqari ikki davlat oʻrtasida razvetka jihatidan ham hamkorlik yoʻlga qoʻyilgan. Ikki davlatning razvetka qismlari bir biri bilan hamkorlida faoliyat yurutmoqda. AQSHning Buyuk Britaniya razvetkasi bilan hamkorligidan maqsadi u orqali Yevropada sodir boʻlayotgan maxfiy aloqalarni birinchilardan boʻlib bilish edi.

Leyboristlar hukumat tepasiga kelishi ingliz-amerika munosabatlarida yangi sahifa ochishiga sabab boʻldi. Ingliz-amerika munosabatlari yanada mustahkamlash maqsadida Bler har tomonlama AQSH siyosatini qoʻllashga kirishdi, dunyoda harbiy jihatdan ustun davlat sifatida AQSHni tan oldi. 1998-yil avgust oyida, 1997-yil yozida AQSH tomonidan Afgʻoniston va Sudanni bumbardimon qilinishini britan hukumati maqulladi. Bundan tashqari AQSH bilan birgalikda harbiy operatsiyalar oʻtkazishni maqsad qildi. 1998-yil 16-dekabrda amerika qanotli raketalari va Britaniya aviatsiyasi ‘Sahro tulkisi’ ishtirokida uch kun davomida Iroq hududlarini bombardimon qildi. Buyuk Britaniya AQSHning Iroqqa kuch ishlatishini tezda qoʻllab-quvvatladi. Boshqa davlatlar AQSHning bu siyosatini maqullamadi. 1999-yil fevral oyida Buyuk Britaniya harbiy aviatsiyasi Iroq obyektlariga zarba berdi. AQSH va Buyuk Britaniya 2000-yil iyun va avgust oylarida katta operatsiya oʻtkazildi. Bundan tashqari ikki davlat harbiylari oʻrtasida 2001-yilda ham juda yirik operatsiya oʻtkazildi. 2001-yilda AQSH va Buyuk Britaniya Iroq masalasida BMT Xavfsizlik Kengashida qatʼiy pozitsiyada turdi. Ular birgalikda Iroqqa iqtisodiy blokada siyosatini olib borilishi tarafdori edi. 2001-yil oktyabr oyida Buyuk Britaniya harbiylari AQSH harbiylari bilan birgalikda Afgʻonistondagi harbiy harakatlarda faol ishtirok etishdi.

Buyuk Britaniya 1999-yil martida NATOning Yugoslaviyaga qarshi olib borgan harakatlarida ishtirok etdi. Britaniya harbiy-havo kuchlari Yugoslaviyani bombardimon qilish ishlarida faol ishtirok etishdi. Buyuk Britaniya Yugoslaviyani qattiq jazolash tarafdori bolib, ularni har qanday taklifiga qarshi pozitsiyani egalladi.

1999-yil aprel oyida qabul qilingan NATOning yangi strategik konsepsiyasini Bler hukumati faol qo'llab-quvvatladi. Bu konsepsiyada ko'zlangan maqsad dunyonda tinchlikni saqlash nazarda tutilgan edi. "Gumanitar yordam" niqobi ostida AQSH o'z siyosatini amalga oshirishni ko'zlangan edi.

2003-yil 19-martda AQSH va Buyuk Britaniya qo'shinlari Iroq hududiga bostirib kirishdilar. Londonning alternativsiz qarori bor edi. U AQSHga faqatgina ma'naviy emas balki, harbiy yordamni ham amlaga oshirishga kirishdi. Bunday qarorni siyosatchilar nazarida Blerning shaxsiy qarori deya tariflaydi. Bler bu siyosatdan ko'zlangan maqsadi dunyo siyosatida o'zining pozitsiyasiga yetarli darajada ega bo'lish kerak edi. Shuni ko'zlangan holda harbiy harakatlarda o'z ishtirokini boshladi. London hukumati xalqaro huquq doirasidan chetga chiqmasdan harakatlarini davom ettirardi. Buyuk Britaniya va AQSH Iroqqa qilgan harbiy harakatlari vaqtida ikki davlat rahbarlari birgalikda ish olib borgan. Buni isboti sifatida ikki o'rtada 25 ta xat va 130 dan ortiq telefon suxbatlarini misol sifatida keltirib o'tishimiz mumkin. 2009-yilda Britaniya qo'shinlarining Iroqqa kiritilish holatini o'rganish maqsadida tuzilgan maxsus parlament komissiyasi bu xabar va maktublarni qo'lga kiritdi⁵⁰.

Buyuk Britaniya Iroq masalasida AQSHning pozitsiyasini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga harakat qildi. Bu esa NATO tarixidagi eng chuququr inqirozga olib kelishiga sabab bo'ldi. Buyuk Britaniya bunday siyosatni amalga oshirganligi sababli uning obrosi NATO doirasida ham tushub ketdi. BMT davlatlari ham Britaniya siyosatidan noroziligini yashirmadi. AQSHning eng ishonchli hamkoriga aylanganligi oqibatida Buyuk Britaniya Yevropa Ittifoqi davlatlari qarshiligiga ham uchradi.

Iroq urushida ishtirok etishi Buyuk Britaniyaning xalqaro maydondagi ahvolini ancha yomonlashuviga olib keldi. Buyuk Britaniyaning bunday

⁵⁰ Гусева, И. Великобритания [Текст]: [12+] / [авт. текста И. Гусева]. Москва: ИРЭКТ-Медиа: Комсомольская правда, 2014 –ст.67.

vaziyatdagi ahvoliga A.A. Gramiko o'z asarida shunday munosabatda bo'ladi, uning fikricha" AQSH bilan Buyuk Britaniyaning maxsus munosabatlari natijasida Yevropa davlatlari orasida Britaniyaning obro'sining tushub borishiga olib keldi" deya takidlaydi.

Toni Bler hukumat tepasida turgan vaqtda AQSH bilan munosabatni juda mustahkam darajada saqlab turushga harakat qildi. Bunga sabab AQSHning har tomonlama kuchliligi va iqtisodining baquvvatligi edi. Bler tashqi siyosatda AQSHning etagidan mahkam ushlab oldi. Buning natijasida o'zining qo'shnilari bilan munosabatlari ancha ziddiyatli ahvolga kelib qoldi.

2007-yil iyun oyida Buyuk Britaniyada hokimiyat tepasiga Gordan Braun kelgandan so'ng, tashqi siyosatda ham o'zgartirish amalga oshirilishini bayon qildi. 2007-yil 27-iyunda A.A.Terentev o'z maqolasida "Gordan Braun hukumat ichki va tashqi siyosatga yangicha yondashishini e'lon qildi" deya bayon qildi. Shunday bo'lsada hukumat tepasidagi shaxs o'zgargani bilan Buyuk Britaniyaning tashqi siyosatdagi harakatlari va maqsadi o'z holicha qolaverdi. Braun ham tashqi siyosatda AQSh bilan yaqindan hamkorlik olib borishni maqul dep topdi⁵¹.

Ikki davlat o'rtasida harbiy hamkorlik juda yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. Amaliy ma'noda Buyuk Britaniya uchun harbiy sohadagi hamkorlik mudofaa jihatidan ancha ahamiyatliroq edi. 1997-yil Pentagon va Buyuk Britaniya mudofaa vaziriligi o'rtasidagi hamkorlikning isboti sifatida 100 dan ortiq kelishuvlar amalga oshirildi. Bundan tashqari harbiy texnologiyalarni almashish maqsadida 30 dan ortiq loyihalar imzolandi. Harbiy ilmiy laboratoriyalarda ikki davlat olimlari hamkorlikda izlanishlar olib borishdi. Bundan tashqari AQSH Buyuk Britaniyadan ma'lum miqdorda qurol-yarog` sotib olayotgan edi. Bu qiymat 2000-yilga kelganda yiliga 350 mln dollarni tashkil qilmoqda edi.

⁵¹ Минаев М. В. Американо-британские отношения при правительстве Блэра//США - Канада: экономика, политика, культура. - 2008. - № 5. -ст.40.

AQSH 2000-yilda Buyuk Britaniyada harbiy sanoatni rivojlantirish maqsadida juda katta mablag`ni sarfladi. Misol sifatida Buyuk Britaniyada o`z faoliyatini olib borayotgan Lockheed Martin, General Dynamics va Northrop Grumman kompaniyalariga katta miqdorda investitsiya kiridi. Bundan tashqari 2001-yilda AQSH Buyuk Britaniyaning 27 ta harbiy mahsulot ishlab chiqarayotgan kompaniyalarining sotib oldi, ularning umumiy narxi 5,1 mlrd dollar miqdorida baholangandi. Bu Amerikaning chet elga mudofaa sohasida sarflayotgan investitsiyaning 50 % ga to`g`ri kelardi. Buyuk Britaniya AQSH ko`magida o`zining harbiy qudratini oshirib olishga harakat qila boshladi. Ikki davlat o`rtasida mudofaa maqsadida ko`zlangan bitm 2004-yilda 10 yil muddatga qaytadan imzolandi. 2006-yilda Buyuk Britaniya AQSH ko`magi ostida to`rtta yadroviy suv osti kemasiga ega bo`ldi.

Buyuk Britaniya va AQSH o`rtasida faqat harbiy yoki siyosiy darajadagi hamkorlik o`rnatilmasda iqtisodiy va madaniy aloqalar ham yaxshi yo`lga qo`yilgandi. Buyuk Britaniyada hukumat tepasida Toni Blerning kelishi bilan o`ziga eng ishonchli hamkorlardan biri sifatida AQSHni ko`ra boshladi. Ikki davlat o`rtasida iqtisodiy hamkorlik yildan yilgi kuchaya bordi. O`z navbatida AQSHning katta kompaniya egalari o`z mablag`larini Buyuk Britaniya iqtisodiga hech ikkilanmasdan sarflashmoqda edi. Amerkalik sarmayodorlar Britaniya sanoat kompaniyalarining aksiyalarini sotib ola boshladi. Buyuk Britaniya bozorlariga AQSHning maxsulotlari oqimi yildan yilga kirib kelishi ko`paya boshladi. Madaniy aloqalar sohasiga e`tibor qaratsak ikki davlatning ham tili bir bo`lganligi katta ahamiyat kasb etdi. Ikki davlat ham bir birini madaniyatiga hurmat ko`zi bilan qarashardi.

3.2. Angliya va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlar.

Buyuk Britaniya va YI. Buyuk Britaniyada konservatorlar o'rniga leyboristlarning hukumat tepasiga kelishi bilan xalqaro maydonda yangicha siyosat yuritila boshlandi. Bu davrda ham davlatda ko'pchilik Yevropa Ittifoqi bilan integratsiyasini qo'llab-quvvatlashardi. Bler YI ni kengayishini tarfdori sifatida maydonga chiqdi. U YI ni modernizatsiya qilish lozimligini ham takidlardi. Buyuk Britaniyaning AQSH bilan juda ham yaqinlashishi va Iroq urushida AQSH tomonidan turub faol ishtirok etishi sababli YI ichida unga qarshi bo'lganlar ko'paya boshladi. Fransiya va Germaniya unga qarshi qat'iy pozitsiyani egalladi.

Buyuk Britaniyada hukumat tepasiga Bler boshchiligidagi leyboristlar kelishi bilan Yevropa Ittifoqiga bo'lgan munosabatlar o'zgardi. Bler Yevropa zonasida yagona valyuta joriy qilinishiga qarshi pozitsiyani egallab kelmoqda edi. Buyuk Britaniya siyosatchilari ichida bu jihatga munosabat turlicha edi, ayrimlar YI bilan hamkorlikni mustahkamlash tarafdori bo'lishsalar, ayrimlar esa unga qarshi turardilar. Yevropga o'tish borasida ham mamlakat ichida turli munozaralar bo'lib o'tdi. Blerning qat'iy pozitsiyasi tufayli funt-serling o'z maqomini saqlab qoldi.

Bler hukumatida moliya vaziri bo'lgan Gordan Braun yevroga o'tishdan oldin avval besh jihat bo'yicha iqtisodni tekshirish kerakligini taklif qildi. 2003-yilda Buyuk Britaniya moliya vaziri o'z fikrini bildirdi. Uning fikriga ko'ra mamlakat iqtisodi yevroga o'tishga tayyor emas degan to'xtamga keldi. Braun hukumat tepasiga kelgandan keyin ham yevro masalasida o'zining qat'iy pozitsiyasini saqlab qoldi⁵².

2004-yil noyabr oyida YI ning navbatdagi majlisida yangi a'zolarining qabul qilinishi tufayli ko'plab davlatlar xavotirga tusha boshladi. Bu davlatlar qatorida Buyuk Britaniya ham bor edi. Ularning xavotirga tushishiga sabab Yevropaning

⁵² Валуев, А.В. "Новая" Великобритания и Европейский Союз: вызовы глобального мира [Текст] / А. В. Валуев. Санкт-Петербург: Инфо-да, 2010 – ст.133.

sharqiy hududlaridan ko'p miqdorda ishchi kuchining kirib kelishi edi. Bunga qarshi Buyuk Britaniya hukaumati chetdan kelayotgan muhojirlarning sonini cheklash siyosatini amalga oshira boshladi. Buyuk Britaniya Sharqiy Yevropa davlatlaridan kelayotgan ishchi kuchini cheklangan miqdorda o'z hududiga kirish siyosatini maqul deb tanladi.

2009-yilda Lissabon shartnomasi kuchga kirdi. Bu shartnomaga ko'ra barcha YI a'zolari o'rtasidagi munosabatlar samimiy bo'lishi kerakligi belgilab qo'yilgandi, tanqidchilar bayon qilishicha bu shartnoma Yevropa federalizmiga qo'yilgan ochiqdan ochiq qadam edi. Buyuk Britaniya qit'adan alohida bo'lganligi va yevrodan holi zona sifatida bunga qarshi chiqdi. U YI tomonidan ishlab chiqilgan xartiyani maqullamadi. Buning natijasida ikki taraf o'rtasida qarama-qarshilik kuchaya boshladi.

Yevropa integratsiyasi jarayonida Buyuk Britaniyaning ishtirok etishi juda katta ahamiyat kasb etardi. 1997-yilda leyboristlar hukumat tepasiga kelishi oqibatida ikki o'rtadagi munosabatlarda o'zgarishlar bo'la boshladi. Yangi hukumat YI bilan konstruktiv hamkorlikni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Bler nazarida Buyuk Britaniya YI da yetakchi bo'lishi kerak va buning uchun u har qanday vaziyatda ham o'zining alohida pozitsiyasini egallashi lozim edi. Bler shunday fikrni olg'a surdi. Unga ko'ra Buyuk Britaniya tashqi siyosatda AQSH yoki YI dan birini tanlashi kerak emas, balki YI bilan hamkorlikni kuchaytirsan o'z navbatida AQSH bilan munosabatlar mustahkamlanib boradi degan edi⁵³.

Saylovda g'olib bo'lishgach leyboristlar saylovoldi bergan va'da larini bajarishga kirishib ketdi. Ular o'z oldiga qo'ygan maqsadlaridan eng muhimi davlatning "Yevropaga qaytishi" ni taminlashi kerak edi. 1997-yil may oyida yangi tashqi siyosat yuritish dasturi ishlab chiqildi. Unga ko'ra asosiy maqsad davlatning Yevropa integratsiyasida yanada faol ishtirokini taminlash ko'zda tutilgandi. Bu

⁵³ Крушинский В.Ю. Великобритания в европейских интеграционных процессах: автореф. дис. – полит. 23.00.04. Киев, 2004. 32 с.

dasturda faol Yevropa siyosati, kuchli transatlantik alyans, effektiv milliy mudofaa, erkin savdo, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va zamonaviy global xavfga qarshi birgalikda kurashish nazarda tutilgandi. Bler va uning hukumat a'zolari yevropa siyosati strategiyasini ishlab chiqdi, unga ko'ra asosiy yo'nalishi Buyuk Britaniyani YI ga yaqilashuvi aks etgandi. Bu dasturda yana Britaniya boshchiligida Yevropa Ittifoqining siyosatini o'zgartirish ham nazarda tutilgandi.

Buyuk Britaniyaning YI da raisligida 1998-yilning birinchi yarimida asosiy maqsad unga a'zo bo'lgan davlatlar bilan munosabatlarini tartibga solish va o'sha davlatlarda yashayotgan aholining ehtiyojlarini inobatga olgan holda siyosat yuritishdan iborat edi. Asosiy e'tibor ish bilan taminlash, jinoyatchilikka qarshi faol kurashish, atrof-muhitni himoya qilish, qishloq xo'jaligini tartibga solish va YIning qisodiy imkoniyatlarini oshirish maqsadida islohotlarni o'tkazishdan iborat bo'ldi. Blerning birinchi boshqaruv davrida ikki marta YI munozaralarda ishtirok etdi. Bu uchrashuvlar Amsterdam va Nitssada bo'lib o'tdi. Bler boshchiligidagi leyboristlar hukumati Yevropa Ittifoqi shartnomasiga zaruriy o'zgartirishlarni kiritish kerakligini takidhladi. Bunda YI da qaror qabul qilish jarayoni tartibga solish va YI dagi uchta muammoni hal qilish kerakligi ko'zda tutilgandi⁵⁴.

Buyuk Britaniyada parlament saylovlaridan atigi bir oy o'tgandan keyin YI ning Amsterdamdagi yig'lishi boshlandi. Bu uchrashuvda yangi shartnoma imzolandi. Bu shartnomaga ko'ra Buyuk Britaniya ham ish haqini ittifoqdagi boshqa davlatlardagi normalarga moslashtirish majburiyatini oldi. Bu uchrashuvda Yevropa mudofaa tizimi to'g'risidagi masala ham o'rta tashlandi. Buyuk Britaniya bu tizimga qo'shilmasligini va o'z hududini o'zi nazorat qila olishini takidlab o'tdi. Leyboristlar uchun eng qiyin muammo sifatida iqtisodiy aloqalar va valyuta masalasi bo'ldi. Hukumat tepasiga kelganidan keyin ular mamlakatni yevro zonasiga tortish kerakmi yoki yo'qmi degan savol yuzasidan bir qancha vaqt

⁵⁴ Валуев, А.В. "Новая" Великобритания и Европейский Союз: вызовы глобального мира [Текст] / А. В. Валуев. Санкт-Петербург: Инфо-да, 2010 – ст.135.

davomida ikkilanib qolishdi. Bler boshchiligidagi leyboristlar yevroga o'tishni ortga surishga harakat qila boshladi. Bu masala yuzasidan mamalakatda referendum o'tkazilishi lozimligini takidladi. Bler va Braun o'rtasida bu masala xususida anglashilmovchilik ham kelib chiqdi. Shunday bo'lsa ham yevro zo'naga o'tish masalasi bo'yicha referendum o'tkazilishini Bler ortga surub kelardi. Leyboristlarning birinchi va ikkinchi hukumati vaqtida ham bu referendum o'tkazilmadi. 2005-yilda leyboristlar partiyasi yana parlament saylovlarida g'alabaga erishdi. Lekin bu safar ham leyboristlar hukumati mamlakatda yevroga o'tish to'g'risidagi referendum o'tkazilmasdan qolmoqda edi.

Yevropa Ittifoqining kengaytirish borasidagi masala juda ham ko'p munozoralarga sabab bo'ldi. Buyuk Britaniya an'anaviy tarzda o'z pozitsiyasiga sodiq qolgan holda kengayishni maqulladi. YI ning kengayishi natijasida bir qancha o'zgarishlar ham bo'lishi lozim edi. Germaniya va Buyuk Britaniya tomonlari turli takliflarni olg'a surishdi. 2000-yil yozida Germaniya tashqi ishlar vaziri Yoshka Fisher va Jak Shiraklar tomonidan yangi loyiha taqdim etildi. Bler bu masala bo'yicha Buyuk Britaniyaning pozitsiyasini shu yilning oktyabr oyida ma'lum qildi. Germaniya tomoni o'z taklifida YI tarkibidagi milliy davlatlarni kelgusida federatsiyaga aylantirish o'rin olgandi. Bler esa bunga qarshi o'z taklifini bildirdi, unga ko'ra YI da yana bir qancha bo'linmalar tashkil etilishi va Yevroparlamentda milliy davlatlardan vakillar ishtirok etishi, milliy qonunchilik tizimini erkinligini saqlab qolishni nazarda tutgandi. Bundan tashqari Yevrokommissiya vakolatlarini cheklash, chunki YI doirasidagi qarorlar milliy hukumatlar tomonidan qabul qilinishi zarur edi. Buyuk Britaniya tomoni YIning davlatlarning ichki ishlariga juda ko'p aralashishlarini qoralab chiqadi⁵⁵.

Yangi leyboristlarning ikkinchi hukumati faoliyati davrida Buyuk Britaniya Yevropa integratsiya yo'lida faol harakat olib bordi. Bu davrga kelganda harakat

⁵⁵ Кузьмичёва Л.О. Великобритания и европейская интеграция: подход британских лейбористов (1988–2001 гг.): дис. ... канд. ист. наук: 07.00.03. М., 2005.ст.232.

umuman boshqa yoʻnalishda roʻy berdi. Chunki bu vaqtda Buyuk Britaniyaning AQSH bilan oʻrnatilgan maxsus aloqalari sababli boshqa yoʻldan borishga sabab boʻldi. YI davlatlari bilan iqtisodiy aloqalar ancha rivojlandi. Blerning tashqi siyosati shu qadar rang-barang ediki, hech kim tushuna olmasdi. Shunday boʻlsa ham, Bler YI da davlatlarning milliy mustaqilligi saqlanib qolishi tarafdori boʻlib qolaverdi.

Buyuk Britaniya Yevropa siyosatida yangi muammonga duch kelishi 2005-yilning yoziga toʻgʻri keladi. Bu vaqtda Buyuk Britaniyada navbatdagi parlament saylovlari boʻlib oʻtdi. Leyboristlar partiyasi saylovoldi kampaniyasida saylovchilar nigohini YI bilan munosabatlarni yaxshilashga qaratdi. 2005-yilning ikkinchi yarim yilida Buyuk Britniya YI da raislik qilish huquqiga ega boʻldi. Bu natijasida Buyuk Britaniya YI davlatlari bilan oʻrtadagi ziddiyatlarni bartaraf qilishi mumkin edi. Lekin YIning yetakchi davlatlari birinchi navbatda Fransiya va Germaniya qarshiligiga duch keldi. Chunki ular Buyuk Britaniyani Xalqaro maydondagi “oʻyinchi davlat” sifatida koʻrardi⁵⁶. Shunday boʻlsada leyboristlar federatsiya tizimiga qatʼiy qarshi chiqishdi. YI da yangi konstitutsiyasi masalasida munozarali vaziyat paydo boʻldi. Buyuk Britaniya bu konstitutsiyadagi ayrim bandlariga qarshi fikr bildirdi. Mashxur fransuz siyosatchi Jiskar de Esten fikriga qaraganda kelajakda Yevropa Ittifoqi milliy federatsiya tizimiga oʻtishi mumkin edi. Buyuk Britaniya bunga qarshi qatʼiy pozitsiyada turdi. Buyuk Britaniya tashqi ishlar vazir Jek Stro jamoa palatasida bu hujjatning maʼnosini soʻzlab berdi. Bu hujjatda bayon qilinishicha milliy davlatlarga bir qancha imkoniyatlar ham berilgandi. Undan tashqari qanday hollarda davlatlarning YI tarkibidan chiqib ketish mumkinligi aytilgandi.

⁵⁶ Морозов А.М. Факторы формирования политики Великобритании в отношении ЕС: Автореф. дисс... канд. полит. наук. - М., 2008. - <http://www.ieras.ru/diss4.htm>

2007-yil 2-oktyabrda Buyuk Britaniya parlamentining jamoa palatasi deputatlari YI faoliyati masalasida muzokara o'tkazdi. Bunda deputatlar YI ga raislik qilayotgan Germaniyaning ish olib borish uslubidan norozi ekanligini bildirib o'tishdi. Bundan tashqari YI ni isloh qilish masalasida referendum o'tkazilishi zarurligini takidladi. Buyuk Britaniya bosh vaziri Braun Lissabon samiti oldidan bir qancha masalalarga duch keldi. Bular tashqi siyosat, soliq va ichki siyosat edi. Bundan tashqari referendum o'tkazilishi ham ko'ndalang bolib qoldi. Braun bunday vaziyatda qanday yo'l tanlash kerakligi bilmay ikkilanib qoldi. Muxolifatda turgan konservatorlar partiyasi yetakchisi Devid Kameron va Yevroparlament deputati T. Kirkxounlar qarshiligiga uchradi. Buyuk Britaniyada YI konstitutsiyasi masalasida o'tkazilishi kerak bo'lgan referendum masalasi hali ham ochiq qolmoqda edi. Leyboristlar partiyasining vakillari bunga qarshi bo'lsalarda konservatorlarning tayziqi bilan bu masalani ijobiy hal qilishga harakat qilishdi. Oxir oqibat Lissabon shartnomasini jamoa palatasi muhokamasiga qo'ydi. 2008-yil yanvar oyida parlamentning jamoa palatasida bu shartnomani ikkinchi o'qishda maqullandi⁵⁷.

Buyuk Britaniyaning Fransiya va Germaniya bilan munosabatlari Yevropa yo'nalishida muhim ahamiyat kasb etardi. Buyuk Britaniyaning Fransiya bilan munosabatlarining yaxshilanishi Jon Meyjor va Toni Bler davridan boshlangandi. Ingliz-fransuz aloqalari yildan-yilga yaxshi tomonga o'zgarib bora boshladi. Ikki davlat o'rtasidagi masofa unchalik uzoq emasligi ham bunga ijobiy ta'sir o'tkazdi. Biroq, 2002-2003-yillardagi Iroq inqirozi va 2005-yildagi YI da vujudga kelgan agrar islohotlar ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni boshi berk ko'chaga olib kirdi. Bundan tashqari Buyuk Britaniyaning YI budjetiga to'laydigan badal miqdorining oshirilishi tarafdori bo'lgan va bunga erishgan Fransiya bo'lganini bilgandan so'ng ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar sovuqlashib ketdi. Bundan

⁵⁷ Кузьмичёва Л.О. Великобритания и европейская интеграция: подход британских лейбористов (1988–2001 гг.): дис. ... канд. ист. наук: 07.00.03. М., 2005.ст.235..

tashqari Fransiya Buyuk Britaniya tashqi siyosatda AQSHning “dumi” kabi harakat qilishiga ham qarshi edi.

Bu davrda Buyuk Britaniya va Germaniya oʻrtasida uzviy aloqalar oʻrnatilgan edi. Biroq Iroq masalasida Buyuk Britaniyaning AQSH tarafida turishi ikki davlat oʻrtasidagi munosabatlarning sovuqlashuviga sabab boʻldi. Buyuk Britaniyaning bunday siyosat olib borishi natijasida YI ning yetakchi davlatlari bilan munosabatlari yomonlasha boshladi.

Buyuk Britaniya YI siyosatiga tegishli boʻlgan har bir masalada oʻz pozitsiyasida turardi. YI ning tashqi siyosati va xavfsizlik choralarini kuchaytirish tarafdori edi. U birdaniga emas asta-sekin oʻzgartirishini maqullardi. Bunday islohotni amalga oshirish uchun har tomonlama puxta tayyorgarlik koʻrish kerak deb takidlardi. Buyuk Britaniya Yevropa hududida xavfsizlik choralarini kuchaytirishni maqullardi, lekin NATO dan voz kechishga qashi edi. Toni Bler fikriga qaraganda NATO Yevropada xavfsizlikni taminlay oladi, shunday boʻlsada mudofa tizimini kuchaytirishga chaqirdi. 1998-yil oktyabr oyida YI ning aʼzo davlatlarining Portxashdagi norasmiy uchrashuvida bu haqida oʻz fikrini bildirdi. Toni Bler soʻzga chiqib mustaqil Yevropa mudofaa tizimini rivojlantirish haqida oʻz fikrlarini bildirib oʻtdi. Tarixchi V.Romonova oʻz asarida bu haqida shunday fikr bildiradi, “Buyuk Britaniyaning tashqi siyosatda bunday pozitsiyasining oʻzgarishi T. Blerning shaxsiy nigohi va siyosiy uddaburonligi bilan bogʻliqdir, u Yevropa integratsiyasida faol ishtiroki oʻz davlati uchun foydali ekanligini yaxshi bilardi, shu bilan birgalikda mudofa tizimini qoʻllashi davlatlar oʻrtasidagi munosabatlarni yaxshilashiga sabab boʻlishini yaxshi tushinardi”.

Leyboristlar hukumati ikki tomonlama tashqi siyosat olib bordi. Bir tomondan Yevropa mudofasini qoʻllab quvvatlasa, ikkinchi tomondan unga qarshi harakat olib borardi. Buyuk Britaniyalik L. Pond tomonidan Yevropa mudofa tizmi boʻyicha olib borgan tekshiruvlari natijasida YI armiyasini tuzishga qarshi chiqdi..

Shunday qilib, Buyuk Britaniyaning yangi rasmiy pozitsiyasi umumiy tashqi siyosatga oʻzgartirishlar kiritilishiga olib keldi. 1998-yil dekabr oyida Sen-Mano

shahrida Buyuk Britaniya va Fransiya xabarlari uchrashuvi bo'lib o'tdi. Bu uchrashuv davomida Bler o'zining YI mudofaa tizimiga bo'lgan munosabatini o'zgartirgalligini bildirib o'tdi⁵⁸. Bler bundan tashqari AQSh bilan hamkorligini har qanday sohada mustaxkamlash tarafdori ekanligini takidladi. Buyuk Britaniya NATO ning mustaxkamlash tarafdori sifatida chiqdi.

Britaniya siyosatchilari 2003-yilning ikkinchi yarmida Yevropa mudofaa tizimiga munosabati o'zgarab boshladi. Shu yilning sentyabr oyida YI dagi uchta yirik davlatlar rahbarlari uchrashuvi bo'lib o'tdi. Bu uchrashuvda Germaniya tomonidan Gerxard Shroyder, Fransiya tomonidan Jak Shirak va Buyuk Britaniya nomidan Toni Blerlar ishtirok etishdi. Bu uchrashuvdan iborat Yevropa mudofaa tizimini yaratish masalasida edi. Bu uchrashuvda Germaniya va Buyuk Britaniya tarafi NATO ishtirokisiz ham Yevropada operatsiyalarni amalga oshrilishi mumkinligi edi. Bu kelishuv ko'pgina britaniyalik va amerikalik siyosatchilarni lol qoldirdi. 2003-yilning 16-oktyabrda Buyuk Britaniya mudofaa vaziri bayonat berishicha Bler YI mudofaa tizimini to'liq qo'llab-quvvatlamadi. Natijada shu kuni kechqurun Fransiya tashqi ishlar vaziri Dominik de Vilken Bi Bi Si radiosi orqali nutq so'zladi. Shunday bo'lsada, Buyuk Britaniya o'zining "sodiq"hamkori bo'lgan AQSH dan voz kechishni istamadi⁵⁹.

Buyuk Britaniya hukumat tepasida turgan leyboristlar partiyasining birinchi muddatdagi boshqaruvi davrida YI bilan yaqinlashuvi ko'zga tashlangan bo'lsa bu bir qancha sohalarda namoyon bo'ldi. Bler YI ning bir qancha qarorlarini qo'llab-quvvatladi. Leyboristlarning ikkinchi boshqaruvi yakunida ma'lum bo'lib qoldiki, YI bilan bo'lgan munosabatlar shunchaki ahamiyatsiz bo'lib chiqdi. Buyuk Britaniyaning AQSH bilan o'rnatilgan mustaxkam aloqalari natijasida YI bilan munosabatlarni rivojlantirish orqaga qarab keta boshladi.

⁵⁸ Яковенко Н.Л. Великобритания в современной системе международных отношений: заявка на евро-пейское лидерство. Киев: Науковий світ, 2003.ст.124.

⁵⁹ Яковенко Н.Л. Великобритания в современной системе международных отношений: заявка на евро-пейское лидерство. Киев: Науковий світ, 2003.ст.128.

3.3.Angliya-Rossiya munosabatlari.

XX asr oxirgi o'n yilligi va XXI asr boshlarida Angliya Rossiya bilan bo'ladigan siyosatini o'zgartirishga majbur bo'ldi. Angliya tashqi siyosatida AQSH bilan hamkorlikda uzviy harakat qilishga urundi. Ingliz diplomatiyasi YI bilan bo'lgan munosabatlarda ham ajralib turar edi. Hukumatga kelgan leyboristlar AQSH bilan ittifoqchilikni kuchaytirdi. Leyboristlar yetakchisi T. Bler Bolqon mojarasida va Iroqqa qarshi urushda to'ligicha AQSH tarafidan turishga harakat qildi. U Yugoslaviyadagi NATO ning agressiyasini qo'llab quvvatlabgina qolmasdan balki, ba'zi bir voqealarda ishtirok hamda tashabbuskorligi bilan ajralib turdi.

Shunga qaramay Buyuk Britaniya aholisining 71 % fikriga qaraganda Iroqdagi harbiy harakatlarga "Kuyub bo'lmas avantyura" deb baho berdi⁶⁰. Angliya va Rossiya siyosatiga kelsak, ikki o'rtadagi aloqalar oxirgi yillarda sezilarli darajada o'zgardi. Keltirilgan ba'zi bir manbalarga ko'ra, ingliz iqtisodiyotiga kirib kelayotgan mablag` 8 mlrd dollarni XX asrning so'ngi o'n yilligida Rossiya tomonidan kiritilgan edi.

2000-yilda Moskvada T. Bler va Rossiya prezidenti Putin uchrashuv o'tkazishdi. Angliya Rossiyaning iqtisodiga qiziqish bilan qaray boshladi, bu ayniqsa energiya resurslari va mahsulotlariga bo'lgan qiziqishni oshirib yubordi. Ikki davlat Iroq masalasida ikki tarafda turushiga qaramay ikki davlat o'rtasidagi aloqalarda hech qanaqa muammo yuzaga kelmadi. 2003-yilda Rossiya prezidenti V. Putin rasmiy davlat tashrifi bilan Buyuk Britaniyaga tashrif buyurdi. Bu uchrashuv davomida ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashuviga, ular o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning birmuncha kengaytirishga ham alohida e'tibor qaratdi. Ikki davlat neft kompaniyalarining hamkorligini yanada rivojlantirishga kelishishdi. Angliya rus neft mahsulotlari

⁶⁰ Давитсон А.Б. На путях взаимопонимания // Россия и Британия. Вып. 5. На путях к взаимопониманию / Отв.ред. и сост. А.Б. Давидсон. - М.: Наука, 2011.

ishlab chiqarish kompaniyalariga 10 mlrd dollar miqdorida sarmoya kiritishga rozilik berdi.

London Rossiya bilan munosabatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratardi. Buyuk Britaniya tashqi siyosatida parchalangan Sobiq Ittifoq davlatlari bilan ham aloqalarni yaxshilashga alohida e'tibor qaratdi. Ingliz hukumati Rossiya boshchiligida tuzilgan yangi sovet ittifoqiga ham alohida munosabatda bo'ldi. Hukumatning tashqi ishlar bo'yicha vaziri ser Nikolos Bonsor o'z qaydnomasida "Rossiya bilan ikki tomonlama munosabatlarni yaxshilash"ni alohida keltirib o'tadi⁶¹.

Ikki davlat o'rtasida iqtisodiy hamkorlik mustahkamlanib, Rossiyaning ayrim oblastlari bilan Buyuk Britaniyaning ayrim shaharlari o'rtasida ham iqtisodiy aloqalar o'rnatildi. Rossiya bozor iqtisodiyotiga o'tishda Buyuk Britaniya ham o'z yordamini berdi. Bunga misol sifatida energetika, qishloq xo'jaligi, moliya sohasi, kichik biznesni rivojlantirish va shu sohaga aloqador bo'lgan kadrlar tayyorlashga ham yordam berdi.

Angliya va Rossiya tashqi siyosatda ham nisbatan bir biriga qarama-qarshi pozitsiyada turardi. Rossiya tomoni NATOni sharqa qarab kengayib borishiga qarshi chiqdi va bu masala yuzasidan ikki o'rtada bir necha muzokoralar bo'lib o'tdi. Bu davrda NATO Yevropada barqarorlikni ushlab turgan kuch sifatida qaralardi. Buyuk Britaniya o'z vaqtida ongli ravishda islohotlar o'tkazilishi tarafdori edi. Buyuk Britaniyaning qarashicha sovuq urush tugagandan keyin dunyoda bo'layotgan hududiy mojoralarning o'sib borishi, terorizmning shiddat bilan tarqalayotganligi, ommoviy qirg'in qurollar bularning hammasi dunyo tinchligiga xavf solmoqda edi.

1997-yil fevral-mart oylarida Rossiya tashqi ishlar vaziri E. M. Pirimakov Londonga rasmiy tashrif bilan boradi. Uning tashrifidan ko'zlangan asosiy maqsad

⁶¹ Валеева Р. Р., Гришин Я. Я. Российско-британские отношения в период правительства Г. Брауна//Учёные записки Казанского государственного университета. - Серия: Гуманитарные науки. - 2010. - Т. 152. - Т. 3. - Ч. 2. – ст.232.

NATO ning sharqqa tomon kengayib borishi masalasini ikki davlat muhokama qilishdan iborat edi. NATOning kengayishi Yevropada yangi bo‘linish chiziqlarini paydo bo‘lishiga olib kelardi va natijada barqaror hayot darajasi orqaga qarab ketishini kuzatishi mumkin deb qaraldi.

Ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning rivojlanishiga Angliyaning Rossiya ichki ishlariga aralashganligi ham to‘siq bo‘ldi. Misol sifatida Rossiyadagi Chechiniston muammosiga Britaniyaning aralashuvi va bu yerdagi jangarilarni qo‘llab-quvvatlashi ham munosabatlarning yomonlashuviga sabab bo‘ldi. Angliya Rosiyaning chechenlarga olib borgan harakatlarini Yevropa davlatlari aytganidek inson huquqlarining paymol qilinishi deb baholadi. 2004-yilda avgust-sentyabr oylarida “ Beslan” terorchilik guruhi tomonidan amalga oshirilgan harakatlarga ham salbiy fikr bildirmadi.

XX asr oxirida iqtisodiy munosabatlar ancha rivojlandi. 1993-1997-yillarda Rossiya va Buyuk Britaniya savdo-iqtisodiy munosabatlari yetarli darajada rivojlandi. Bunga ikki davlat rahbarlari tomonidan iqtisodiy aloqalarga tegishli bo‘lgan shartnomalarning imzolanganligi sababli huquqiy sharoitning yaratilganligi bo‘ldi. Buning natijasida ikki davlat ishbilarmonlari yetarli darajada erkinligi taminlandi. XX asrning 90-yillari o‘rtalarida Rossiyaning Buyuk Britaniya bilan tovar aylanmasi daromadi bir yilda 4 mlrd dollarni tashkil etadi. Savdo balansi saldosi Rossiya uchun ancha qoniqarli edi. 1997-yil yakuniga ko‘ra R.F.D.S.Q (Rossiya Federatsiyasi Davlat Sovdo Qo‘mitasi) hisob kitoblariga ko‘ra Rossiya va Buyuk Britaniya o‘rtasida amalga oshirilgan savdo hajmi 4,3 mlrd dollorni tashkil qilganligini bayon qildi, shundan 2,8 mlrd dollari eksportdan, 1,5 mlrd dollari import hisobiga to‘g‘ri kelardi⁶².

Buyuk Britaniya Rossiyadan import qiladigan mahsulotlariga qaraydigan bo‘lsak, asosiy o‘rida yoqilg‘i xomashyolari, neft va neft mahsulotlari, olmos va qimmatbaho metallar, kimyoviy moddalar, rangli va qora metallar, o‘rmon va

⁶² Гусаров Ю.А. Восприятие России в Великобритании // Актуальные проблемы Европы: Сб. научных трудов. - М., 2008. - № 3: Россия и Европа: особенности взаимного восприятия. – ст.121.

selyuza qog`oz mollari yetakchilik qilardi. Bu mahsulotlar Buyuk Britaniya sanoat kompaniyalari uchun kerakli mahsulotlar qatoriga kirardi.

Buyuk Britaniyadan Rossiyaga qilinayotgan importga qaraydigan bo`lsak, bular kimyoviy metal ishlab chiqaruvchi, poligrafik tekstil uskunalari va anjomlari yuqori o`rinda turardi. Bundan tashqari sanoat kompaniyalariga kerak bo`ladigan asbob-uskunalar va keng iste`mol mollariga ham talab yuqori edi.

1998-yilda Rossiyaning Buyuk Britaniyaga qilgan eksportida asosiy o`rinda neft va neft mahsulotlari turardi. 1996-1997-yillarda ikki davlat o`rtasidagi savdoda olmosga bo`lgan talab tushub ketdi. 1998-1999-yillarga kelganda olmos savdosi ham anchagina ko`tarildi, bunga sabab sifatida Rossiyaning Buyuk Britaniyaga tegishli bo`lgan “De Bris” kompaniyasi bilan shartnoma imzolaganligi sabab edi. Bu kompaniya ikki davlat o`rtasidagi olmos savdosini tartibga solib turdi.

XXI asr boshlarida Rossiya va Angliya munosabatlari. 2000-yilda Moskvada Rossiya prezidenti V. Putin bilan Buyuk Britaniya bosh vaziri T. Bler o`rtasida navbatdagi uchrashuv bo`lib o`tdi. Bu uchrashuvda ham iqtisodiy aloqalarining yanda rivojlantirishga ayniqsa energetika resurslari va xomashyoga bo`lgan qiziqish birinchi o`rinda turdi. Bu uchrashuvda yana ikki davlat hamkorlikda xalqaro terrorizimga qarshi kurashish, giyohvand maddalari savdosini taqiqlash va shunga o`xshagan bir qancha bitmlar imzolandi.

2003-yil 24-27-iyun kunlari Rossiya prezidenti Putin va Buyuk Britaniya bosh vaziri Bler bilan navbatdagi uchrashuvi bo`lib o`tdi. Rossiya rahbari bu safar rasmiy tashrif bilan Buyuk Britaniyaga tashrif buyurdi. U tashrif chog`ida qirolicha Yelizaveta II bilan shaxsan uchrashdi<sup>63</sup>. Davlat bosh vaziri Toni Bler bilan muzokaralar olib bordi. Bu tashrif davomida Putin bir nechta diqqatga sazovar joylarga bordi. Ikki o`rtada turli xil masalalar yuzasidan muzokaralar bo`lib o`tdi.

⁶³ Валеева Р. Р., Гришин Я. Я. Российско-британские отношения в период правительства Г. Брауна//Учёные записки Казанского государственного университета. - Серия: Гуманитарные науки. - 2010. - Т. 152. - Т. 3. - Ч. 2. – ст.236.

Ikki davlat o'rtasida siyosiy aloqalarni yanada mustahkamlash, iqtisodiy, madaniy aloqalarni ham rivojlantirishga kelishib olindi. Ikki o'rtada 20 dan ortiq hujjatlar imzolandi. Rossiya tomoni ikki o'rtadagi iqtisodiy aloqalarini yanada rivojlantirish maqsadida o'z hududida ingliz investitsiyasiga yaxshi sharoitlar yaratib berish majburiyatini oldi. Davlat bu soha nazoratini o'zi olib borishini aytib o'tdi.

Buyuk Britaniya va Rossiya rahbarlari o'rtasida navbatdagi uchrashuvlarda ham ikki tomon o'z manfaatlarini himoya qilib chiqdi. 2009-yilda Rossiya prezident D. Medvedev bilan Buyuk Britaniya bosh vaziri G. Braun o'rtasidagi uchrashuv G 20 samiti doirasida bo'lib o'tdi. Bu uchrashuv chog'ida boshlangan jahon iqtisodiy inqirozi sababli iqtisodiy aloqalar sezilarli darajada zarar ko'rganligini inobatga olgan holda, ikki o'rtadagi iqtisodiy hamkorlikni yanda mustahkamlashga kelishib olishdi.

2009-yil aprel oyida Londonda ikki davlat rahbarlarining navbatdagi rasmiy uchrashuvi bo'lib o'tdi. Tokio shahrida G8 davlatlarning navbatdagi yig'ilishida yana ikki davlat rahbarlari uchrashuvi amalga oshirildi. Bundan tashqari 2008-yilda Akvilda G 8 davlatlarining navbatdagi uchrashuvi arafasida Buyuk Britaniya va Rossiya davlat rahbarlarining uchrashuvi amalga oshirildi.

XXI asrga kelganda Buyuk Britaniya boshqaruv aparati bilan Rossiya boshqaruv aparati o'rtasida to'gridan to'g'ri aloqa o'rnatildi. 2008-yil 15-yanvarda Moskvada Buyuk Britaniya bosh vaziri maslahatchisi va tashqi va mudofaa sohalari vakili bo'lgan S. Mokdanold ham keldi. U Rossiya prezidentini yordamchisi bo'lgan S.E. Prixodko, tashqi ishlar vaziri o'ribosari V.G. Titov o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tadi. "Mejmid dialogi" muzokaralar natijasida qo'llab-quvatlanadi.

2009-yil 2-noyabrda Rossiya tashqi ishlar vaziri S.V. Lavrov va Buyuk Britaniya tashqi ishlar vaziri D.Milidend uchrashadi. Bu uchrashuv Moskvada bolib o'tdi. Bu uchrashuvda ikki davlatga oid bir qancha masalalar muhokama qilinadi. Ikki davlat tashqi ishlari ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning yanada rivojlantirish muamolari muhokama qiladi. Bu uchrashuvda ikki o'rtadagi

munosabatlarga to'siq bo'layotgan muamolarni ko'rib chiqdi. Rus-ingliz munosabatlarida saqlanib kelayotgan ma'lum muammolarni yechimini izlashga harakat qilib ko'rishdi. Bu uchrashuv natijasida bir qancha shartnomalar qaytadan ko'rib chiqildi va yangi shartnomalar ham imzolandi.

2010-yil 20-iyulda Qobulda Afg'oniston bo'yicha bo'lib o'tgan konferensiyada Rossiya tomonidan tashqi ishlar vaziri S.V. Lavrov va Buyuk Britaniya tomonidan tashqi ishlar vaziri U. Xeyg o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tadi. Bu uchrashuv chog'ida tomonlar rus-britan munosabatlarida yuzga kelgan holat va xalqaro ahvol xususida o'zro fikr almashishdi⁶⁴.

2001-yilda Rossiyada Ingliz va Eston maxsus xizmat vakili Valeriy Oyamyahibsga olinadi va sud qilinadi. 2004-yilda Rossiya maxsus xizmat sobiq ofitseri qo'lga olindi, u ko'p yillar davomida ingliz razvetkasiga ishlab kelgan edi. 2006-yilda uning ustidan sud jarayonlari olib borilib, uni Buyuk Britaniya josusi sifatida bilib, Rossiyaga tegishli bo'lgan davlat sirlarini sotishda ayblaydi va uni 13 yilga ozodlikdan mahrum qiladi.

2007-yilda Rossiyada sobiq politsiyachi Vyacheslav qo'lga olindi. U ingliz hukumatiga josuslik qilganini tan oldi.

Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtasidagi munosabatlar XX asrning 90-yillarida har taraflama yaxshi ma'noda rivojlana bori. Xususan, Buyuk Britaniya qirolichasi Yelizavrt II ning Moskvaga rasmiy tashrifi ancha ahamiyatga ega bo'ldi. 2002-yil iyul oyida Rossiyaga malika Beatris va gersog Kent tashrif buyuradi. 2003-yilda 13-16-iyulda Britaniya qirolligi taxt vorisi bo'lgan Uels shahzodasi Charlz ham tashrif buyuradi, uning tashrifi Sankt-Peterburgning 300 yillik bayramiga to'g'ri keladi. Bu kabi qirollik oilasi vakillarining Rossiyaga tashrif buyurishlari ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanganligidan dalolat edi.

⁶⁴ Валеева Р. Р., Гришин Я. Я. Российско-британские отношения в период правительства Г. Брауна//Учёные записки Казанского государственного университета. - Серия: Гуманитарные науки. - 2010. - Т. 152. - Т. 3. - Ч. 2. – ст.241.

2008-yil avgust oyida Gruzija bilan Rossiya o'rtasidagi mojoro rus-britan munosabatlarining yomonlashuviga olib keldi. Buyuk Britaniya rasmiy ravishda Gruziyani qo'llab-quvvatladi. Bu esa Rossiyaning qat'iy noroziligiga sabab bo'ldi. Buyuk Britaniya Rossiyaning Guruziyaga qarshi harakatlarini noqonuniy deb hisoblab, bu harakatga qarshi chiqdi. Buyuk Britaniya tashqi ishlar vaziri D. Milibend Rossiya boshqa bir davlat chegarasini kuch bilan buzgan degan aybni qo'ydi.

Bundan tashqari Buyuk Britaniya va Rossiya o'rtasidagi munosabatlarning ziddiyatli ahvolga kelib qolishiga 2004-yilda Ukrainada bo'lib o'tgan prezident saylovlari masalasi ham sabab bo'ldi. Bu saylovlarda Buyuk Britaniya tarafi AQSH tarafdori bo'lgan nomzodni qo'llab quvvatladi

AQSH va Buyuk Britaniya o'z navbatida Ukrainaga boshqa ko'z bilan qarashidan maqsad, ular bu davlatni Rossiyaga qarshi o'zlariga ta'sirini o'tkazadigan hudud sifatida qaramoqda edi. AQSHni bu davlat saylovlarida faol ishtirok etishi natijasida Ukraina tarixida “ zarg'oldoq inqilob” nomi bilan qolgan inqilibga olib keldi. Saylovlar natijasida hukumat tepasiga Viktor Yushenkoning kelishi davlatning tashqi siyosatda endilikda ko'proq g'arb davlatlar birinchi navbatda YI va NATO bilan aloqalari mustahkamlandi.

Buyuk Britaniya tashqi ishlar vaziri D.Milibend o'zining bir chiqishida Ukrainani shunday siyosat qo'llashga chaqirdi, “Rossiya bilan olib borilayotgan munosabatlarda siz mustaqilligingiz-Rossiya bilan yangi munosabat o'rnatishga sabab bo'ladi. Sizning hamkorligingizda tenglik birinchi o'rinda turmog'i lozim, balki xo'jayin va xizmatkor munosabatida bo'lishi kerak emasdir” deb takidlagan edi. Buyuk Britaniya Ukarinaga Rossiyaning ukasi maqomidan voz kechishni tavsiya qiladi.

Buyuk Britaniyaning Ukraina bilan olib borayotgan hamkorligiga Rossiya tomoni o'z hududi tomon NATO ning kengayishi deb baholaydi. U NATOning Rossiya hududiga yaqin joyda bo'lishiga qattiq qarshilik bilan chiqadi. Ukraina hududida NATO ning paydo bo'lishi Buyuk Britaniya va Rossiya munosabatlariga

salbiy ta'sirini o'tkazadi. The Independent gazetasiga bergan intervyusida Buyuk Britaniyadagi Rossiya elchisi Yuriy Feodorov shunday deydi " Biz NATOning kengayishini bloklab qo'ya olmaymiz, biroq biz o'z xavfsizligimizni taminlash choralarini ko'ra olamiz". Buyuk Britaniya tashqi ishlar vaziri D. Milibend Ukraina va Rossiya o'rtasidagi aloqalarni hozirgi vaqtdagi ahvolini yaxshi o'rganish kerakligini takidlab o'tadi.

Tashqi siyosatdagi bu kabi o'yinlar ikki davlatning iqtisodiy hamkorligining to'xtab qolishiga olib kelmadi. Ikki o'rtada iqtisodiy aloqalarda neft savdosi yuqori o'rinlarda turdi. Neft savdosini yanada rivojlantirish choralari ko'rib chiqila boshlandi. Buyuk Britaniyaning Rossiya qazib olayotgan neft mahsulotlariga talabi yuqori bo'lganligi sababli bu sohani modernizatsiya qilinishiga o'z sarmoyasini kiritdi. Bu davrda Buyuk Britaniya Rossiyaga 10 mlrd dollar miqdorida investitsiyani neft sanoatini yaxshilash maqsadida kiritdi. 2003-yilda ikki davlat o'rtasidag tovar aylanishing umuniy hajmi 5 mlrd funt-sterlingni tashkil qildi. Rossiya hududida o'nlab Buyuk Britaniya kompaniyalari samarali faoliyat yuritishardi. Shunday bo'lsa ham Buyuk Britaniyaning bu sohadagi harakatlari boshqa Yevropa davlatlariga qilayotgan iqtisodiy hamkorligidan ancha ortda bormoqda edi⁶⁵.

Buyuk Britaniya hamkorligining rivojlanishida qator jabhalarda qoniqarli natijalarga erishildi. Bu ko'proq iqtisodiy hamkorlikdaga aloqalarining rivojlanganligi bilan bog'liq edi. Siyosiy jihatdan Rossiya va Buyuk Britaniya ikki xil pozitsiyada turardi. Bundan tashqari xalqaro terorchilikka qarshi kurash masalasida ham ikki davlat bir xil fikrda edi. Angliya bilan Rossiyaning munosabatlarining rivojlanishiga to'siq bo'layotgan jihat bu dastlab inglizlar tomonidan chechen jangarilarining qo'llab quvvatlanishi bo'lsa, keyinchalik

⁶⁵ Гусаров Ю.А. Восприятие России в Великобритании // Актуальные проблемы Европы: Сб. научных трудов. - М., 2008. - № 3: Россия и Европа: особенности взаимного восприятия. – ст.112.

Ukrainadagi Buyuk Britaniyaning olib borgan harakatlari va Rossiyaning Gruziya bilan aloqalariga aralashuvini ham keltirib o'tishimiz mumkin.

XXI asrdagi iqtisodiy munosabatlar, XXI asr boshlarida Rossiyada chuqur o'zgarishlar davri bo'ldi. Davlatda butun dunyoda bo'layotgan iqtisodiy integratsion jarayonlarga faol qo'shilish masalalari muhokama qilindi. Bu davrda Rossiyaning tashqi savdodagi ishlariga davlat hukumati tomonidan ijobiy ishlarni olib borildi. Rossiya hudud jihatidan ulkanligi bu iqtisodiy aloqalarda faol ishtirok etishiga juda qo'l keldi. Buyuk Britaniya hukumati Rossiyaning keng hududga ega davlat ekanligini bilib, u bilan olib borilayotgan iqtisodiy aloqalarning rivojlantirishdan manfaatdor edi.

Buyuk Britaniyadan Rossiya bozorlariga kiritilayotgan mahsulotlar o'zining sifatliligi bilan ajralib turardi. Bu eksportda asosiy o'rinni mashinalar egallardi, u butun savdo hajmining 66 % ni tashkil qilgan bo'lsa, kimyoviy mahsulotlar esa 15%ni tashkil qildi. Bundan tashqari boshqa mahsulotlar savdosi ham yaxshigina rivojlangandi. Buyuk Britaniyadan tibbiyot anjomlarini, dori vositalari, keng iste'mol mollari va shu kabi mahsulotlar importi ham sezilarli o'rinni egallardi.

XXI asrdagi dunyodagi ko'pgina siyosiy jarayonlarga ikki davlat deyarli ikki xil pozitsiyadan turib o'z fikrlarini bayon qilishardi. XXI asrda AQSH tomonidan Afg'onistondagi harbiy harakatlarga hamda bunda Buyuk Britaniyaning ishtirokiga ham o'z salbiy munosabatini bildirdi.

Buyuk Britaniyada hokimiyat tepasida leyboristlar partiyasining yetakchilari T. Bler va Gordon Braun davrida Rossiya bilan bo'lgan aloqalarni siyosatchilar tomonidan "Muzlash nuqtasi"degan tarif beradi. Ikki davlat o'rtasida XXI asrning birinchi o'n yilligi o'rtalariga kelganda munosabatlar ancha sovuqlasha bordi. Davlatlar G 8 va G 20 uchrashuvlarida ham bir biriga qarama-qarshi pozitsiyada turdi. Jahon moliyaviy inqirozini o'zaro bartaraf etishda ham hamfikrlik yo'q edi.

Ikki davlat o'rtasida o'rnatilayotgan viza rejimini yengillashtirish ishlari ikki tomonlama to'xtatildi⁶⁶.

Buyuk Britaniyada Rossiyani xalqaro maydonda o'z qurolli kuchlari yordamida xalqaro muammoli masalalarni yechishga qarshi edi. Buning o'rniga Buyuk Britaniya Yevropa davlatlarini o'zaro hamkorlikka chaqirdi. Bu hamkorlikdan maqsad xavfsizlikni taminlash edi.

2008-yil 26-yanvardan 18-aprelgacha Buyuk Britaniya poytaxti London shahrida rossiyalik va fransuz rassomlariga tegishli bo'lgan 1870-1925-yillar shedevri bo'lgan asarlar ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Shu yilning o'zida anig'rog'i 2008-yil 5-sentyabrdan 16-noyabrgacha Moskva shahrida Moskva muzeylari va Londonning Viktoriya va Albert muzeyi bilan hamkorligida "Britan modasining ikki asri" deb nomlangan ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Bu ko'rgazmada XVIII va XIX asrlarda odamlar tomonidan kiyilgan 80 dan ortiq kiyimlarning namoyish qilinishi diqqatga sazovar edi. Bu ko'rgazmada 65 mingdan ziyodroq odam qatnashdi. Bunga javob tariqasida Londonda 2008-yilning 10-dekabrida "shohlar g'aroyiboti" ko'rgazmasi ochildi. Britaniyaliklar bu ko'rgazmada o'z navbatida XVIII va XIX asrlarda rus imperatorlari tomonidan kiyilgan kiyimlarni tomosha qilishga sazovor bo'ldi. 2008-yil noyabr oyida Tate muzaeyi hamkorligida Pushkin muzeyida mashhur ingliz rassomi Uilyam Terner qalamiga mansub bo'lgan san'at asarlarini manoyishi bo'lib o'tdi. Eng qizig'i bu rassom qalamiga mansub asarlar 1975-yildan beri birinchi bora ko'rgazmaga qo'yilishi edi.

Har yili London shahrida "Rus qishi" deb nomlangan festival o'tkazilardi. O'z navbatida Rossiyada Buyuk Britaniya kinosi kunlari o'tkazilardi. Bu kabi tadbirlar ikki davlat fuqarolari tomonidan juda iliq kutub olinardi. 2006-yilda Londonda rus kinosi kunlari o'tkazildi. 2009-yilning 30-oktyabrdan 8-noyabrigacha Londonda navbatdagi Rossiya kinosi kunlari bo'lib o'tdi. Bu kabi ishlarning faol olib borilishi natijasida Buyuk Britaniyada Rossiya madaniyatiga

⁶⁶ Давитсон А.Б. На путях взаимопонимания // Россия и Британия. Вып. 5. На путях к взаимопониманию / Отв.ред. и сост. А.Б. Давидсон. - М.: Наука, 2011

bo'lgan qiziqish ortib bora boshladi. Rossiya-Buyuk Britaniya madaniy tashkiloti direktori, festival tashkilotchisi bo'lgan Svetlana Ajubeyning bildirishicha uch yil davomida festivallarga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada o'sdi. Mening fikrimcha deb davom etadi u Buyuk Britaniya aholisining Rossiya madaniyatiga har tomonlama qiziqishi sabab bo'lgandir. Yana uning fikricha madaniy tadbirlar orqali bir davlatning tarixi va madaniyatini boshqa bir davlat aholisiga qiziqitirish bu juda katta mahorat deya takidlaydi.

Madaniy hamkorlik munosabati masalalari Buyuk Britaniya tashqi ishlar vaziri D. Miliband 1-2-noyabr 2009-yilda Rossiyaga tashrif chog'ida muhokama qilindi. Buyuk Britaniya tashqi ishlar vazirining fikriga ko'ra ikki davlat o'rtasidagi madaniy aloqalarning mustahkamlanishi o'z navbatida siyosiy aloqalarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi degandi.

Xulosa

Buyuk Britaniyada XX asrning 90-yillarida siyosiy hayotida ko'plab o'zgarishlar sodir bo'ldi. Hukumat tepasida uzoq yillardan beri o'z o'rnini hech kimga bermasdan kelayotgan konservatorlar partiyasi 1997-yilda parlamentga bo'lib o'tgan saylovlarda mag'lubiyatga uchradi. Bu partiyaning mag'lubiyatga uchrashiga davlatda boshlangan tushkunlik sabab bo'ldi.

Dissertatsiyaning birinchi bobi bo'yicha quyidagi jihatlariga alohida o'z e'tiborimni qaratib shu ishlarni qilishga harakat qildim :

1. Toni Blerning 1997-yildagi saylovdagi g'alabaga erishishidagi olib borgan ishlari;
2. XX asrning 90-yillaridagi Buyuk Britaniyadagi iqtisodiy ahvolning ancha boshi berk ko'chaga kirib qolganligi va bunday vaziyatdan chiqish uchun leyboristlar partiyasi tomonidan ko'plab ishlar amalga oshirildi. Ular davlatning iqtisodiy ahvolini yaxshilash maqsadida bir qator qonunlar chiqardi;
3. XX asrning 90-yillarida Buyuk Britaniyada ijtimoiy ahvolning yomonlashuvi va hukumat tepasiga kelgan Toni Bler tomonidan olib borilgan islohotlar va ularning natijalarini yoritishga harakat qildim;
4. Toni Bler boshchiligidagi leyboristlarning saylov oldida bergan va'dalari bo'yicha davlatda konstitutsion islohotlarni amalga oshirildi. Bu islohotlar o'zining demokratik ruhdaligi bilan ajralib turdi;
5. Buyuk Britaniyada azaldan muammo bo'lib kelayotgan mintaqaviy boshqaruv tizimini tartibga solishda ham leyboristlar bir qator qonunlarni chiqardi.

Birinchi bob bo'yicha yuqoridagi jihatlariga o'z e'tiborimni qartdi. Bunda Buyuk Britaniyadagi siyosiy vaziyatdagi tanglik, iqtisodiy hayotdagi muammolar va ularning hal qilinish yo'llari, davlatda ijtimoiy sohada bo'lgan e'tibor konservatorlar davridagiga qaraganda ancha oshganligi, ancha vaqtdan beri o'tkazilishi lozim bo'lgan konstitutsion islohotlarning amalga oshirilganligi, eng

ogʻriqli muammolaridan biri boʻlgan mintaqaviy boshqaruv tizimini tartibga solish maqsadida Toni Bler tomonidan qilingan ishlar dissertatsiyaning asosiy qismida batafsil yoritildi.

Buyuk Britaniyaning 1997-2000-yillaridagi leyboristlar hukumronligi davri boʻyicha quyidagi natijalarga erishildi:

Birinchidan, Leyboristlarning davlat iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini tartibga solish maqsadida qilgan ishlari;

Ikkinchidan, Davlat uchun eng kerakli vaziyatda konstitutsiyaviy va mintaqaviy boshqaruviga oid boʻlgan islohotlarning qilinganligi;

Uchunchidan, XX asrning 90-yillari oxirida davlatning mavqeyini har tomonlama oshirganligi va boshqalar.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi oʻz eʼtiborimni quyidagi jihatlariga qaratib, shularni aniqlashga harakat qildim:

1. XXI asrda Buyuk Britaniyada leyboristlar tomonidan olib borilgan siyosat;
2. XXI asrda davlatning iqtisodiy koʻtarilishi, ijtimoiy sohalarga oid olib borilgan siyosat va parlamentga oʻtkazilgan saylovlar va uning natijalari;
3. Davlatda Toni Blerga boʻlgan ishonchning yoʻqolishi va bosh vazir lavozimiga Gordon Braunning kelishi;
4. 2008-yilda boshlangan jahon iqtisodiy inqirozining Buyuk Britaniyaga taʼsiri va boshqalar.

Ikkinchi bobda olib borgan izlanishlarim boʻyicha quyidagilarni aniqladim: XXI asrdagi Buyuk Britaniyaning xoʻjaligidagi oʻzgarishlar, parlamentga oʻtkazilgan saylovlar natijalari, mintaqaviy boshqaruvda yangi muammolarning kelib chiqqanligi, Toni Blerning hokimiyat tepasidan ketishi va Braunning kelishi sabablari, jahon iqtisodiy inqirozida davlatning koʻrgan zararlari.

Leyboristlarning ikkinchi va uchunchi boshqaruvi davrida Buyuk Britaniya boʻyicha quyidagi natijalarga erishildi:

Birinchidan, leyboristlarning parlament saylovlarida ishonchli g'alabaga erishganligi. Bunda bosh vazir bo'lgan Toni Blerning olib borgan siyosati;

Ikkinchidan, Davlatda iqtisodiy hayotning barqarorlashuvi va buning natijasida leyboristlarga bo'lgan ishonchning ortganligi;

Uchunchidan, Toni Blerning o'z o'rnini Gordon Braunga boshatib berishi va leyboristlarning obro'sining tushishi;

To'rtinchidan, Jahon iqtisodiy inqirozining davlat iqtisodiyotini larzaga solishi va unga qarshi leyboristlar tomonidan olib borilgan ishlar.

Dissertatsiyaning 3-bobida Buyuk Britaniyaning 1997-2010-yillar chegarasidagi tashqi siyosatni yoritishga harakat qildim:

1. Buyuk Britaniya va AQSh o'rtasidagi munosabatlarning ancha yaqinlashuvi, buning natijasida Angliyaning tashqi siyosatda AQSh ta'siriga yanada tushub qolishi;
2. Toni Bler tomonidan Yevropa Ittifoqiga bo'lgan munosabatning o'zgarishi;
3. Bu davrda Buyuk Britaniya va Rossiya o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi hamkorlikni rivojlanishi.

Uchunchi bob bo'yicha olib borgan izlanishim davomida shularni aniqladim: Bular, Toni Blerning AQSh prezidentlari bilan shaxsiy munosabatlarda ancha yaqinligi, leyboristlar partiyasi qat'iy siyosati natijasida funt-sterlingni saqlab qolinganligi, Rossiya bilan muosabatlarda Buyuk Britaniya ikkiyuzlamachilik siyosat olib borganligi.

Leyboristlar hokimiyat tepasida turgan vaqtda tashqi siyosatda quyidagi natijalarga erishildi:

Birinchidan, Leyboristlar tashqi siyosatda o'zlariga mos siyosat olib borishga harakat qildi. Bunda AQSH bilan yaqinlashishni maqsad qilgandi.

Ikkinchidan, Toni Bler Buyuk Britaniyani yevro zonasidan holi deya e'lon qildi va Yevropaga tegishli har qanday masalada o'zining qat'iy pozitsiyasini saqlab qolishga harakat qildi;

Uchunchidan, Rossiya bilan olib borilgan siyosatda o'z manfaati yuzasidan yaxshi munosabatda bo'lib amalda esa unga qarshi siyosat yuritdi.

Xullas, leyboristlar boshqaruvi davrida Buyuk Britaniya har tomonlama rivojlandi. Davlat ichiki va tashqi siyosatda o'z maqsadi bo'yicha harakat qilib bir qancha natijalarga erishdi. 1997-2010-yillar Angliya tarixiga "leyboristlar davri" nomi bilan kirdi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti asarlari

1. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”./Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: : “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. 2017 yil 14 yanvar Sh.M. Mirziyoyev.– Toshkent : O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
3. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. 2 /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.

Asosiy adabiyotlar

1. Алексеев Н.А. Палата лордов Британского Парламента: от Суда Короля Эгберта до революции Премьера Тони Блэра, 825–2003 гг. — М.: Бек, 2003.
2. Богатуров А. Д. Системная история международных отношений. М.: Культурная Революция, 2006
3. Булмистре, Я.Э. Великобритания: The Land of Hope and Glory [Текст] / [Булмистре Я., Высоцкий В., Смирнов С.]. Санкт-Петербург: ООО "ЦПО", 2012 – 160 с.
4. Валуев, А.В. "Новая" Великобритания и Европейский Союз: вызовы глобального мира [Текст] / А. В. Валуев. Санкт-Петербург: Инфо-да, 2010 – 309 с.
5. Валуев, А.В. От "неоконсерватизма" к "новому лейборизму". "Третий путь" в интерпретации Т. Блэра: науч. изд. / Валуев Антон Вадимович; Санкт-Петербургский гос. ун-т, Фак. международных отношений, Каф. европейских исслед. "Третий путь" в интерпретации

- Т. Блэра. Санкт-Петербург: Фак. Международных Отношений Санкт-Петербургского гос. ун-та: Арден, 2006 – 64 с.
6. Валеева Р. Р., Гришин Я. Я. Российско-британские отношения в период правительства Г. Брауна//Учёные записки Казанского государственного университета. - Серия: Гуманитарные науки. - 2010. - Т. 152. - Т. 3. - Ч. 2. - С. 229-238..
 7. Великобритания. Эпоха реформ / Под ред. А.А. Громыко. - М., 2007
 8. Витохина, О.А. Великобритания: позиционирование страны [Текст] = Great Britain: positioning the country: учебное пособие / О. А. Витохина; Автономная некоммерческая организация высш. проф. образования "Белгородский ун-т кооперации, экономики и права" Great Britain: positioning the country. Белгород: Изд-во Белгородского ун-та кооперации, экономики и права, 2012 – 204 с
 9. Голицынский, Ю.Б. Великобритания [Текст] = Great Britain: [пособие по страноведению] / [сост.]: Ю. Б. Голицынский. Санкт-Петербург: КАРО, печ. 2014 – 477 с.
 10. Громыко Ал.А. Модернизация партийной системы Великобритании. — М.: Весь мир, 2007.
 11. Гусаров Ю.А. Восприятие России в Великобритании // Актуальные проблемы Европы: Сб. научных трудов. - М., 2008. - № 3: Россия и Европа: особенности взаимного восприятия. - С. 109-117.
 12. Дилеммы Британии: поиск путей развития / Под ред. Ал.А. Громыко (отв. ред.), Е.В. Ананьевой. - М.: Издательство «Весь Мир», 2014. – 480с.
 13. Д Дойль, А.К. Англия и остальной мир. Взгляд с Бейкер-стрит [Текст]: Артур Конан Дойл Взгляд с Бейкер-стрит. Москва: Алгоритм, 2014 – 238 с
 14. Капитонова Н.К. Приоритеты внешней политики Великобритании (1990-1997 гг.). - М., 1999

- 15.Капитонова Н.К. Великобритания в конце XX – начале XXI века: от консерваторов к лейбористам: Учебное пособие. М.: МГИМО (У) МИД России, 2003. 128 с.
16. Кузьмичёва Л.О. Великобритания и европейская интеграция: подход британских лейбористов (1988–2001 гг.): дис. ... канд. ист. наук: 07.00.03. М., 2005. 213
- 17.Минаев М. В. Американо-британские отношения при правительстве Блэра//США - Канада: экономика, политика, культура. - 2008. - № 5. - С. 31-43.с.
- 18.Остапенко Г.С., Прокопов А.Ю. Новейшая история Велико британии: XX — начало XXI века: Учеб. пособие. — М.: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2012. — 472 с.
- 19.Романова О.В. Внешнеполитические стратегии Франции, Германии и Великобритании в контексте развития и имплементации ОВПБ ЕС: дис. ... канд. ист. наук: 23.00.04. Одесса, 2008. 185 с.
- 20.Яковенко Н.Л. Великобритания в современной системе международных отношений: заявка на евро-пейское лидерство. Киев: Науковий світ, 2003. 227 с.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Абашидзе, А. Х. Международное право [Текст]: [учебник] / [Абашидзе А. Х. и др.]; отв. ред. Б. Р. Тузмухамедов; Российская ассоциация международного права. Москва: НОРМА: ИНФРА-М, 2014 – 575 с.
2. Ашавский, Б.М. Международное право [Текст]: учебник / [Б. М. Ашавский и др.]; отв. ред. С. А. Егоров; Дипломатическая акад. МИД России. Москва: Статут, 2014 – 1085 с.
3. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. М. 2004.
4. Давитсон А.Б. На путях взаимопонимания // Россия и Британия. Вып. 5. На путях к взаимопониманию / Отв.ред. и сост. А.Б. Давидсон. - М.: Наука, 2011.

5. Перегудов С.П. Тони Блэр. — М.: ИНИОН РАН, 1999.
6. Перегудов С.П. Тони Блэр – архитектор «нового лейборизма». — М.: РОСФролов В.П. Либеральные демократы Великобритании на парламентских выборах: программные установки, стратегия, избиратели. — Магадан: Изд-во СМУ, 2003.-СПЭН, 1999.
8. Копийка В.В., Шынкаренко Т.И. Европейский Союз: история и основы функционирования: Учебное пособие / Под ред. Л.В. Губерского. Киев: Знання, 2012. 760 с
9. Гусева, И. Великобритания [Текст]: [12+] / [авт. текста И. Гусева]. Москва: .ирект-Медиа: Комсомольская правда, 2014 – 95 с.

Internet resurslari

1. Corbett R. Why eurosceptiques should vote for the Constitution. - [www.euobserver.com/? aid=18119](http://www.euobserver.com/?aid=18119), 12.01.2005
2. Grant C. What if the British vote No? - Foreign Affairs, May / June 2005 - www.foreignaffairs.com
3. Helmer R. Busting the EU myths.- [www. brugesgroup. com/ mediacentre/ comment.live? article=123](http://www.brugesgroup.com/mediacentre/comment.live?article=123)
4. Mahony H. Plans for EU diplomatic service can officially begin. - [www.euobserver.com/? aid=18233](http://www.euobserver.com/?aid=18233), 26.01.2005
5. Терентьев А.А. Гордон Браун: моралист у власти. // Россия в глобальной политике. - 2007. - №4 (июль-август). - http://www.globalaffairs.ru/number/n_9215
6. Чернов М. Великобритания наступает на позиции России в Закавказье [Электронный ресурс] / М.Чернов // RBCdaily. - Режим доступа: <http://www.rbcdaily.ru>
7. www.eulaw.edu.ru
8. 18. www.geopolitika.lt
9. 19. www.prime-tass.ru

Avtorefarat va davriy nashrlar materiallari

1. Крушинский В.Ю. Великобритания в европейских интеграционных процессах: автореф. дис. – полит. 23.00.04. Киев, 2004. 32 с.
2. Морозов А.М. Факторы формирования политики Великобритании в отношении ЕС: Автореф. дисс... канд. полит. наук. - М., 2008. - <http://www.ieras.ru/diss4.htm>
3. А.А. Терентьева, Р.Р. Валеевой и Я.Я. Гришина Терентьев А. А. Торийская внешняя политика Тони Блэра//Мировая экономика и международные отношения. - 2005. - № 9. - С. 47-54; № 10. - С. 45-53;